O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MARKAZI

**Z.M. ISLOMOV, N.A. MUHAMEDOV, F.A. SINDAROVA**

# DINSHUNOSLIK

*Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

TOSHKENT
«Niso Poligraf»
2016

UO‘K: 291(075.32)
KBK 86.3
I 53

**T a q r i z c h i l a r:**

***M. Artikov*** – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
***M. Komilov*** – tarix fanlari nomzodi, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning xulosasi asosida tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016-yil 6-apreldagi 137-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**Islomov Z.**
**Dinshunoslik:** akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Z. Islomov, N. Muhamedov, F. Sindarova. /O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: «Niso Poligraf», 2016. – 120 b.

Mamlakatimizda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda milliy qadriyatlar bilan bir qatorda diniy qadriyatlarning ham ahamiyati katta. Xalqimizning buyuk ajdodlarimiz merosidan bahramand bo‘lishi, islom dinining insonparvarlik falsafasi va ezgu g‘oyalari yoshlar qalbidan joy olishi uchun mamlakat ta’lim tizimi sohasida ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Jumladan, jahon madaniyatining muhim qismlaridan biri hisoblangan dinga, xususan, «Dinshunoslik» faniga qiziqish tobora ortib bormoqda.

«Dinshunoslik» fani bo‘yicha ushbu o‘quv qo‘llanma akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan.

**UO‘K: 291(075.32)**
**KBK 86.3я721**

ISBN 978-9943-4765-1-6

© «Niso Poligraf», 2016-y.

# KIRISH

Globallashuv jarayonlari kechayotgan hozirgi kunda turli madaniyat va dinlarga mansub xalqlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlik, o‘zaro bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada dinshunoslik fani oldiga muhim vazifalar qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilayotgan sharoitda turli konfessiya vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish dolzarb masalalardan sanaladi. Hozirda O‘zbekistonda 16 diniy konfessiya vakillari emin-erkin faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘z navbatida ko‘pdinlilik sharoitida o‘quvchi yoshlarimiz barcha bilimlar qatori dinshunoslik fanini ham yaxshi o‘zlashtirishi lozim.

Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida inson ongi va qalbini egallash uchun kurash ketayotgan davrda din omilining ahamiyati beqiyos. Bugungi yoshlar davlat va din hamda jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning ma’naviy, ma’rifiy, ijtimoiy jihatlarini to‘g‘ri idrok etishlari zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, *«Dunyoviy va diniy qadriyatlar o‘rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to‘g‘ri tushuntirishimiz lozim. Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to‘ldirmas ekan, bugungi kunning og‘ir va murakkab savollariga to‘laqonli javob topish oson bo‘lmaydi. Shu ma’noda, biz muqaddas dinimiz arkonlari va qadriyatlarini doimo ulug‘lab, shu bilan*

*birga, dunyoviy hayotga ham qat'iy ishonch bilan intilib yashagan taqdirdagina o'z ezgu maqsadlarimizga yeta olamiz»*[1].

Mazkur fikrni amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida «Dinshunoslik» fani joriy etilgan.

Ta'lim muassasalarida dinshunoslik fanini o'qitishdan asosiy maqsad – o'quvchi yoshlarga din, uning kelib chiqishi, taraqqiyoti, insoniyat hayotida tutgan o'rni haqida umumiy tushunchalar berishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning din, o'zbek xalqining ma'naviy merosi, qadriyatlari, milliy istiqlol g'oyasi haqidagi fikr-mulohazalari, chuqur ilmiylik, tarixiylik, xolislik tamoyillari asos qilib olindi.

«Dinshunoslik»ning asosiy fanlar qatorida o'qitilishi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining sharofati ekanligi, din, dindorlar va diniy tashkilotlarga nisbatan davlat tomonidan adolatli siyosatning o'rnatilishi, vijdon erkinligining fuqarolarga Konstitutsion kafolatlanishini tushuntirish bosh maqsadlardan biri qilib qo'yildi. «Dinshunoslik» fani bo'yicha qaytadan tuzatish va to'ldirishlar kiritilgan ushbu o'quv qo'llanma akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga moslab tuzilgan.

[1] *Karimov I.A.* Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008. B. 96.

## 1-§. «DINSHUNOSLIK» FANIGA KIRISH

Din inson va jamiyat hayotining ma'naviy asoslaridan biri bo'lib, kishilarni ezgulikka chorlab kelgan. Din (arabcha – ishonch, ishonmoq) – borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi oliy mavjudotga, ya'ni xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmui sanaladi. Har bir din o'ziga xos sig'inish obyekti va rasm-rusum, ibodat va aqidalarga ega.

**«Dinshunoslik»** barcha ijtimoiy fanlar qatori o'zining o'rganish obyektiga ega. U dinning paydo bo'lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyutsiyasini ilmiy jihatdan o'rganadi.

**«Dinshunoslik»** fanining maqsadi:

– o'quvchilarga din haqida to'g'ri, ilmiy asoslangan va bugungi hayot talablariga mos tushunchalar berish;
– din va uning kelib chiqishi, milliy va jahon dinlari asoslari, ta'limoti, tarixi to'g'risida ilmiy-nazariy tushunchalar berish;
– dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari, jamiyatni ma'naviy kamol toptirishda diniy qadriyatlarning ahamiyatini yoritish;
– mustaqil yurtimizda dinga munosabat, diniy qadriyatlarning tiklanishi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning mazmun-mohiyati haqida tushunchalar berish;
– haqiqiy diniy qadriyatlarni soxtalaridan farqlash, turli zararli oqimlar ta'siriga tushib qolmaslik uchun yordam

beruvchi eng muhim tushuncha va tasavvurlar asosida ma'naviy immunitetni shakllantirish;
- o'quvchilarning dinga ongli munosabatini shakllantirish hamda diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalashdan iborat.

**«Dinshunoslik»** fanining vazifalari:
- o'quvchi yoshlarda din va uning turli shakllari, ta'limoti, yo'nalishi va oqimlari haqida to'g'ri, sog'lom dunyoqarashni shakllantirish;
- fuqarolarning faoliyati vijdon erkinligiga doir qonun talablariga muvofiq ekanligi hamda e'tiqodi sog'lom shaxs ma'naviyatida milliy va diniy qadriyatlar uyg'unligining o'ziga xos jihatlarini o'quvchi yoshlar ongiga singdirish;
- o'quvchi-yoshlarni diniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash, turli dinlar va ularning vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalarimiz bilan faxrlanish kabi yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashdan iborat.

## Din tushunchasiga berilgan ta'riflar

Din tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatni bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limot.

Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyati orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida yo'li, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan hozirgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega ma'naviy-axloqiy kuch sanaladi.

Din tushunchasi turlicha izohlansa-da, umumiy nuqtayi nazardan qaraganda u ishonmoq tuyg‘usidir. Ishonmoq tuyg‘usi insoniyatning eng teran ruhiy-ma’naviy ehtiyojlaridan sanaladi. Dunyoda dini, ishonchi bo‘lmagan xalq yo‘q. Chunki muayyan xalq dinsiz, e’tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi.

Dinshunoslikda dinga «dinning o‘zi nima?», «uning mohiyati nimadan iborat?» degan savol bilan yondashishdan tashqari «din qay tarzda faoliyat olib boradi?» degan nuqtayi nazardan ham yondashuv mavjud. Bu masala bilan ko‘proq din sotsiologiyasi shug‘ullanadi.

Sotsiologik nuqtayi nazardan qaralganda din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismi. U ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, dinni jamiyatda bajargan vazifalariga ko‘ra o‘rganish mumkin.

Dinning vazifalari uning alohida shaxs va jamiyatga ta’siri, ular o‘rtasidagi munosabatlarda o‘z aksini topadi. Bunda har bir din unga e’tiqod qiluvchi muayyan bir shaxs u yoki bu jamoaga va umuman jamiyatga nima berishi, insonlar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatishi kabi masalalar o‘rganiladi.

Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iborat:

*Birinchidan,* har qanday din o‘z e’tiqod qiluvchilari uchun to‘ldiruvchilik, tasalli beruvchilik – kompensatorlik vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil bo‘lishi hodisasini olaylik. Inson o‘z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlari jarayonida hayotiy maqsadlariga erishishi ilojsiz bo‘lib ko‘ringanida, unda qandaydir ma’naviy-ruhiy ehtiyojga zaruriyat seziladi. Bu dinga bo‘lgan ehtiyoj edi. Din bu o‘rinda ma’naviy-ruhiy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajargan va hali ham bajarmoqda.

Masalan, buddaviylik dini rohiblikni targ‘ib qilar ekan, bu dunyoda orzu-havaslardan, rohat-farog‘atdan voz kechgan inson nirvana holatiga erishgach, abadiy rohatda bo‘lishini ta’kidlaydi. Shuningdek, xristianlikda har bir xristian Iso Masihning qaytishiga umid qilgan holda hayotning turli muammolarini yengib, sabr-bardosh bilan hayot kechiradi. Chunki xristianlik Iso Masih qaytib kelgach, barcha izdoshlarini saodatli hayotga yetkazishi haqidagi ta’limotni ilgari suradi.

Shuningdek, islom dinida ham har bir musulmon bu dunyoda erishmagan moddiy yoki ruhiy orzu-istaklariga oxiratda erishishga ishongan holda dunyo orzu-havaslariga ortiqcha berilmay, turmush mashaqqatlariga sabr qiladi.

*Ikkinchidan,* muayyan din o‘z ta’limot tizimini vujudga keltirgach, o‘ziga e’tiqod qiluvchilar jamoasini shu ta’limot doirasida saqlashga harakat qilgan va hozirda ham shunday. Bu ijtimoiy hodisa dinning birlashtiruvchilik – integratorlik vazifasi deb ataladi. Din hamisha muayyan ijtimoiy, etnik va ma’naviy hayotni qamrab olishga intiladi. Buning muntazamligini ta’minlash maqsadida din xalqlarning ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, shuningdek, adabiyoti va san’atiga chambarchas bog‘lanib ketgan.

Masalan, yahudiylikda mazkur din vakillarini bir mafkura atrofida saqlab turish uchun ularni bir millat va yagona maslak egalari, yagona xudo – Yahvening eng sevimli bandalari ekanligi uqtiriladi.

Xristianlikda ham e’tiqod qiluvchilarni bu dinga yanada ko‘proq jalb etish uchun diniy me’moriy, tasviriy, musiqa san’ati turlaridan unumli foydalaniladi.

*Uchinchidan,* har bir din o‘z qavmlari turmushini tartibga solib, nazorat qiluvchilik – regulyatorlik vazifasini bajaradi. Dinlar o‘z urf-odatlari, marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan o‘z vaqtida, qat’iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo‘yadi.

*To‘rtinchidan,* din aloqa bog‘lashlik – kommunikativlik vazifasini ham bajaradi, ya’ni har bir din o‘z qavmlarining birligi, jamiyat bilan shaxsning o‘zaro aloqadorlikda bo‘lishini ta’minlashga intiladi. Bunda u yoki bu dinga e’tiqod qiluvchi kishilarning o‘z dinidagi boshqa kishilar bilan aloqador ekanligi, o‘zaro huquq va burchlarining borligi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo‘lib bajarilishi lozimligi nazarda tutiladi.

*Beshinchidan,* dinning integratorlik vazifasi bilan legitimlovchilik – qonunlashtiruvchilik vazifasi chambarchas bog‘liq. Dinning bu funksiyasi nazariy asosini yirik amerikalik sotsiolog T. Parsons ishlab chiqqan. Uning fikricha, «har qanday ijtimoiy tizim muayyan cheklovlarsiz mavjud bo‘la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko‘tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo‘lgan munosabatni ham belgilaydi».

**DINNING VAZIFALARI**



*Oltinchidan,* din vazifalarining falsafiy, nazariy jihatlari ham mavjud. Bu vazifa insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, dorulfano va dorulbaqo kabi dunyo masalalariga o‘z munosabatini bildirib turishidan iboratdir.

Din insonning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning ijtimoiy hayotida doimo u bilan birga bo‘ldi. Shuning uchun ham dinni o‘rganish – bu insoniyatni o‘rganish demakdir. Dinni insoniyatdan, insoniyatni dindan ajratib bo‘lmasligini tarixning o‘zi isbotladi. Demak, din insoniyat bilan birga dunyoga kelgan.

Dinlar unga e’tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o‘zining ma’lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko‘ra turli guruhlarga bo‘linadi:

1. **Urug‘-qabila dinlari** – totemistik, animistik, fetishistik tasavvurlarga asoslangan, o‘z urug‘idan chiqqan sehrgar, shomon yoki qabila boshliqlariga sig‘inuvchi dinlar. Ular millat va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo‘lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba’zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2. **Milliy dinlar** – ma’lum millatga xos bo‘lib, boshqa millat vakillari o‘ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduiylik (hindlarga xos), konfutsiylik (xitoy millatiga xos), sintoiylik (yaponlarga xos) kiradi;

3. **Jahon dinlari** – dunyoda eng ko‘p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat’i nazar unga e’tiqod qilishlari mumkin bo‘lgan dinlar. Unga buddaviylik, xristianlik va islom dinlari kiradi.




Shuningdek, dinlar ta’limotiga ko‘ra monoteistik – yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik – ko‘pxudolik (hinduiylik, konfutsiylik) dinlariga bo‘linadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda dinga yangicha qarash va munosabat bildirish imkoniyati tug‘ildi. Natijada biz uchun nisbatan yangi bo‘lgan «Dinshunoslik» fani vujudga keldi. Bu fan ilgarigi ateizmdan farqli o‘laroq, dinni tanqid qilish, uni jamiyatdan yo‘qotish maqsadida emas, balki unga milliy ma’naviyatning bir bo‘lagi sifatida yondashib, uni xolisona o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

O‘rta Osiyoga VII asr oxiri – VIII asr boshlarida kirib kelgan Islom dini uzoq tarixiy jarayonlar mobaynida mahalliy xalqlarning asosiy diniy e’tiqodiga aylandi. Shunga ko‘ra mazkur xalqlarning milliy, diniy va umuman, insoniy qadriyatlarini islom dinidan ayri holda tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun ham dinshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biri yoshlarga islom dinining shaxs, oila, jamiyat hayotiga kirib borishi, madaniyat va ma’naviyatni boyitishga qo‘shgan hissasini ko‘rsatib berishdir. Ushbu fanni o‘qitishdan maqsad milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligi, bu qadriyatlarning hozirgi mustaqil O‘zbekiston sharoitidagi ahamiyatini yanada aniqroq yoritib berib, o‘quvchilarda dinga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma’naviyatli kadrlarni tarbiyalashdan iborat.

O‘zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridanoq dinning jamiyat hayotidagi muhim o‘rnini anglagan holda buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlarni qayta tiklash uchun aniq va prinsipial chora-tadbirlar ko‘rila boshlandi. Davlatning dinga yangicha munosabati «inson e’tiqodsiz yashay olmaydi» degan aniq ishonch asosida belgilandi. Bu tamoyil hozirgi kunga kelib «Alloh qalbimizda, yuragimizda» so‘zlarida ifodasini topmoqda: «*Islom dini – bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanini unutmaylik*».

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov dinning jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqida jumladan shunday degan: «*Biz din bundan buyon ham aholining oliy ruhiy, axloqiy*

*va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz»*[1].

> *«Mamlakatimizni demokratik tamoyillar, ilm-fan yutuqlari, yuksak texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bilan birga, muqaddas dinimizni, milliy o'zligimizni asrab-avaylab yashashni maqsad qilib qo'yganmiz».*
>
> ***I.A. Karimov***

Din kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlab kelgan. Jumladan, ota-bobolarimizning muqaddas e'tiqodi bo'lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida boy ma'naviyati va merosi, o'zligini omon saqlab keldi.

O'zbek xalqining ilg'or madaniy va ma'naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud dinlarning tarixi, hayotiy tajribasi tadrijiy taraqqiyotini o'rganish vatan tarixini chuqurroq tushunib yetish, uni sevish va u bilan faxrlanish his-tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

**?** **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Dinshunoslik fanining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Dinga qanday ta'riflar berilgan?
3. Din jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
4. Dinlar mazmun-mohiyatiga ko'ra qanday tasniflanadi?

---

[1] *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997. B. 44.

## 2-§. DINNING IBTIDOIY SHAKLLARI

**Diniy ong asoslarining shakllanishi.** «Inson qachondan beri Xudoga ishonib keladi?», «Din qachon paydo bo‘lgan?» kabi savollar doimo olimlarni qiziqtirib, o‘ylantirib kelgan. Mazkur izlanishlar necha asrlardan beri davom etib kelayotgan bo‘lsa-da, hali hanuz bu borada bir to‘xtamga kelinmagan. Umumiy ma’noda, bugungi kunda fanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil qarash mavjud.

*Birinchi* qarashga ko‘ra dinning paydo bo‘lishi bevosita insoniyatning yaralishi bilan bog‘liq. Xudo ilk insonlarni yaratishi bilan ularga O‘zini tanitdi, natijada inson ilk dinga e’tiqod qila boshladi. Bunday qarash fanda ***«teologik yondashuv»*** deb nomlanadi. Bugun mavjud bo‘lgan har qanday din o‘zining tarixini insoniyat yaralishi – ilk inson bilan bog‘lashini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, islom dinida – Odam va Havvo, yahudiylik va xristianlikda – Adam va Yeva, zardushtiylikda – Govmard, sintoiylikda – imperator Mikado va boshqalar. Mazkur ta’limotlar dinlarning muqaddas manbalarida bayon qilingan.

Dinlarning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi qarash fanda ***«materialistik yondashuv»*** deb nomlanadi. Mazkur qarashlarning paydo bo‘lishi antik davrga borib taqalib, ilk bor qadimgi yunon faylasuflari qarashlarida aks etgan. XVII asrga kelib Yevropada cherkov hokimiyatining susaya boshlashi, hurfikrlilik namoyandalari – din tanqidchilarining paydo bo‘lishi, XIX asrning ikkinchi yarmida Charlz Darvin tomonidan «Turlarning kelib chiqishi» (1859-y.) nomli asarning chop etilishiga turtki bo‘ldi. Keyinchalik mazkur qarashlar Avgust

Kont va Lyudvig Buxnerlar tomonidan eng cho‘qqisiga ko‘tarildi. Unga ko‘ra din bu ijtimoiy hodisa, inson tafakkuri, his-tuyg‘ulari mahsulidir. Mazkur qarash tarafdorlari fikricha, dinlar soddadan – murakkabga, umumiylikdan – xususiylikka, ko‘pxudolikdan – yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy evolyutsion jarayonni bosib o‘tgan.

Umuman olganda, barcha ilmiy adabiyotlarda dinning paydo bo‘lishi borasida bildirilgan fikrlar ilmiy gipoteza (taxmin)lardan iborat. Ushbu masalaning diniy adabiyotlardagi talqini esa har bir insonning diniy e’tiqodiga bog‘liq.

**DINNING IBTIDOIY SHAKLLARI**

| | | | |
|---|---|---|---|
| Totemizm – ibtidoiy odam, urug‘, qabilaning hayvon, o‘simlik yoki alohida olingan predmet bilan qon-qarindoshlik aloqasi mavjud ekanligiga ishonish | Animizm – tabiat va jonzotlarda ruh borligiga ishonish | Fetishizm – g‘ayritabiiy kuchga ega mavjudotlarga va predmetlarga sig‘inish | Sehrgarlik – odamlarga, hayvonlarga, predmetlarga va ruhlarga g‘ayritabiiy ta’sir etish maqsadida amalga oshiradigan duolar, harakatlar |

Materialistik yondashuv tarafdorlari fikriga ko‘ra, ilk diniy tasavvurlar quyidagilar bo‘lgan:

**Totemizm.** Totem so‘zi – Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida «uning urug‘i» ma’nosini anglatadi. Uning mohiyati «odamlarning hayvonot yoki o‘simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqalari bor», deb e’tiqod qilishidir. Urug‘dosh guruhlar o‘zlarining umumiy belgilari va totemlari bo‘lgan hayvon hamda o‘simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Totemlar va odamlar orasidagi aloqalar uzoq o‘tmishga tegishli bo‘lib, uni qadimgi rivoyatlar tasdiqlaydi. Masalan, Avstraliya

aborigenlari orasida saqlanib qolgan afsonalardagi tasavvurlarni aytish mumkin.

Totemizm ta'sirida vujudga kelgan urf-odatlar, normalar asrlar davomida qat'iy ravishda qo'llanildi. Tabu – taqiqlash, ya'ni totemni oziqa sifatida iste'mol qilishni taqiqlash tizimi paydo bo'ldi. Faqatgina ba'zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoki qabila boshliqlariga totemni yeyish ruxsat etilgan. Totemizm urug'chilik jamoasi – eng birinchi ijtimoiy jamoalar diniy ko'rinishlarining tarixiy asosi bo'lib qoldi.

Totemizmning asosiy vazifalari – birlashtiruvchilik va tartibga soluvchilik edi. Totemizm ibtidoiy din shakllaridan bo'lishiga qaramasdan hozirda ham ba'zi xalqlarning urf-odatlari, e'tiqodlarida uning qoldiqlari saqlanib qolgan. Masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru, qirg'izlarda oq bug'u afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi.

Totemizmning mohiyatini odamlar bilan ayrim hayvonlar va o'simliklar orasida qandaydir yaqinlik, aloqa, qon-qarindoshlik, ajdodlik mavjud deb ishonish tashkil etadi.

**Animizm** (lotin tilida *anima – ruh,* jon ma'nolarini anglatadi). Animizm ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ruhlantirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk din shaklidir. U totemizm bilan bir vaqtda shakllangan. Animizm tabiatning qudratli kuchlari – osmon va yer, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momaqaldiroq va chaqmoqlarni ilohiylashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi. Ibtidoiy odamlar tog'lar, daryolar, adir, o'rmonlar, daraxtlar, xarsang tosh, jarliklar ham jonli, tafakkurli, sezuvchi va harakat qiluvchi, yaxshilik va yomonlik keltirishi mumkin deb tushunganlar. Ularga qurbonliklar qilib haqqiga duo qilib, marosimlar uyushtirganlar. Animizm zamonaviy dinlarning asosiy aqidaviy qismini tashkil etadi. Jahon dinlarida ham ruhlar haqidagi ta'limot mavjud.

**Fetishizm** (fetish so‘zi fransuzcha *fetishe – but*, sanam, tumor ma’nolarini anglatadi). U tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig‘inishdir. Fetish ham salbiy, ham ijobiy ta’sir etish kuchiga ega.

Fetish hisoblangan predmetlar orasida odam yoki hayvonlarning suyak qoldiqlari, qabr toshlari eng ko‘p tarqalgan. Suyak qoldiqlari fetish egasini tabiiy ofatlardan, kasalliklardan, yovuz ruhlardan saqlaydi deb hisoblangan. Qabr toshlari vafot etgan kishining tinchligini qo‘riqlaydigan ruhlar joylashgan predmet vazifasini o‘tagan. Qabr joylashgan hududga sig‘inish natijasida keyinchalik muqaddas qadamjolar vujudga kelgan. Bunday qadamjolarda maqbaralar, qo‘rg‘onlar qurilgan. Qadimda jonsiz fetishlar bilan birga jonli fetishlardan ham foydalanilgan. Jonli fetishlarga sig‘inish barcha xalqlarda mavjud bo‘lgan. Fetishlar asosan kuchli ruhni o‘zida mujassamlashtirgan va ijtimoiy hayotning ayrim sohalaridagi muammolarni hal etishga yordam bergan.

Fetishizm yog‘och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo‘lishi bilan bir paytda shakllangan. Jamoalar butlar va tumorlarda g‘ayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko‘rgan.

Ibtidoiy odamlar dastlabki diniy taassurotlarining shakllanish jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich bo‘ldi. Vaqt o‘tishi bilan dunyo haqidagi tasavvurlar takomillashib bordi va insoniyat hayotida uzoq payt o‘z ta’sirini o‘tkazib keldi. Barcha dinlarda haykallar, suratlar, tumorlar, ko‘zmunchoqlar va turli ramzlar hozirga qadar saqlanib qolgan.

**Shomonlik** yoxud sehrgarlik («shomon» so‘zi tungus tilidagi ma’nosi «afsungarlik»). Afsun real natija olish uchun ilohiy kuchlarga ta’sir etish maqsadida amalga oshiriladigan odat va rituallar majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan. Shomonlik orqali kishilar o‘z totemlari, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog‘lanishni amalga oshirib

kelishgan. U bilan maxsus kishilar – shomonlar, afsungarlar shug'ullanganlar. O'tmishda ko'proq ayollar shomonlik bilan shug'ullanganlar. Shomonlar ritual harakatlari orqali – ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida o'zlarini jazavaga solib, o'zini yo'qotish, jazavani yuqori natijaga yetkazish bilan afsungarlik qilishgan. Shomon marosim oxirida bir holatga kelib hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar edi. Shuning uchun uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblangan.

Shomonlikda ba'zi davrlarda shomonlar ishtirokida faqat ibodat qilish, qurbonlik qilinadigan hollar ham uchraydi. Bora-bora shomonlik nasldan naslga o'tadigan bo'lib, shomonlik kasbiga aylangan.

Afsungarlik odamlarning fikr yuritishi, ongining mustahkamlanishida katta rol o'ynadi. Bu diniy ongning shakllanishida muhim o'rin tutdi.

**Sehrgarlik (magiya).** Sehrgarlik – odam, hayvon va tabiatga g'ayritabiiy yo'llar bilan ta'sir o'tkazish maqsadida bajariladigan xatti-harakatlardir. Bugungi kunda ham sehrgarlik urf-odatlari odamlar hayotida ma'lum darajada rol o'ynab kelmoqda. Buning sababi insonlar doimo omadli bo'lish, yaxshi hayot kechirish, sog'lom bo'lishni orzu qilib kelgan. Sehrgarlik insonning ana shu orzu-intilishlarini qamrab olgan. Sehrgarlik marosimlari yakka holda yoki jamoa bo'lib amalga oshirilishi mumkin edi. Afsungarlik maqsadga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1) Zarar keltiruvchi;

2) Harbiylar va qurol-aslahani sehrlash;

3) Sevish yoki o'zidan sovutish maqsadida «issiq», «sovuq» qilish;

4) Tibbiy xizmat ko'rsatish, davolash;

5) Ob-havo bilan bog'liq, ya'ni yomg'ir chaqirish.

Sehrgarlik dinlar va turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

**?** **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Dinning qanday ibtidoiy shakllarini bilasiz?
2. Dafn etish va ov qilish bilan bog'liq qanday marosimlar bo'lgan?
3. Fetishizm nima?
4. Animizm qanday e'tiqodga asoslanadi?
5. Shomonlik deganda nimani tushunasiz?
6. Sehrgarlik (magiya)ning qanday turlari mavjud bo'lib, ulardan nima maqsadda foydalanishgan?

## 3-§. MILLIY DINLAR. YAHUDIYLIK, HINDUIYLIK, JAYNIYLIK, SIKXIYLIK, KONFUTSIYLIK, DAOCHILIK, SINTOIYLIK

**Yahudiylik.** Yahudiylik dini – miloddan avvalgi 2000-yillikning oxirida Falastinda vujudga kelgan, yakka xudolik g'oyasini targ'ib qilgan din. Unga faqat yahudiy millatiga mansub aholi e'tiqod qilgani uchun u millat, milliy din hisoblanadi. Yahudiy so'zining kelib chiqishiga oid turli fikrlar mavjud. U Bani Isroil xalqiga mansub Ya'qub Payg'ambarning o'g'li Yahudo nomidan olingan.

Yahudiy xalqi Bani Isroil (Isroil avlodlari) deb ham ataladi. Yahudiy xalqiga nisbatan yevrey atamasi ham ishlatiladi.

Yahudiylik ta'limoti asosan quyidagi g'oyalarga asoslanadi:

1. Olamni yaratuvchi yagona xudo Yahvega imon keltirish. «Yahve» so'zi «rab» (parvardigor) ma'nosini bildiradi. Tavrotning «Chiqish» kitobida Xudoning Musoga aytgan ushbu so'zi keltiriladi: «Yahve – ota-bobolaringiz Ibrohim, Is'hoq, Ya'qublarning parvardigori, u meni sizga yubordi» (Chiqish, 3) Yahudiy ruhoniylari «Yahve» so'zi o'rniga «Adonay» (rab, xoja) so'zini qo'llashga buyurganlar. Faqat ruhoniylargina ibodat vaqtida Yahve nomini tilga olganlar.

Yahudiylik ta'limotiga ko'ra, Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanbada esa yahudiylarga dam olish imkoniyati berildi. Shu sababli yahudiylik dinida shanba ulug' kun bo'lib, jismoniy mehnatga qo'l urilmaydi.

2. Yahudiylarning Xudo tomonidan tanlangan xalq ekanligiga ishonish.

3. Messiya – xaloskorning kelib chiqishiga ishonch. Unga ko‘ra oxirzamonda Yahve yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagilarni bajaradi:

1) Dunyoni isloh qilib qayta quradi.

2) Butun yahudiylarni Quddus yaqinidagi Sinion tepaligi atrofida to‘playdi.

3) Yahudiylarning barcha dushmanlarini jazolaydi.

4. Oxirat kuniga ishonish. Unga ko‘ra, Yahvega e’tiqod qilganlar oxiratda u tomonidan mukofotlanadi. Uning qonunlarini buzganlar esa shafqatsiz jazolanadi.

**Yahudiylik manbalari.** Tavrot (Tora) yahudiy dinining muqaddas manbalaridan sanaladi. U Muso payg‘ambarga Tur tog‘ida berilgan. Yahudiy dinining ikkinchi manbasi Talmuddir. Ushbu manbalar Injilning tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Tavrot besh kitobni o‘z ichiga oladi:

1) «Ibtido»;

2) «Chiqish»;

3) «Levit» (qabila boshliqlari);

4) «Sonlar»;

5) «Ikkinchi qonun».

Talmud (qad. yahud. lamid – o‘rganish) u og‘zaki qonun, Tora esa yozma qonun deb yuritilgan. Talmudning Falastin nusxasi milodiy III asrda, Vavilon (Bavliy) nusxalari esa milodiy V asrda ko‘chirilgan. Unda yahudiylarning esxatologik (ya’ni oxirat, qiyomat, marhumlarning tirilishi, oxiratdagi ajrim va hokazo) tasavvurlari, marosimlari, urf-odatlari bayon etilib, u 248 ta vasiyat, 365 ta taqiqni o‘z ichiga oladi.

Midrashlar – yahudiylarning yana bir diniy manbasidir. U diniy qonun-qoidalar to‘plami bo‘lib, sinagoga (yahudiylar ibodatxonasi) targ‘ibotlarida foydalanadilar.

**O'rta Osiyoda yahudiylik.** Yahudiylar O'rta Osiyoga qadim zamonlardan ko'chib kelganliklari haqida rivoyatlar mavjud. Rivoyatlarga ko'ra, ular Eron orqali O'rta Osiyoga kirib kelganlar. Ular miloddan avvalgi VIII asrlarda Assuriya quvg'inlari paytida Eronga ko'chib kela boshlaganlar. Miloddan avvalgi VIII asrda ba'zi yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron o'lkalarida boshpana topganlar. Forslarning O'rta Osiyoga bosqini natijasida yahudiylar ham ko'chib kela boshlaganlar. Ular milodning II asrida So'g'd imperiyasi davrida Marv (hozirgi Mari, Turkmaniston) shahriga kelib, u yerdan Shahrisabz, Buxoro, Samarqand shaharlariga tarqalib, forsiy lahjalardan birida so'zlashganlar.

Sayohatchi Veniamin Tudelskiyning 1165-yildagi ma'lumotiga ko'ra, o'sha vaqtda Samarqandda 30 mingga yaqin yahudiy millatiga mansub kishilar yashagan.

Yahudiylarning turmush tarzi, urf-odatlari qadimiy yahudiy, fors va mahalliy O'rta Osiyo madaniyatlarining qorishmasidan iborat. XVIII asrning boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar natijasida yahudiylar Eron, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon, Buxoro jamoalariga bo'linib ketgan. Yahudiylarning aksariyat qismi Buxoro shahri atrofida istiqomat qilgani tufayli «Buxoro yahudiylari» nomi bilan tanilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yahudiy jamoalari ham boshqa millat va konfessiya vakillari qatorida o'z milliy, diniy urf-odat va amallarini bajarish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Hozirda Toshkent, Buxoro, Samarqand shaharlarida Buxoro va ashkenazi (Yevropalik) yahudiylarning milliy madaniy markazlari va Respublikaning 3 ta hududiy tuzilmasida 8 ta sinagoga faoliyat ko'rsatmoqda.

**Hinduiylik.** Hinduiylik murakkab din bo'lib, u uzoq davr mobaynida shakllangan.

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda braxmanlik bilan buddaviylik o‘rtasidagi raqobat natijasida hinduiylik dini yuzaga keldi. Bu dinga Hindiston aholisining 83 foizi e’tiqod qiladi.

Hinduiylikda besh qoida ustuvor hisoblanadi:

1) Vedalarning muqaddasligi;
2) (pir, ustoz) ning tan olinishi;
3) muqaddas joylarga ziyoratga borish;
4) sanskrit muqaddas til ekanligi;
5) sigirning muqaddas ekanligi tan olish.

Hinduiylikda braxmanlar deb ataluvchi ruhoniylar asosiy o‘rin egallaydi. Hinduiylikda braxmanlar nafaqat oliy tabaqa vakillaridan, balki oddiy xalqdan yoki ayollardan bo‘lishi mumkin. Ular eski aqidalar zamon talabiga javob bermasligini ko‘rgach, yangi qonun-qoidalarga xos turli oqimlarni yuzaga keltirib, buddaviylikka qarshi kurash olib bordilar. Hinduiylikning o‘ziga xos jihati tabaqalanish, ya’ni, kasta tizimining mavjudligidir.

**HINDUIYLIK DINIDA TABAQALANISH TO‘RTGA BO‘LINADI**

Braxmanlar (Ruhoniylar)

Kshatriylar (Harbiylar)

Vayshiylar (Savdogarlar, hunarmandlar)

Shudriylar (Past tabaqalar)

Hinduiylikda trimurti (uchlik) – Braxma, Vishnu, Shiva xudolari asosiy bo‘lib, Braxma ularning eng kattasi, dunyoni yaratgan xudosi sanalsa-da, asosan Vishnu va Shivaga sig‘iniladi. Shundan kelib chiqib, hinduiylik ikki asosiy oqimga bo‘linadi:

1. Shivaga sig‘inuvchilar oqimi (Shivaizm).

2. Vishnuga sig‘inuvchilar oqimi (Vishnuizm).

Shiva – kambag‘allar xudosi sanalib, «Rigveda» manbasida Pudra nomi bilan zikr etilgan.

Vishnu – «Rigveda» manbasida u quyosh xudosi – birinchi darajali xudo hisoblanib, ibodat paytida uni Savitar Roxita, Surya, Audita nomlari bilan ataydilar. U «Krishna bilan qo‘shilib yarim inson, yarim xudo shaklidagi qahramon deb tan olinadi».

Hinduiylikda «Mahobxorat» va «Ramayana» dostonlari o‘ziga xos muqaddas o‘rin egallaydi. Vishnu ba’zida to‘rtqo‘lli qilib tasvirlanadi.

Krishna murakkab obraz bo‘lib u haqda olov, chaqmoq, momaqaldiroq, osmon, quyosh, bilan bog‘liq afsonalar mavjud. Krishna jangovar, yengilmas qahramon sifatida ta’riflanadi.

Vishnuiylik bayramlari turli-tuman bo‘lib, ular bir necha kunlarga cho‘zilib ketadi. Ular duolar o‘qish, ta’zim bajo keltirish, ommaviy diniy marosimlarda qatnashish, hadya, qurbonliklar atash, ibodatxona yaqinidagi yoki ichidagi hovuzlarda cho‘milish kabilar bo‘lgan. Bu marosimlar faqat ruhoniylar boshchiligida bajariladi. Sigir muqaddas hayvon sifatida xudolar qatorida e’zozlanadi. U keyinchalik «tirik but»ga aylanib, Shivaning ma’budlik o‘rinini to‘ldirdi. Vishnuiylikda muqaddas hayvon maymun bo‘lib «Rigveda»da «Vrishakani (erkak maymun) timsolida Xanumanning timsolini ko‘rishimiz mumkin», degan rivoyat keltirilgan. Maymun «Ramayana» dostonidagi odam-xudo – Ramning ittifoqchisi maymun-xudo Xanumanning vakili sifatida ulug‘lanadi.

Hinduiylikda Hindistonning har bir hayvoni xudo yoki xudoning hamrohi deb e’tiqod qilinadi. Hinduiylikning aqidaviy sohasi, marosimiy tizimi murakkablashib ketgan. Xalq ommasi orasida hozirda ham sodda, but va ruhlarga sig‘inish davom etmoqda.

**Jayniylik.** Jayniylik miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda vujudga kelgan. Bu dinning asoschisi kshatriylar kastasidan chiqqan afsonaviy Vardxamana Maxavira (Jina ham deyilganligi sababli, jaynizm nomi ana shu so‘zdan kelib chiqqan) hisoblanadi. Jayniylik Hindistonda kastachilik tuzumiga qarshi bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra jayniylik ta’limoti asrlar osha 24 ta ustoz-payg‘ambar orqali yetib kelgan, ularning eng so‘nggisi Jina edi.

Jayniylik ta’limotining asosiy g‘oyasi deyarli barcha hind dinlari uchun umumiy bo‘lgan *karmalar* va *nirvana* haqidagi ta’limot hisoblanadi. *Nirvanaga* erishgan inson qayta tug‘ilishdan ozod bo‘ladi. Bunga esa faqat tarkidunyo qilganlargina erishadi, xolos. Shuning uchun mazkur ta’limotda tarkidunyochilikka alohida e’tibor beriladi. Inson dunyoda o‘zining barcha ehtiroslaridan voz kechgach, o‘z nafsini tiyishi, o‘z-o‘zini yengishi – yangi *karma* hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Natijada *karma*ning kuchi yemirilib, uning ruhi kishanlardan ozod bo‘ladi. Kishining *karma*si qanchalar zaiflashsa, uning ichki dunyosi shuncha boyib boradi. Bu jarayon ruhning to‘la ozod bo‘lgunigacha davom etadi. Nihoyat, ruhning butunlay ozod bo‘lishi – *nirvana* holati yuz beradi.

Jayniylikda dunyoviy kishidan ham, tarkidunyo qilgan rohibdan ham ma’lum axloqiy qoidalarni bajarish talab qilinadi. Chunki hayotning maqsadi ruhni yomon *karma*dan saqlash, yangi *karma*ning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, borini ham asta-sekin yo‘q qilib yuborishdan iborat. Buning uchun dunyoviy odam besh narsaga amal qilishi kerak: birinchisi – zarar yetkazmaslik (*axinsa*), ikkinchisi – rost so‘zlash (*satya*), uchinchisi – o‘g‘irlik qilmaslik (*asteya*), to‘rtinchisi – zino qilmaslik (*braxmacharya*), beshinchisi – tamagirlik qilmaslik (*aparigraxa*). Mana shular insonning axloqiy mezonini tashkil qiladi.

Jayniylikda ikki asosiy yo‘nalish bo‘lib, *birinchisi* – digambarlar («moviy kiyim kiyganlar») deyiladi. Ular hayotning

barcha lazzatlaridan voz kechishgan. *Ikkinchi yo‘nalish – shvetambarlar* yoki *svetambarlar* («oq kiyim kiyganlar») deb atalgan. Ular ushbu din aqidalari yozilgan eski matnlarni tiklash, ularga qonun tusini berish kerak deb hisoblaydilar. Bu yo‘nalish tarafdorlari hayotning barcha lazzatlaridan voz kechmaydilar.

Jayniylik dinining talablari qattiq bo‘lgani tufayli ham bu din Hindistonda keng tarqalmagan. Hozirgi kunda dunyoda bir yarim milliondan ortiq jayniylar mavjud. Ular, asosan, Hindistonning Rajputan, Gujarot va bir qator janubiy mintaqalari, Madxya, Bxarat shtatlarida istiqomat qiladilar.

**Sikxiylik** (sanskrit tilida «shogird» degan ma’noni anglatadi). Sikxiylik dini XVI asrda Hindistonda vujudga kelgan. Bu dinning asoschisi – guru (ya’ni ustoz) – kshatriya kastasidan chiqqan Nanak (1469–1539) hisoblanadi.

Sikxiylik diniga Panjobda guru Nanak tomonidan asos solinib, unga ergashganlar o‘zlarini *sikxlar*, ya’ni shogirdlar deb atashgan. «Sikxiylik» (Sikxizm) atamasi ham shu so‘zdan olingan.

Nanakning vafotidan keyin uning ta’limotini 9 ta *guru* rivojlantirgan. Xususan, to‘qqizinchi *guru* Govind Singx (1675–1708) bu ishda muhim rol o‘ynagan.

Sikxiylik talqinida hinduiylikdagi Braxma, Vishnu, Shiva va islomdagi Alloh bir ilohiyotda mujassam bo‘ladi. U *nirgun* («sifatlardan xoli») va *sagun* («sifatlar egasi») deb talqin qilinadi. Uning asosiy holati *nirgun* bo‘lib, bu holat har qanday sifatlardan xolidir. Biroq inson uni qandaydir sifatlar orqali tanishi uchun u o‘z xohishi bilan *sagun* holatiga o‘tadi.

Sikxiylik ta’limotiga ko‘ra, ilohiyot – Yaratuvchi, Saqlovchi, Vayron qiluvchi (Braxma, Vishnu, Shivalardek) sifatlarni o‘zida mujassam qiladi. U qudratli va hukmdordir. Uning tomonidan yaratilgan dunyo esa o‘zgaruvchan va foniy. Ilohiyot esa – abadiy. U azalda ham, hozirda ham, kelajakda ham mustaqil ravishda mavjud. Azaliylik, vaqtdan tashqarida bo‘lish, tug‘ilmaganlik,

o'lmaslik kabi unga berilgan sifatlar uning mohiyatini anglatadi. Xudoga bo'lgan muhabbat, ishonch, sadoqat yo'lini tutgan har bir inson Unga yetishishi va U bilan birlashib ketishi mumkin. Xudoga ibodat qilish, sikxiylik ta'limoti bo'yicha, aslo dunyoviy hayotdan uzilishni, rohiblik yo'lini tutishni anglatmaydi, aksincha, hayotda faollikni, to'la mehnatni va oiladagi o'z vazifasini bajarishni anglatadi. Bu tamoyillarga to'la amal qilish pirovard natijada tug'ilishlar zanjirining uzilishiga va insonning xudo bilan birlashib ketishiga olib keladi. Har kim xudo bilan bevosita muloqotda bo'lishi mumkin.

Sikxiylik Hindiston xalqi diniy tafakkurining bir bosqichi sifatida kuchli islohotchilik harakatlari zaminida yuzaga keldi. Bu harakat Ramanand, Gorakxnatx, Chaytanyax, Kabir va Vallabxacharya nomlari bilan bog'liq bo'lib, butun XVI asrni o'z ichiga oldi. Bu davrda hinduiylik kabi sikxiylikka ham islomning ta'siri kuchli bo'ldi. Nanak ham Kabir kabi hinduiylikni butparastlikdan tozalab, islomga yaqinlashtirishga harakat qildi. Tadqiqotchilarning fikricha, sikxlar bir Xudoga e'tiqod qiladilar. Bu din boshqa iloh va butlarga ibodat qilishni, hinduiylikning yirik ziyoratgohlariga borishni, folbinlik va sehr-joduga ishonishni taqiqlaydi hamda tug'ilish va o'lim bilan bog'liq poklash marosimlarini tan olmaydi. Sikxiylik ijtimoiy tizim sifatida kasta tabaqalanishini inkor etadi va bu yo'l bilan braxmanlarning tug'ilish, o'lim va nikoh marosimlaridagi rahbarlik mavqeiga barham beradi.

Sikxiylik ta'limoti uning muqaddas kitobi «Grantx Sohib» (Janob Kitob)da bayon qilingan. Bu kitob asosi guru (ustoz) ning pand-nasihatlari, hayoti haqidagi lavhalardan iborat bo'lib, sikxiylik ta'limotining manbai va ibodat obyekti ham hisoblanadi. Sikxlar jamoasi hozirgi kunda ham Hindistonda kuchli ta'sirga ega.

**Konfutsiylik.** Konfutsiylik dastlab falsafiy g'oya sifatida maydonga kelgan. Uning asoschisi Konfutsiy (Kun Szi)

miloddan avvalgi 551-yilda tug‘ilib, mil. av. 479-yili vafot etgan. Konfutsiy otasidan erta ajragan va onasi qo‘lida tarbiyalangan. Onasi ham ko‘p o‘tmay dunyodan o‘tgan. Konfutsiy ta’lim olib, ilm o‘rgangach, 19 yoshida uylanadi. Birinchi marta u omborchi vazifasiga ishga tayinlanadi, yoshlarga ta’lim berishga kirishadi. Yangi ustozning ong haqidagi fikrlari, chuqur ma’noli so‘zlari mamlakat bo‘ylab keng tarqaladi. Konfutsiyning 3000 ga yaqin shogirdlari orasida 72 eng ko‘zga ko‘ringan izdoshlari mamlakatning obro‘li xonadonlaridan bo‘lib, shu bilan bir qatorda kambag‘al, oddiy kishilardan ham iborat bo‘lgan. Konfutsiy maktabi qadimgi Xitoyda asta-sekin katta ta’sir doirasiga ega bo‘lib bordi. Uning ko‘plab shogirdlari qadimgi Xitoy podshohliklarida e’tiborli mansablarni egallashdi. Konfutsiy yoshlar tarbiyachisi va ustozi sifatida keng shuhrat qozonib, ilk Xitoy ma’rifatparvari nomiga sazovor bo‘ldi.

Konfutsiyning asosiy e’tiborini tortgan narsa o‘z zamonasining kamchiliklari va ayb-u nuqsonlari edi.

Oddiy xalqning nochorligi, amaldorlarning zolimligi, hukmdorlar o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlar, qadimgi ma’naviy an’ana va qadriyatlardan uzoqlashish – bularning hammasi Konfutsiy keskin tanqidiy qarashlarining yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. Uning fikrlari jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi uchun hamma e’tirof etgan obro‘ga sazovor bo‘lishi kerak edi. Konfutsiy xuddi ana shu obro‘ni uzoq o‘tmishning yarim afsonaviy obrazlaridan topdi. Konfutsiy vafotidan bir necha asr o‘tgach, uning o‘zi orzu qilganidek, podshohlar dono, amaldorlar fidoyi, xalq esa farovon bo‘lgan paytda uning ta’limoti xalq hayotining ajralmas bir qismi bo‘lib ulgurdi.

Konfutsiy komil inson (Szyun-szi) haqidagi g‘oyasini yaratdi. Szyun-szi yuksak ma’naviyatli inson – ikki asosiy xususiyatga ega bo‘lishi kerak: insoniylik va mas’uliyat (ajdodlar oldidagi qarzni)ni his qilish. Komil inson, eng avvalo, ishonchli va

fidoyi bo‘lishi kerak. U o‘zini ayamasdan o‘z ishonchiga, o‘z hukmdoriga, o‘z otasi va barcha o‘zidan kattalarga xizmat qilishi lozim. Bunday inson doimo kamolot sari intiladi.

Konfutsiylikda markaziy o‘rinda axloqiy masalalar turadi.

Diniy masalalar, aqidalarga konfutsiylik ancha sovuqqon munosabatda bo‘lgan. Konfutsiyning o‘zi qadimgi Xitoyda keng tarqalgan turli ruhlarga bo‘lgan ishonch masalasiga shubhali munosabatda bo‘lgan. «Lunyuy» (Konfutsiyning falsafiy fikrlari va suhbatlari majmuasi, u konfutsiychilikning asosiy manbasi)da keltirilishicha, Konfutsiy g‘ayritabiiy narsalar va ruhlar to‘g‘risida gapirishni yoqtirmagan. Shuningdek, u taqdir, inson umri, o‘lim haqida so‘z yuritishdan qochgan. Undan «o‘lim nima?» – deb so‘raganlarida, u: «Biz tiriklik nima ekanligini bilmaymiz-u, o‘lim nima ekanligini qayerdan bila olar edik», – deb javob bergan ekan.

Biroq o‘sha davrda qadimdan davom etib kelayotgan diniy qadriyatlar, urf-odatlarga Konfutsiy ehtirom bilan munosabatda bo‘lgan.

Konfutsiyning yana bir asosiy ta’limoti – «Syao» ta’limotidir. Syao ta’limotiga ko‘ra inson o‘z ota-onasiga munosib bo‘lishi haqidagi g‘oyani o‘zida mujassamlashtirgan. Konfutsiy fikricha, inson uchun «Syao»dan muhimroq narsa yo‘q.

«Syao» ta’limotining «Li qonunlari»ga ko‘ra farzand ota-ona hayotlik chog‘ida mutlaqo ularning ixtiyorida bo‘lgan. To ular dunyodan o‘tgunicha o‘ziga-o‘zi egalik qilishga haqli emas. Agar ota-onasi vafot etadigan bo‘lsa, farzand qanday ish bilan mashg‘ul bo‘lishidan qat’i nazar, qanday lavozimni egallagan bo‘lmasin, barcha ishini tashlab 3 yil davomida aza tutishi shart. Konfutsiylikning «Syao» ta’limoti asrlar mobaynida Xitoy madaniyati, axloqiy normalariga katta ta’sir o‘tkazib keldi.

Konfutsiylik juda tez muvaffaqiyatga erishmadi. Konfutsiyning o‘zi esa, zamondoshlari tomonidan tan olinmay vafot etdi. Uning shogirdlariga ham oson bo‘lmadi.

Xan sulolasi davriga kelib, (mil. av. III–II asrlar) konfutsiylik davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarildi. Xan podshohlari Konfutsiy ta’limotini to‘liq qabul qilmagan bo‘lsa-da, uning salohiyati, jamiyatdagi mavqeini e’tirof qilgan holda undan davlat boshqaruvida foydalandilar.

Konfutsiy o‘zi yashab ijod etgan joy Suyfuda vafot etganidan keyin uning qabri yaqinida bir ibodatxona qurdilar. Ibodatxonaga Konfutsiyning shogirdlari va yaqinlari tomonidan uning barcha tabarruk narsalari, unga taalluqli ashyolar – yozgan asarlari, musiqa asboblari, ro‘zg‘or anjomlari, aravasi va boshqa narsalari keltirib qo‘yildi. Bu maskan Xan sulolasi davriga kelib butun mamlakat miqyosidagi muqaddas ziyoratgohga aylandi. Mil. av. 195-yilda birinchi Xan podshohi Lyu Ban shaxsan o‘zi Konfutsiy ibodatxonasida unga atab «tay-lyao» (Xitoyda eng oliy qurbonlik – qo‘y, ho‘kiz va cho‘chqa) qurbonligini keltiradi. Shundan so‘ng Konfutsiy nomi Xitoyda ilohiylashtirildi va unga atab muntazam qoidalar asosida qurbonliklar qilinadigan bo‘ldi.

X–XIII asrlarga kelib, Sun sulolasi davrida unga imperatorlik unvoni, otasiga esa knyazlik unvoni berildi. Keyinroq Yuan va Min sulolalari (XIII–XIV asrlar) davrida unga yana ham yuksakroq unvon – «Eng haqiqiy donishmand», «Millatlarning ulug‘ ustozi» unvonlariga sazovor bo‘ldi.

Konfutsiy nomi o‘rta asrlarda Xitoyda ilohiylashtirildi. Uning timsoli podshohlar boshidagi tojlarda o‘z aksini topdi.

**Daochilik.** Daochilik mil. av. IV–III asrlarda Xitoyda paydo bo‘lgan.

Daochilikning ta’limoti afsonaviy Xitoy donishmandi Lao-Szi qalamiga mansub «Dao Deszin» kitobida bayon etilgan. Bu kitob jumboqli aforizmlar, hikmatli so‘zlardan tuzilgan. Asarning asosiy tushunchasi dao (yo‘l)dir.

Lao-Szi fikricha, Yer yuzida 4 ta ulug‘lik bor. Bular – dao ulug‘, osmon ulug‘, yer ulug‘, podsho ulug‘.

Daochilik dinida uchta xudo – Shan-Di, Lao-Szi hamda dunyoni yaratuvchisi Pant-Gu boshchiligida xudolar panteoni shakllangan. Shan-Di – osmon xudosi bo‘lib, u imperatorlarning otasi hisoblangan.

Daochilik dini o‘z ibodatxonalari, muqaddas kitoblari, diniy xizmatni bajaruvchi ruhoniylariga ega.

V asr boshiga kelib, daochilik diniy ta’limoti va marosimlari rasmiylashtirilib, davlat diniga aylangan.

Daochilik ta’limoti shakllangan paytda ijobiy xarakterga ega edi. Keyinchalik u o‘zining ushbu xususiyatlarini yo‘qotdi. Qolaversa, daochilik eskilikni qattiq himoya qiladigan, ba’zi hollarda tarkidunyochilikni targ‘ib etadigan din bo‘lgani uchun ham bora-bora uning tarafdorlari kamayib borgan.

**Sintoiylik.** Sintoiylik (shintoiylik ham deyiladi) yaponlarning an’anaviy milliy dini bo‘lib, u milodiy VI–VII asrlarda shakllangan. Sintoiylik – «xudo yo‘li» degan ma’noni anglatadi.

Sintoiylik diniga buddaviylikning ta’siri kuchli bo‘lgani tufayli IX asrda ikkala din ruhoniylari birgalikda yashash – ryobu-sinto (ikki birlik) modulini ishlab chiqqan. Shunday bo‘lsa-da, ular o‘rtasida raqobat mavjud bo‘lgan. Sintoiylik ibodatxonalarida Buddaga so‘zlarni aytish man qilingan.

Sintoiylik ta’limotiga ko‘ra, mikado (imperator) – osmon ruhlarining davomchisi sanaladi. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali ruhlar (*kami*)ning vorisidir. Yaponlar *kami*ni ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e’tiqod qiladilar. Xudojo‘y yapon o‘lgandan keyin o‘zining ham o‘sha kamilardan biri bo‘lishiga ishonadi.

Sintoiylikda oliy iloh tushunchasi mavjud emas. U ajdodlar ruhi va tabiatga sig‘inishga o‘rgatadi. Sintoiylikda umumiy hayotiy rioya qilinishi lozim bo‘lgan qoidalardan boshqa diniy urf-odatlar yo‘q. Unda bir umumiy ma’naviy qoida mavjud bo‘lib, u ham bo‘lsa «Umum qonunlariga rioya qilgan holda Tabiat qoidalariga mos harakat qil» degan qoidadir. Yaponlar

tasavvurida ular yaxshilik va yomonlik tushunchalari tabiatan bilganlar. «Kodziki» – sintoiylikning muqaddas kitobidir. Bu kitob Yaponiya va yapon xalqini tushunishning kaliti hisoblanadi. Unda ikkita asosiy mazmun mujassam, qon-qabilaviy birlik va siyosiy hokimiyat g'oyasi.

Sintoiylikning ta'limotining asosini – imperator hokimiyatining ilohiyligi to'g'risidagi aqida tashkil etadi. Imperator (mikado) xudo Amaterasining avlodi hisoblangan.

Sintoiylikning asosiy xudolari – Amaterasu (quyosh xudosi), Susano-vo (bo'ron xudosi), Inari (guruchli odam, dehqonchilik homiysi)lardir.

Har yili Yaponiyada ikki marotaba – 30-iyun va 31-dekabrda umumxalq poklanish tadbirlari o'tkaziladi. Sintoiylikda eng nopok narsa qon hisoblanadi.

Yaponiyaning ikkinchi jahon urushida yengilishi bu dinning asoslariga putur yetkazdi. Bugungi kunda Yaponiyada sintoiylik dindorlari an'anaviy marosimlarni asosan uy sharoitida ijro etib kelmoqda.

**?** **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Yahudiylik dini tarixi va manbalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Hinduiylik qanday din sanaladi va uning ta'limoti nimalardan iborat?
3. Jayniylik dini Hindiston tarixida qanday rol o'ynagan?
4. Sikxiylik qanday din hisoblanadi va hozirgi kunda bu din tarafdorlari Hindiston siyosiy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?
5. Daochilik ta'limotida nimalarga katta e'tibor berilgan?
6. Konfutsiychilik nima asosida vujudga kelgan va Konfutsiychilik ta'limotida qanday masalalar muhim o'rin egallagan?
7. Sintoiylik diniy ta'limoti Yaponiya hayotida qanday o'ringa ega bo'lgan?

## 4-§. ZARDUSHTIYLIK

Zardushtiylik miloddan avvalgi VII–VI asrlarda O'rta Osiyo va qadimiy Eronda yuzaga kelgan. Zardushtiylik dini e'tiqodiga ko'ra payg'ambar deb hisoblangan Zardusht ismli shaxs nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa, uning muqaddas kitobi hisoblanmish «Avesto»da «Mazdayasna» dini deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilish mumkin. Mazda so'zi «donish, donishmand, oqil» kabi talqin etiladi.

Zardushtiylik «behdin», ya'ni «eng yaxshi din» deb ulug'langan. Unga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan deb e'tiqod qilingan. Mazda so'zi oldiga ulug'lash so'zi Axura qo'shilib, zardushtiylikning ilohi – Ahuramazda nomi paydo bo'lgan. Bu qo'shimcha so'z «Janob Mazda» yoki «Xudo Mazda» demakdir.

Zardusht nomi manbalarda Zaratushtra, Zardust, Zaroastr ko'rinishlarida ham ishlatiladi. Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilsalar, boshqalar afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u miloddan avvalgi, taxminan 570-yillarda tug'ilgan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Zardusht O'rta Osiyo hududida mavjud bo'lgan ko'pxudolikka asoslangan qadimiy diniy tasavvur va e'tiqodlarni isloh qilib, yangi dinga asos soldi.

Zardushtning tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi to'g'risida ikki xil fikr mavjud.

*Birinchisi,* Midiya (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdorlarining dalili – birinchidan, zardushtiylikning qa-

dimiy Eron hududlarida keng tarqalgan bo‘lsa, ikkinchidan, zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish «Avesto»ga yozilgan sharhlarning qadimiy eron-pahlaviy tilida bo‘lganligidir.




*Ikkinchisi,* Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi. Ko‘pchilik manbashunoslar ikkinchi fikrni yoqlaydilar. Xorazm birinchi bo‘lib zardushtiylikning muqaddas olovi Ozarxurra yoqilgan va shu dinda eng buyuk xudo hisoblangan Ahuramazdaning Zardusht bilan bog‘langan joyi hisoblanadi.

«Avesto»da Zardusht tug‘ilgan va o‘z faoliyatini boshlagan yurt haqida ham ma’lumot beriladi. Aytilishicha, «Bu mamlakatning ko‘p sonli lashkarlarini botir sarkardalar boshqaradilar, baland tog‘lari bor, yaylov va suvlari bilan go‘zal, chorvachilik uchun barcha narsa muhayyo, suvga mo‘l, chuqur ko‘llari, keng qirg‘oqli va kema yurar daryolari o‘z to‘lqinlarini Iskata (Skifiya), Pauruta, Mouru (Marv), Xarayva (Areya), Gava (sug‘dlar yashaydigan yurt), Xvarizm (Xorazm) mamlakatlari tomon eltuvchi daryolari bor».

Shubhasiz, «Keng qirg‘oqli, kema yurar daryolar» bu Amu va Sirdaryo bo‘lib, «Avesto» tasvirlagan mazkur shaharlar O‘rta Osiyodagi ikki daryo qirg‘oqlarida joylashgan.

Shunga asoslanib, olimlar Zardushtning vatani, zardushtiylikning ilk makoni va «Avesto»ning kelib chiqish joyi deb Xorazm, tarqalish yo‘nalishi Xorazm-Marg‘iyona-Baqtriya degan fikrni beradilar.

Zardushtiylik ta’limotining asosi olam qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgan. Yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va qorong‘ulik, hayot va o‘lim o‘rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Ahuramazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu (yoki Axriman) ifodalaydi.

Ahuramazda insonlarga ezgu ishlarni bayon yetib, ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlarni bayon yetib ulardan saqlanishga chaqiradi.

Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab uni olqishlab sig‘inishi shart bo‘lgan.

Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to‘rt unsur – suv, olov, yer va havo ulug‘lanadi.

Zardushtiylik dafn marosimi o‘ziga xos bo‘lib, o‘lganlar bir necha past, baland «sukut minoralari» – dahmalarga soli-

nadi, u yerda murdalarning go‘shtlarini qushlar yeb, suyaklarini tozalaydi. Go‘shtdan tozalangan suyaklar maxsus sopol idishlarga solinib minora o‘rtasidagi quduqqa sochib yuboriladi. Bunda «halol» bilan «harom»ning bir-biriga yaqinlashmasligiga erishiladi.

Eronda sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida Zardushtiylik rasmiy davlat diniga aylangan. Bu davrda uning muqaddas kitobi «Avesto» ruhoniylar tomonidan qayta yig‘ilib, kitob shakliga keltirilgan. «Videvdat» qismiga o‘zgartirishlar kiritilib, qayta ishlangan.



VII–VIII asrlarda O‘rta Osiyoga islom dini kelib, keng tarqalguniga qadar zardushtiylik mahalliy xalqlarning asosiy dini hisoblangan.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida zardushtiylik e’tiqodi diniy jamoalari kamayib ketgan. Ular Hindistonning Mumbay, Gujarot shtatlari va Eronning ba’zi chekka viloyatlarida saqlanib qolgan. Eron Islom Respublikasida zardushtiylik diniga e’tiqod qilish qonun tomonidan ruxsat etilgan. Mumbayda zardushtiylarning madaniy markazi Koma nomidagi institut faoliyat olib boradi. Undan tashqari, Mumbayda Xomi Dxalla raisligida dunyo zardushtiylari madaniyati fondi faoliyat yuritadi.

«Avesto» («o‘rnatilgan, qat’iy qilib belgilangan qonun-qoidalar») zardushtiylikning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. U Apastak, Ovisto, Ovusto, Abisto, Avasto kabi shakllarda ham ishlatib kelingan. «Avesto» O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma’naviy madaniyatini o‘rganishda muhim va yagona manbadir. Uning tarkibidagi materiallar qariyb ikki ming yil davomida vujudga kelib, avloddan avlodga og‘zaki ravishda uzatilib kelingan.

Zardushtiylik dini rasmiy tus olguniga qadar «Avesto»ning bo‘laklari Turon va Eron zamini xalqlari orasida tarqalgan. Ushbu Ahuramazdaning Zardusht orqali yuborilgan ilohiy xabarlari deb hisoblangan bo‘laklar turli diniy duolar, madhiyalar sifatida yig‘ila boshlagan.

Bu qadimiy yozma manba bizgacha to‘liq yetib kelmagan. «Avesto» haqida buyuk olim Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: «Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistoning) o‘n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o‘ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o‘sha vaqtda Abistoning beshdan uchi yo‘qolib ketdi».

Hozir bizgacha yetib kelgan «Avesto» esa Beruniyning yozishicha, aslining beshdan ikki qismi xolos. U «Avesto» o‘ttiz «nask» edi, majusiylar qo‘lida o‘n ikki nask chamasi qoldi» deb yozgan.

«Avesto»ning Aleksandr Makedonskiy tomonidan Gretsiyaga olib ketilgani, zarur joylarini tarjima ettirib, qolganini kuydirtirib yuborgani, o‘n ikki ming qoramol terisidagi tillo matn haqida (Tabariyda 12000 pergament) keyingi davrlarda yaratilgan zardushtiylik adabiyotida («Bundahishn», «Shahrihoi Eron», «Denkard» (IX a), «Arda Viraf-namak» (IXa) «Tansar xatlari» (VI) «Muruj az-zahab», «Forsnoma» va boshqalarda) ma’lumotlar bor. Bu asarlarda yunoniylar otashxonalarni vayron qilganlari, ibodatxonalar boyliklarini talon-toroj etganlari, din arboblarini o‘ldirib, asir olib ketganligi haqida yoziladi.

Yozma manbalarga ko‘ra, haqiqatan ham «Avesto» mo‘badlar tomonidan avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga o‘tib, asrlar osha yashirin saqlangan. Dastavval (I yoki II asrlarda), Arshakiylar davrida «Avesto» qismlarini to‘plash boshlangan. Keyinchalik Sosoniylar davrida, Ardasher Papakan (227–243) davrida, ayniqsa, Shopur (243–273) davrida astrologiya, tabobat, riyoziyot va falsafaga oid qismlari yozib olinib, hamma qismlari tartibga keltirilgan, so‘ng bu asosiy matn to‘ldirib borilgan.

«Avesto»ning ana shu to‘ldirilgan nusxasining ikki to‘liq qo‘lyozmasi Hindistonda – biri Mumbayda, zardushtiylarning madaniy markazi bo‘lmish Koma nomidagi institutda, ikkinchisi Kalkuttadagi davlat kutubxonasida saqlanadi.

«Avesto»ning saqlanib qolgan to‘rtta kitobidan birinchisining nomi «Videvdat» (devlarga qarshi qonun) deb ataladi. Ushbu kitob «Avesto»ning saqlanib qolgan kitoblari orasida eng mukammali hisoblanadi. U yigirma ikki bob bo‘lib, boblari «Fragard» deb nomlangan. Fragardlarning ma’nosi, vazifasi, uslubiy tuzilishi turlicha: birinchi fragard – odamlar yashaydigan barcha yurtlarni Ahuramazda qanday yaratgani to‘g‘risida bo‘lib, ular orasida Xorazm, So‘g‘d, Marg‘iyona, Baxdi (Balx) va boshqalar bor; ikkinchi fragardda Jamshid podsholigi – kasallik, o‘lim, azob-

uqubatlar bo‘lmagan zamon haqida, ya’ni insoniyatning oltin asri haqida gap boradi; uchinchi fragard dehqonchilikning savobli sharofatlari haqida va h.k. Shuningdek, videvdatning boshqa fragardlaridan Zardusht bilan Ahuramazdaning savol-javoblari va muloqotlari ham o‘rin olgan.

Ikkinchi kitob «Yasna» deb atalib, «Avesto»ning e’tiborli bo‘limi sanaladi. Yasna – yaz o‘zagidan bo‘lib, «sajda, topinch, namoz» ma’nolarini ifodalaydi. Yasna yetmish ikki bobdan iborat bo‘lgan. Boblari «ha», «haitiy» deb atalgan. Har bir «ha» zarur o‘rniga qarab marosimlarda, ibodatlarda kohinlar tomonidan o‘qilgan, qavmlar unga ergashib ibodat qilganlar. Yasna kitobi (naski) tarkibiga Zardusht o‘zi ijod qilgan targ‘ibot she’rlari ham kirgan. Ular Yasnaning 28–34, 43–46, 47–50, 51, 53 – jami bo‘lib, 17 ta «ha»sini tashkil qiladi. Zardusht she’rlari ilmiy adabiyotda «gat»lar deb atab kelinadi. «ha» bashorat demakdir. Yasnaning 35–42-«ha»lari ayniqsa yuksak qadrlangan. Bu yetti ha haptanxati yasna – «yetti bob Yasna» deb nomlangan. Ular orasida olovning muqaddasligi haqida bob bo‘lib, zardushtiylik urf-odatlari orasida olovga e’tiqod qilish, dinning esa «otashparastlik» deb atalishi shunga bog‘liq. Binobarin, olov Ahuramazda nurining quyoshda namoyonligi va uning yerdagi zarrasi deb hisoblangan. Oliy haqiqat Arta ham olovda o‘z ifodasini topgan. Olov haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg‘onni rostdan ajratib bergan. Yolg‘on esa, chin e’tiqodga xiyonat deb qoralangan. Arta so‘zi fonetik o‘zgarib, dastlab Atar, hozir esa otash shaklida ishlatilib kelinmoqda.

Uchinchi kitob «Visparat» deb nomlangan. U yigirma to‘rt bobdan tashkil topgan va har bir bob alohida «karde» deb atalib, ma’budlar sha’niga o‘qilgan duolar va ibodat paytida ularga murojaatlar hamda olamni bilishga doir pand-nasihatlardan iboratdir. Uni ibodat namozlari yig‘indisi ham deyishadi. Ayni paytda u «Yasna»ga qo‘shimcha hisoblanadi.

To‘rtinchi kitob «Yasht» deb ataladi. U «Avesto»ning eng qadimiy qatlami bo‘lib, yigirma ikki bobdan iborat.

Har bir bob Ahuramazdadan boshlab, u yaratgan va uning ma’lum vazifalarini bajaruvchi ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalardan iborat.

«Avesto» haqida eng muhim manba IX asrga oid «Denkard» (din amallari) asaridir. Unda «Avesto»ning yigirma bir kitobi to‘la ta’riflab berilgan. Bu ta’riflar savobli ishlar yo‘riqnomasi, diniy marosimlar va rasm-rusumlar qoidasi; zardushtiylik ta’limoti asoslari; dunyoning Ahuramazda tomonidan yaratilishi; oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug‘ilishi va bolaligi; haq yo‘lini tutish; jamiyat a’zolarining haq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o‘qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida ta’kidlaganidek, «Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan bebaho ma’naviy obida alohida o‘rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo‘ri mahsuli bo‘lmish bu noyob yodgorlikning zamon to‘fonlaridan, qanchadan-qancha og‘ir sinovlardan o‘tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o‘zida katta ma’no mujassam. Bunday o‘lmas osori atiqalar bu ko‘hna o‘lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo‘lganidan guvohlik beradi».

?

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Zardushtiylik qanday davrda yuzaga keldi?
2. Zardushtiylikning muqaddas kitobi haqida nimalarni bilasiz?
3. Zardushtiylik ta’limoti asoslari nimalardan iborat?
4. «Avesto» va uning mazmun-mohiyati haqida gapirib bering.
5. Zardushtiylik ta’limoti va «Avesto»ni o‘rganish, tadqiq etish qachondan boshlangan?

## 5-§. JAHON DINLARI. BUDDAVIYLIK

Buddaviylik – jahon dinlari ichida eng qadimiysi hisoblanib, miloddan avvalgi VI–V asrlarda Hindistonda vujudga kelgan. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kombodja, Birma, Tailand, Laosda va qisman Yevropa va Amerika qit'alarida, Rossiyaning shimoliy mintaqalari – Buryatiya, Qalmiqistonda istiqomat qiladilar.

Hozirgi kunda dunyoda buddaviylar soni 850 mln. ga yaqin bo'lib, ularning 1 mln.ga yaqinini monaxlar tashkil etadi.

Buddaviylikning asoschisi folklor va badiiy adabiyotlarda Siddxartxa, Gautama, Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djina, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etiladi. Bu ismlarning ma'nolari quyidagicha: Siddxartxa – shaxsiy ismi, Gautama – urug' ismi, Shakyamuni – shaklar yoki shakiya qabilasidan chiqqan donishmand, Budda – nurlangan, Tadxagata – shunday qilib, shunday ketgan, Djina – g'olib, Bxagavan – tantana qiluvchi. Bu ismlar ichida eng mashhuri Budda bo'lib, dinga buddaviylik nomi berilgan.

Hozirgi kunda Buddaning beshta biografiyasi ma'lum: «Maxavostu» – milodning II asrida yozilgan, «Lalitavistara» – milodning II–III asrlarida yuzaga kelgan, «Buddaxacharita» – Budda faylasuflaridan biri Ashvagxoshey tomonidan milodning I–II asrlarida yaratilgan, «Nidanakatxa» – milodning I asrida yozilgan va «Abnixishkramansutra».

Buddaviylik hisobiga ko'ra esa, Butama – Budda mil. av. 623-yilda tug'ilib, 544-yilda vafot etgan.

Siddxartxa Shakya qabilasining podshohlaridan biri Shuddxodananing o'g'li bo'lgan. Uning saroyi Himolay tog'lari etagida Kapilavasti degan qishloqda bo'lgan (hozirda Nepal hududida). Onasi – malika Mayya. Podshoh o'z o'g'lini orzu-havaslar og'ushida tarbiyalab, uni hech bir kamchiliksiz katta qiladi. Siddxartxa ulg'ayib qo'shni podshohlardan birining qizi Yashadxaraga uylanadi va o'g'il ko'rib, unga Raxula deb ism qo'yadi.

Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko'rmay o'sgan bola Siddxartxa bir kuni ittifiqo bir keksa chol, bir bemor hamda og'ir mehnat qilayotgan bir rohibni uchratadi, va nihoyat, bir kishining vafotiga guvoh bo'ladi. Bundan qattiq ta'sirlangan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo'llarini axtarib saroyni tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U beshta rohib bilan qishloqma-qishloq kezib yuradi. Ko'p vaqt u rohiblarga hamrohlik qilib, ularning yo'llarida ma'lum maqsad yo'qligini, bu yo'l o'z oldiga qo'ygan maqsadi – insoniyatni azob-uqubatdan qutqarishga olib bormasligini anglaydi va rohiblar jamoasidan ajraladi.

U chakalakzor o'rmonlarda kezib, charchab bir daraxtning tagida dam olish uchun o'tiradi va o'zicha, to haqiqatni topmaguncha shu yerdan turmaslikka qaror qiladi.

Bu o'tirishning 49 kuni uning qalbidan «Sen haqiqatni topding» degan sado keladi. Shu paytda uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. U hamma joyda shoshilinch qayoqqadir intilishni ko'radi. Hech bir joyda osudalik yo'q, hayot nihoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgan edi. Inson aqli yetmas bir kuch. Trishna – yashash, mavjud bo'lish umidi barchani tinchini buzar, halok qilar va yana qayta yaratar edi. Shunda Budda kimga qarshi kurashish kerakligini angladi. Shu ondan u Budda – nurlangan deb ataldi. U tagida o'tirgan daraxt esa – nurlangan daraxt deb atala boshladi.

Budda Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog'ida, o'zining besh rohib do'stlariga birinchi da'vatini qildi va o'shalar uning birinchi shogirdlari bo'ldilar.

Shu kundan boshlab Budda o‘z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib o‘z ta’limotini tarqatib, o‘ziga yangi izdoshlar orttiradi. Budda 40 yil davomida o‘z ta’limotini Hindistonning turli joylariga yetkazadi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o‘tadi. Uning jasadi, hind udumiga ko‘ra, kuydirilib, xoki 8 ta budda jamoalariga bo‘lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona barpo etdi.

Buddaning hayoti haqida turli afsonalar ham mavjud. Bu afsonalarda aytilishicha, Budda ko‘p yillar davomida yer yuzidagi turli qiyofada qayta tug‘ilgan: 84 marta ruhoniy, 58 marta podshoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g‘oz, 6 marta fil, shuningdek, baliq, qurbaqa, kalamush, quyon kabi. Jami 550 marta qayta tug‘ilgan. U doimo qayerda, qay qiyofada tug‘ilishini o‘ziga o‘zi belgilagan.

So‘nggi marta uni xudolar insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba’zilariga ko‘ra, yer yuzida Gautamaga qadar 6 ta budda o‘tgan. Shuning uchun buddaviylikning ba’zi muqaddas joylarida 7 ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Botxa daraxti o‘tkazilgan. Ba’zi afsonalar 24 ta Budda avlodi o‘tgan desa, ba’zilari minglab Buddalar o‘tgan deb da’vo qiladi.

Buddaviylik qadimiy hind diniy-falsafiy ta’limotlari asosida vujudga kelgan, amaliyot va nazariyotdan iborat diniy tizim sanaladi. Budda yangi diniy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar ishlab chiqmagan, balki har bir inson tug‘ilish va o‘lim mashaqqatlaridan qutilishi uchun amal qilishi lozim bo‘lgan bir necha ko‘rsatmalarni ishlab chiqdi, xolos. Uning ta’limoti insonning xayolida, ishlarida va o‘zini tutishida ezgulik g‘oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta’limotini inkor qildi, hayvonlarni qonli suratda qurbonlik qilishni qoraladi, varna (kasta) tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi.

Budda oliy yaratuvchi kuchning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, insonning shaxsiy kamoloti va ezgu hayot kechirishidir.

Budda ta'limotining asosi «hayot – bu azob, uqubatdir» va «najot yo'li mavjud» degan g'oyadir. Buddaviylik qonuniyatlariga ko'ra inson o'ziga moslashgan mavjudot bo'lib, o'zida tug'iladi, o'zini o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu narsa Buddaning ilk da'vatida mujassamlashgan 4 haqiqatda o'z ifodasini topgan.

Birinchi haqiqat – «Azob-uqubat mavjuddir». Uni har bir tirik jon boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday hayot – qiynoq, azob-uqubatdan iborat.

Tug'ilish, kasallik, o'lim, yomon narsaga duch kelish, yaxshi narsadan ayrilish, yomon narsadan ayrilish, o'zi xohlagan narsaga ega bo'lmaslik barchasi qiynoq. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog'liqlik bo'lib, hech bir narsa ma'lum sababsiz yaralmaydi. Har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddaviylik dunyoni shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Ikkinchi haqiqat – «qiynoqlarning sabablari mavjud».

Inson moddiy narsalar yoki ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi hamda doimo ularga ega bo'lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi, orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun karma hozirlaydi. Demak, qayta tug'ilish, yangitdan qiynoqlarga duchor bo'lish davom etadi. Buddaviylar fikricha, Buddadan keyin hech kim Nirvana holatiga erisha olmagan.

Uchinchi haqiqat – «qiynoqlarni tugatish mumkin». Yaxshi yoki yomon niyatlar, intilishlardan butunlay uzilish Nirvana holatiga to'g'ri keladi. Bu holatda inson qayta tug'ilishdan to'xtaydi. Nirvana holati, buddaviylar fikricha, «hayot g'ildiragidan» tashqariga chiqish, «men» degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg'ularini to'la tugatishdir.

To'rtinchi haqiqat – «qiynoqlardan qutilish yo'li mavjud». Bu yo'l – «Sakkizta narsaga amal qilish, to'g'ri tushunish, to'g'ri harakat qilish, to'g'ri muomalada bo'lish, fikrni to'g'ri jamlash».

Bu yo‘ldan borgan inson Budda yo‘lini tutadi. Bu sakkiz narsaga amal qilish meditatsiya deb nomlanadi. Buddaviylik ta’limoti asosan uch qismdan iborat: 1) meditatsiya; 2) axloq; 3) donolik.

**1. Meditatsiya:**

- To‘g‘ri tushunish (e’tiqod qilish) – Buddaning birinchi da’vatida yuritilgan so‘z to‘rt haqiqatni bilish va unga ishonish;
- To‘g‘ri niyat qilish – dunyoviy lazzat-halovatlardan xalos bo‘lishga, keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar yetkazib qo‘yishdan saqlanishga intilish;
- To‘g‘ri o‘zini tutish – o‘zingniki bo‘lmagan narsani olmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik;
- To‘g‘ri anglash – o‘z tanasi va ruhiga o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan darajada nazoratda bo‘lish hamda bunda ehtiroslar va iztiroblarga chek qo‘yish;
- To‘g‘ri harakat qilish – o‘zidagi yomon tuyg‘ularni jilovlash hamda ezgu tuyg‘ular va harakatlarni rivojlantirish;
- To‘g‘ri hayot kechirish – noma’qul hayot tarzidan saqlanish;
- To‘g‘ri fikr yuritish – kamolotning to‘rt bosqichini ketma-ket bosib o‘tish;
- To‘g‘ri gapirish – yolg‘ondan, tuhmatdan, haqoratdan va befoyda gaplardan saqlanish.

**2. Axloq normalari – Budda «Pancha Shila» besh nasihati:**

- Qotillikdan saqlanish;
- O‘g‘rilikdan saqlanish;
- Gumrohlikdan saqlanish;
- Yolg‘on, qalbaki narsalardan saqlanish;
- Mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

**3. Donishmandlik** – bu buddaviylikning asosiy maqsadi bo‘lib, narsalar tabiatini to‘g‘ri tushunish.

Yuqorida ko‘rsatilgan uch amaliyot bosqichini o‘tagan inson oxir-oqibatda oliy saodatga, ya’ni nirvana holatiga erishadi. Nirvana so‘zma-so‘z «o‘chish, so‘nish» ma’nolarini anglatadi. Unda hayotning har qanday ko‘rinishiga intilish yo‘qoladi.

Buddaviylikning yoyilishida Sangxa – buddaviylik jamoalarining roli katta bo‘lgan. Ular yilning ob-havosi yaxshi bo‘lgan 9 oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, aholini buddaviylikka da’vat qilib, Budda ta’limotini o‘rgatib yurishgan. Faqatgina Musson yomg‘irlari tinmay quygan 3 oydagina o‘z ibodatxonalarida muqim bo‘lib ibodat bilan shug‘ullanganlar.

**BUDDAVIYLIK TA’LIMOTINING TARKIBIY QISMLARI**

| 1. Axloq | 2. Meditatsiya | 3. Donolik |
|---|---|---|
| 1. Qotillikdan saqlanish;<br>2. O‘g‘rilikdan saqlanish;<br>3. Gumrohlikdan saqlanish;<br>4. Yolg‘on, qalbaki narsalardan saqlanish;<br>5. Mast qiluvchi narsalardan saqlanish;<br>6. Tushdan keyin ovqatlanishdan saqlanish;<br>7. O‘yin-kulgudan saqlanish;<br>8. Zeb-u ziynat, atir-upalardan saqlanish. | 1. To‘g‘ri tushunish;<br>2. To‘g‘ri niyat qilish;<br>3. To‘g‘ri o‘zini tutish;<br>4. To‘g‘ri anglash;<br>5. To‘g‘ri harakat qilish;<br>6. To‘g‘ri muomalada bo‘lish;<br>7. To‘g‘ri fikr yuritish;<br>8. To‘g‘ri gapirish. | Bu buddaviylikning asosiy maqsadi bo‘lib, narsalar tabiatini to‘g‘ri tushunish. |

Miloddan avvalgi 273–232-yillarda hukmronlik qilgan Imperator Ashoka davri buddaviylikning keng hududga yoyilishiga katta imkoniyatlar yaratdi. Ashoka o‘zining ilk hukmronlik paytidanoq buddaviylikka e’tiqod qila boshladi. U buddaviylikka, monaxlariga, ularning Hindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixohlik qildi. Ular o‘z da’vatlari asosida biron-bir yerlik aholi yoki ruhoniylar tomonidan qarshilikka uchrasalar ham hech qanday qarshi harakat qilmay, o‘z yo‘llarida davom etganlar.

Agar mahalliy aholi tomonidan o‘zlariga nisbatan xayrixohlik sezsalar, o‘sha yerga ko‘proq ahamiyat berib, ularni ko‘proq da’vat qilishgan.

Buddaviylikning Maxayana yo‘nalishi Xitoyga milodning 1-asrida kirib kelgan. Mil. III–VI asrlarda buddaviylik Xitoy hududida keng tarqaldi. Bu vaqtda poytaxt yaqinidagi Loyana hamda Chanani kabi shaharlarda 180 ga yaqin budda ibodatxonalari hamda diniy markazlar faoliyat yuritgan.

Maxayananing shakllanishida Kushon davlatining roli katta bo‘lgan. Kushon davlatidan buddaviylikning maxayana yo‘nalishi Sharqda, Markaziy Osiyoning davlat va shaharlariga tarqala boshladi. Buyuk Ipak yo‘li orqali birinchi buddaviylik targ‘ibotchilari mil. av. II asrdayoq Xitoyga kelgan.

Buddaviylik miloddan avvalgi 1-ming yillik oxirlarida Shri-Lanka, O‘rta Osiyo, Markaziy Osiyo hamda Old Osiyoni o‘z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorimizda olib borilgan arxeologik qazilmalar asnosida O‘ratepa, Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzelaridan topilgan Shakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari, ramziy g‘ildiraklar va stupa qoldiqlarining guvohlik berishicha, Kushon imperiyasida buddaviylikka katta ahamiyat berilgan.

Buddaviylik milodning I asrida Xitoy, IV asrda Koreya, VI asrda Yaponiya, VII asrda Tibet, XIII asrdan XVI asrgacha Mongoliya, XVII asrdan XVIII asrlargacha Buryatiya va Tuva, XIX–XX asrlarda Amerika va Yevropa qit’alariga kirib borgan.

Buddaviylik o‘z ta’limotida hech qachon boshqa xudolarga sig‘inishni taqiqlamagan. Budda ularga ibodat qilish insonga vaqtincha tasalli berishi mumkin, biroq ular nirvana holatiga olib bormaydi deb aytgan. Shu sababli, buddaviylik ta’limoti turli joylarda yoyilishi bilan ular ibodat qilib kelgan xudolari yoki ulug‘langan shaxslari timsollari ibodatxonalarni egallagan.

Buddaviylik ta’limoti bir qator devon shakliga keltirilgan to‘plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka

(yoki Tipitaka) – uch savat ma’nosini anglatadi. U uch qismdan iborat bo‘lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Buddaviylikning bu yozma manbasi hozirgi davrda Shri-Lankada saqlanib qolgan. U milodning boshlarida shakllangan. Manba budda targ‘ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari – Sutra-pitaka, rohiblik axloqi va xonaqohlar nizomlariga bag‘ishlangan vinaya matnlari – Vinaya-pitaka, buddaviylikning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag‘ishlangan abxidxarma matnlari – Abxidxarma-pitakadan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddaviylikka oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning tarixiy qiymati kamroq. Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning barchasi Tripitakada jamlangan.

O‘rta Osiyoda islom dinining kirib kelguniga qadar (VII–VIII asr) qadimiy mahalliy dinlar qatori buddaviylikning keng yoyilganligini kuzatish mumkin.

Mil. av. I asr va milodning IV asrlari oralig‘ida Kushon imperiyasi buddaviylikning Maxayana yo‘nalishini davlat dini deb e’lon qildi. Bungacha buddaviylik Hindistonda uzoq tarixga ega bo‘lsa ham, u yerda asosiy yo‘nalish bo‘lgan Xinayana bunday mavqega erishmagan edi. Kanishka, Vima, Kadfiz va ulardan keyingi kushon imperatorlari buddaviylikni keng yoydilar. Ular bu din an’analarini amalda rivojlantirish, boshqa xalqlar o‘rtasida tarqatish uchun Balx, Marv, Termiz, Samarqand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Quva, Koson, O‘sh, Bolasog‘un, Koshg‘ar va boshqa shaharlarda buddaviylik takyagohlari va xonaqohlari, ibodatxonalarini qurib, buddaviylikning muqaddas kitoblari, sutra va pastrilarni o‘rganish, tarjima qilish va sharhlash uchun sharoit yaratib berdilar.

Hozirda mamlakatimizdagi Qoratepa, Fayoztepa, Sayram, Quva va boshqa joylarda topilayotgan budda haykalchalari yoki ularning parchalari, Ayritomdagi ayvon peshtoqi parchasidagi budda musiqachilarining tasviri va boshqa ashyoviy osori atiqalar, saroy va ibodatxonalar O‘rta Osiyodagi buddaviylik

haqida xabar beruvchi manbalardir. Bu dinga tegishli yozma manbalar qadimgi turkiy yozuvda, uyg'ur bitiklarida va boshqa yozuvlarda saqlanib qolgan.

Miloddan avvalgi III–I asrlarda buddaviylik Hindiston hududidan chiqib janubi-sharqiy yo'nalish bo'yicha Xinayana ta'limoti shaklida yoyilgan. Buning sababi bir necha asrlar mobaynida Shimoliy Hindiston, O'rta va Markaziy Osiyo hududlarining yagona Kushon saltanati bayrog'i ostida birlashtirilishi bo'ldi. Aynan Markaziy Osiyo orqali buddaviylik Uzoq Sharqqa kirib ikkinchi hayotini boshladi.

O'rta Osiyoda buddaviylikka tegishli juda ko'plab tarixiy obidalar topilgan. Ular orasida Fayoztepadan topilgan bu dinga tegishli kompleks eng yirigi hisoblanadi. U yerdan chiqqan diniy bitiklar, haykallar bilan birga topilgan ibodatxonaning hududi ancha katta joyni egallagan.

Eski Termizdan topilgan Qoratepa buddaviy kompleksi milodning I asri Kushon saltanatining gullagan davriga to'g'ri keladi. Qoratepadagi har bir inshoot yer ustki va g'or ichida joylashgan – ibodatxona, saroy, bir xizmatchi – monax uchun moslashtirilgan hujradan iborat.

Dalvarzintepa kompleksi 1967–1968-yillarda qazib ochilgan bo'lib, Termiz yaqinidagi Surxon vohasining o'rta qismida joylashib G. Pugachenkova va B. Turgunov boshchiligidagi olimlar tomonidan ochildi.

Dalvarzintepada topilgan buddaviylik kompleksi bu din ta'limoti Kushon saltanatining shimoliy viloyatlarida milodning I asrida yoyilganligini ko'rsatadi.

Janubiy O'zbekistonda joylashgan Baqtriya – Toxaristonning shimoliy qismida 1960-yillarning yarmidan 1980-yillargacha buddaviy inshootlarning yettitasi aniqlanib o'rganildi. Buddaviylikning tarqalishida O'rta Osiyoning g'arbidagi Parfiya, Baqtriya, Sug'd kabi viloyatlari muhim ahamiyat kasb etganligi Xitoy yozma manbalarida ta'kidlanadi.

Buddaviylikning asosiy yo'nalishlaridan biri Xinayana yo'nalishidir. Xinayana «kichik g'ildirak» ma'nosini anglatib,

u rasmiy diniy yo'nalish sifatida mil. av. I asrlarda shakllangan. Biroq uning asosiy qoidalari ancha avval, shu jumladan, Tripitakada bayon qilingan.

Xinayana ta'kidlashicha, dxarmalar tabiatini o'rganish va nirvanaga erishish ma'naviy yo'l bilan bo'ladi. Bu yo'l juda og'ir va faqat monaxlargina nirvana holatiga yetishi mumkin. Keyinchalik Xinayanada juda ham murakkab va dabdabali ibodatlar (masalan, «Budda tishiga sig'inish»), buddaviylikning muqaddas joylariga ommaviy ziyoratlar joriy qilingan. Bu yo'nalish sharqiy Hindistonda, Shri-Lanka, hindi-xitoy davlatlarida tarqalgan.

?

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Buddaviylik asoschisining shaxsi haqida nimalarni bilasiz?
2. Buddaviylik ta'limoti va uning mazmun-mohiyatini gapirib bering.
3. Buddaviylikning qanday yo'nalishlari mavjud?
4. Buddaviylik Markaziy Osiyoga qanday yo'l bilan kirib kelgan?
5. Mamlakatimizdagi buddaviylik yodgorliklarini bilasizmi?
6. Buddaviylikning Xitoyga kirib borish jarayoni qanday yuz bergan?
7. Hozirgi kunda qaysi hududlardagi aholi budda diniga e'tiqod qilishadi?

## 6-§. JAHON DINLARI. XRISTIANLIK

Xristianlik jahon dinlaridan biri. U o'ziga e'tiqod qiluvchilarning soni jihatidan jahon dinlari orasida ko'p sonlisi hisoblanadi. Unga e'tiqod qiluvchilarning soni 2 milliarddan ortiq bo'lib, bu son dunyo aholisining deyarli uchdan biriga to'g'ri keladi.

Xristianlik, asosan, Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda qisman Afrika va Osiyo qit'alarida tarqalgan.

Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida Falastin yerlarida vujudga keldi. Iso Masih (Iisus Xristos) xristianlik ta'limotining asoschisi hisoblanadi. Xuddi shu davrda yahudiylar o'rtasida kutilayotgan xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo'ldi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masih yahudiylikni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. Yahudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg'in qildilar. Isoni 33 yoshida fitnachilikda ayblab qatl etishga hukm qildilar.

Iso nomiga qo'shiluvchi Masih so'zi qadimiy yahudiy tili – ivritdagi «moshiax» so'zidan olingan bo'lib, «silangan» yoki «siylangan» ma'nolarini beradi. Grekchada bu so'z «xristos» («christos») shakliga ega. Bu dinning «xristianlik» yoki «masihiylik» deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq.

«Injil» xristianlikning muqaddas kitobi. Injil (Bibliya) so'zining grekchadan tarjimasi biblia – kitob, o'ram ma'nolarini

anglatadi. Xristianlar tomonidan «Injil»ning «Yangi Ahd» qismi alohida e’zozlanadi. «Yangi Ahd» 27 kitob – 4 ta Injil (xushxabarlar), havoriylarning faoliyati, 21 maktub va Ioann (Yuhanno) «Vahiynomasi»dan iborat.

**Xristianlik dinining muqaddas kitobi INJIL ikki qismdan iborat**

| Qadimga Ahd (Tavrot va Zabur) | Yangi Ahd (Injil) |
| --- | --- |
| «Ahd» so‘zi xudoning insonlar bilan maxsus aloqasini bildiradi. Iso Masih tug‘ilishidan avval yozilgan. Ibriy va oromiy (eski yahudiy) tillarida yozilgan | Iso Masih tug‘ilganidan keyin 1 asrda yozilgan. Yangi Ahd matni yunon (qadimga grek) tilida yozilgan |

Injil so‘zi yunoncha «yevangelion» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, xushxabar ma’nosini anglatadi. Unda odamzodni qutqaruvchi yagona Najotkor hisoblanmish Iso Masihning yer yuziga yuborilganligi haqida hikoya qilinadi.

«Injil»ning dastlabki 4 kitobi Iso Masihning hayoti va ta’limotiga bag‘ishlangan. Ular havoriylar hamda Yuhanno tomonidan yozilgan. Manbalarning xabar berishicha, xristianlik yahudiy muhitida yuzaga kelgan. Xristianlikning asosiy g‘oyasi – Isoning odamzodning xaloskori «messiya» ekanligi yahudiylikda mavjud bo‘lib, oxiratga yaqin kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta’limotdan kelib chiqqandir.

Xristianlik ota-xudo, o‘g‘il-xudo va muqaddas ruh – «Troitsa» to‘g‘risidagi ta’limotni, jannat va do‘zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o‘z ichiga oladi.

Xristian jamoasining shakllanishi, aqidalarining tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi milodning 324-yili xris-

tianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e'lon qilinganidan so'ng amalga oshdi.

325-yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Lisiniya Nikeya shahrida I Butun Olam Xristian Soborini chaqirdi. Unda pasxani bayram qilish vaqti belgilangan, 381-yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Sobori bo'lib o'tdi. II Jahon sobori Troitsa haqidagi qoidani ishlab chiqdi va «e'tiqod tamoyillari»ni qonunlashtirdi. Konstantinopol patriarxi Rim patriarxi kabi barcha boshqa yepiskoplarga nisbatan imtiyozlarga ega degan qoidani kiritdi.

395-yilda Rim imperiyasining sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib ketishi ikkala cherkovning ikki yo'ldan ketishiga olib keldi.

Xristian cherkovining katolik va pravoslav cherkovlariga ajralib ketishi Rim papasi va Istanbul Patriarxining xristian olamida yetakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keldi. Ajralish jarayoni Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy tafovutlari o'sib chuqurlashib borayotgan asrlardayoq boshlangan edi. 867-yillar orasida Papa Nikolay va Istambul patriarxi Fetiy orasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi va bu ajralish 1054-yili rasman tan olindi.

XVI asr boshlarida katolikdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik harakatlari vujudga keldi. Buning natijasida lyuteranlik, baptistlik, anglikanlik va kalvinlik cherkovlari shakllandi.

**Pravoslav yo'nalishi.** Pravoslav yo'nalishi xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri o'laroq, tarixan uning sharqiy shahobchasi sifatida ro'yobga chiqdi va shakllandi. Bu oqim, asosan, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha ortodoksiya so'zidan olingan bo'lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslavlikning kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo'nalish u yerdagi hukmron din edi.

Xristianlikning Sharqiy tarmog‘i bo‘lmish pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 15 mustaqil (avtokefal) cherkov: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya, Slovakiya, Rus va Amerika cherkovlari vujudga keldi. Bu cherkovlardan eng kattasi Rus pravoslav cherkovi (RPCh boshqa rasmiy nomi Moskva patriarxati).

Avtokefal cherkovlar bilan birga avtonomiya maqomidagi Sinay, Fin va Yapon cherkovlari faoliyat olib bormoqda. XX asrning oxirlarida, Sharqiy Yevropadagi siyosiy jarayonlar sababli, avtokefal cherkovlarning soni yanada ortdi. Bu cherkovlar turli ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatadilar va zamonning dolzarb muammolariga turlicha munosabat bildiradilar.

Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. Cherkov yili eski hisobga muvofiq 1-sentabrdan boshlanadi. 8-sentabr kuni «Rojdestvo bojey materi» bayrami o‘tkaziladi. 12-sentabr kuni «Vozdvijeniya kresta gospodnya» bayrami nishonlanadi. Bu bayram imperator Irakliya davrida Iso krestining forslar tutqunidan qaytarib olib kelinishiga bag‘ishlanadi. 21-noyabr kuni «Vvedenie vo xram Presvyatoy bogoroditsey» bayrami o‘tkaziladi. Bu bayram uch yoshli Maryamning birinchi ruhoniy tomonidan qadimiy ahd ibodatxonasiga olib kirilganligiga bag‘ishlanadi. Ibodatxonaga kirish bayramidan bir hafta oldin 15-noyabrda Rojdestvo posti boshlanadi. Nihoyat, 20-dekabrda Rojdestvo bayrami kiradi va 31-yanvargacha davom etadi.

Isoning cho‘qintirilishi bayrami 6 yanvarda nishonlanadi. Bu bayram Isoning Yahyo tomonidan cho‘qintirilishiga bag‘ishlanadi.

Navbatdagi yana bir yirik bayram sretenie (olqishlash, kutib olish) bayramidir. Bu bayram Iso tug‘ilgach avliyo Simeon tomonidan uni kutib olinishiga bag‘ishlanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan bayramlar oldidan ularga tayyorgalik sifatida turli muddatli postlar o‘tkaziladi. Postning mohiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhim voqealariga tayyorgarlikdan iborat.

Pravoslav cherkovida ruhoniylar uch tabaqaga bo‘linadi: 1) diakon, 2) ruhoniy, 3) yepiskop.

Diakon (grek. xizmatchi) ruhoniylikning eng quyi tabaqasi hisoblanadi.

Ruhoniy yoki Ierey pravoslav ruhoniyligining ikkinchi tabaqasi hisoblanadi. Yepiskop yoki arxiyerey ruhoniylikning eng oliy unvoni hisoblanadi. Yepiskoplar barcha ibodat va sirli marosimlarni bajara oladilar. Poytaxt shaharlarning yepiskoplari mitropolit deb ataladi. Pravoslav cherkovining eng oliy mansabi patriarxdir.

<table>
<tr><th colspan="4">XRISTIANLIK DINING PRAVOSLAV OQIMI<br>15 ta MUSTAQIL CHERKOVLARGA BO‘LINADI</th></tr>
<tr><td>1</td><td>KONSTANTINOPOL</td><td>8</td><td>RUMIN</td></tr>
<tr><td>2</td><td>ALEKSANDRIYA</td><td>9</td><td>BOLGAR</td></tr>
<tr><td>3</td><td>ANTIOXIYA</td><td>10</td><td>KIPR</td></tr>
<tr><td>4</td><td>IERUSALIM</td><td>11</td><td>ELLADA</td></tr>
<tr><td>5</td><td>RUS</td><td>12</td><td>ALBAN</td></tr>
<tr><td>6</td><td>GRUZIYA</td><td>13</td><td>POLYAK</td></tr>
<tr><td rowspan="2">7</td><td rowspan="2">SERB</td><td>14</td><td>CHEXIYA</td></tr>
<tr><td>15</td><td>AMERIKA</td></tr>
</table>

**Katolik yo‘nalishi.** Xristianlikning yirik yo‘nalishlaridan biri katoliklikdir. U Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo‘lib, bu yo‘nalishda e’tiqod qiluvchilar taxminan bir milliard kishini tashkil etadi.

Katolik xristianlikning yo‘nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta’limot,

sig‘inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Katolik diniy ta’limotning asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat’iy markazlashuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovning boshlig‘i bo‘lib, u diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarni belgilaydi. Uning hokimiyati dunyoviy soborlar hokimiyatidan yuqori turadi.

A’rof haqidagi (do‘zax va jannat oralig‘idagi mavze) aqida faqat katolik ta’limotida mavjud. Gunohi katta bo‘lmagan gunohkorlarning ruhi u yerda o‘tda kuyadi, keyin jannatga yo‘l topadi. Ruhning a’rofda bo‘lish muddati xayrli ishlar tufayli qisqartirilishi mumkin. Bu ibodat va xayr-ehsonlar o‘lganlar xotirasiga yaqinlar tomonidan qilinadi.

A’rof haqidagi ta’limot birinchi asrdayoq paydo bo‘lgan edi. Pravoslav va protestant cherkovlari a’rof haqidagi ta’limotni rad etadi.

Pravoslavlarda turmush qurmaslik rusumini faqat qora ruhoniylik qabul qiladi. Katoliklarda esa turmush qurmaslik (selibat) Papa Grigoriy VII tomonidan joriy qilingan qoidaga ko‘ra barcha ruhoniylar uchun majburiydir.

**Protestantlik yo‘nalishi.** Protestantlik tarixi Martin Lyuterdan (1483–1546) boshlanadi. U XVI asrda Yevropada katoliklarga qarshi qaratilgan Reformatsiya harakati bilan bog‘liq juda ko‘p mustaqil cherkovlar va sektalarni o‘z ichiga oladi. «Protestantizm» atamasi «protest» (norozilik) so‘zidan kelib chiqqan.

Protestantlikning ilk shakllari: lyuterchilik, svinglichilik, kalvinizm, unitarizm va sotsinchilik, anabaptizm, mennochilik va anglikanchilik edi. Hozirgi vaqtda protestantizm dunyoning barcha qit’alarida keng tarqalgan. Protestantlikning jahon markazi AQSHda, bu yerda baptist, adventist, Iegovo shohidlari va boshqalarning qarorgohlari joylashgan.

Protestantlik xudoning borligi, uning uch qiyofada namoyon bo‘lishi, jonning o‘lmasligi, jannat va do‘zax (katoliklikdagi a’rofdan tashqari) haqidagi, vahiy va boshqalar to‘g‘risidagi umumxristian tasavvurlarini e’tirof etadi. Biroq, Martin Lyuter katolik cherkovi bilan aloqani uzib, protestant cherkovining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko‘ra, inson Xudo bilan bevosita muloqot qilishi mumkin. Protestantlikning mohiyatiga ko‘ra, ilohiy lutf-u marhamat insonlarga cherkovning ishtirokisiz in’om etiladi. Inson najot topishi uning shaxsiy e’tiqodi va Isoning vositasi orqali ro‘y beradi. Avom ruhoniylardan farqlanmaydi, ruhoniylik hamma dindorlarga bir xilda joriy etiladi.

Protestantlik diniy marosimlarning ko‘pchiligini bekor qildi, faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho‘qintirish saqlanib qoldi.

O‘lganlarga bag‘ishlangan duo o‘qish, aziz-avliyolarga sig‘inish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha hashamlar, mehroblar, sanamlar, haykallardan tozalandi, ruhoniylarning uylanmaslik shartlari bekor qilindi. Ibodatlar faqatgina lotin tilida olib borilishi, Injilning faqatgina ruhoniylar tomonidan sharhlanishi zarurligi shartlari inkor etildi. Injil milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojo‘yning eng muhim burchi bo‘lib qoldi.

Keyinchalik protestantlik zamirida bir necha mustaqil cherkovlar ham yuzaga keldi. Ular qatorida kalvinizm, anglikanlik, baptistlik, adventistlik, pyatidesyatniklik kabilarni sanash mumkin.

Injil yahudiylik va xristianlik dinlari ta’limotiga ko‘ra, u Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o‘zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir.

Yahudiy va xristian Injillari bir-biriga mos kelmaydi. Yahudiylarning muqaddas kitobi qadimiy Isroil va yahudiylarning diniy ta’limot va urf-odatlari asosida miloddan avvalgi XIII

davrda yozilgan bo‘lsa, Xristianlarning kitobi esa milodning boshlarida vujudga keldi. Yahudiylar xristianlarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan olmaydilar. Xristianlar esa yahudiylarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan oladilar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda bir necha xristianlik oqimlari faoliyat olib boradi. Xristianlikning ham O‘rta Osiyo xalqlari tarixida o‘ziga xos o‘rni bor.

Bu din O‘rta Osiyoga, xususan, O‘zbekistonga ikki yo‘l bilan kirib kelgan. Bu jarayon, birinchidan, xristianlikni targ‘ib etuvchi missionerlarning targ‘ibotchilik harakati orqali, ikkinchidan, O‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e’tiqod qiluvchi aholining ushbu mintaqaga ko‘plab ko‘chib kelishi orqali amalga oshdi. Bu dinni mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar O‘rta Osiyoning turli viloyatlariga milodning III asrlarida kirib kelganlar. Masalan, 280-yilda Talos (Marke) cherkovlari qurilib bo‘lgan, Samarqandda (310-yildan), Marvda (334-yildan), Hirotda (430-yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida, keyinchalik Samarqandda, Marvda (430-yillar), Hirotda (658-yillar) yepiskoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo‘lgan. Xurosonliklar va sug‘diyonaliklar, zardushtiylar, monaviylar, buddistlar bilan bir qatorda xristianlar ham bo‘lganlar. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qarashli yerlarda yashaganlar.

Pravoslavlik yo‘nalishi O‘zbekiston hududiga Rossiya orqali kirib kelgan. 1871-yil 4-mayda Rossiya imperatori tomonidan Toshkentda Turkiston (hozirgi vaqtda O‘zbekiston va Toshkent) yeparxiyasini ochishga qaror qilindi.

Xristianlikning O‘zbekistonda tarqalgan oqimlaridan biri katoliklikdir. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912-yilda qurila boshlanib, 1917-yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy va ahamiyatga molik obida sifatida qayta ta’mirlanmoqda.

Vatikan davlati O‘zbekistonning mustaqilligini 1992-yil 1-fevralda tan olib, shu yilning 17-oktabr kuni ikki taraflama diplomatik aloqalar o‘rnatildi. 1994-yil 31-oktabr kuni O‘zbekiston

Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Vatikan davlatining nunsiy elchisi Marian Olesdan Ioann Pavel II ning ishonch yorlig'ini qabul qildi. Shundan so'ng Vatikanning Toshkentdagi elchixonasi rasman o'z ishini boshladi.

O'zbekistonda hududida protestantlikka oid cherkovlar ham faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo xristian missionerligining diqqat-e'tibori qaratilgan hududlardan biriga aylanganini alohida qayd etish lozim. Ushbu hududni o'zlashtirish uchun bir qator rejalar ishlab chiqilgan.

Missionerlar o'zlari faoliyat olib boradigan mamlakatga xos xususiyatlarni hamisha e'tiborga olgan. Masalan, ijtimoiy mazmunga ega ko'plab tadbirlarga «o'z ulushlarini qo'shishga» va o'zlarining beg'arazligini iddao qilgan holda muhtoj oilalarga moddiy yordam berishga harakat qilishlari ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

**?**

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Xristianlikning vujudga kelishi haqida gapirib bering.
2. Xristianlik ta'limoti va manbalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Xristianlikda nechta asosiy yo'nalishlar mavjud?
4. Pravoslav oqimining katolik oqimidan farqlari nimada?
5. Cherkovni isloh qilish harakatlari natijasida xristianlikda yana qanday oqimlar yuzaga keldi?
6. Respublikamizda hozirgi kunda xristianlikning qaysi oqimlariga mansub cherkovlar faoliyat yuritmoqda?
7. Xristian missionerligi haqida nimalarni bilasiz?

## 7-§. JAHON DINLARI. ISLOM

Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda ijtimoiy adolat qaror topib, madaniy merosimiz, milliy va diniy qadriyatlar rivoji uchun imkoniyatlar yaratildi. Muhimi, ko'hna tariximizga munosabat tubdan o'zgarib, uning ma'naviy-ruhiy ildizlaridan biri – Islom dini asoslari to'g'ri talqin etilmoqda. Zero, Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, *«Biz musulmon dini haqida gapirganda, avvalo, Alloh va uning rasulini, o'zimizga ruhan yaqin bo'lgan ulug' allomalarimiz, ulug' imomlarimizni tasavvur qilamiz. Mana shu qutlug' zaminimizda tug'ilib voyaga yetgan, muborak nomlarini butun islom dunyosi cheksiz ehtirom bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Zamaxshariy kabi piri komillarimizni nazarda tutamiz. Ma'naviy hayotimizni mana shu ulug' nomlar bilan bog'laymiz»*[1].

Ma'lumki, islom dini bizning yurtimizda VIII asrning birinchi choraklarida muqim ravishda qaror topib, mahalliy xalqlar tomonidan qabul qilingan. Ulug' ajdodlarimiz bu dinning manbalari Qur'on va hadislar bilan tanishib, ularning mazmun-mohiyatini atroflicha idrok etib, chuqur anglagandan keyin, bu insonni ma'naviy kamolotga, ijtimoiy taraqqiyotga undaydigan buyuk bir ta'limot, beqiyos hayotiy falsafa ekanligiga komil ishonch hosil qildilar.

---

[1] *Karimov I.A.* Alloh qalbimizda, yuragimizda // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: «O'zbekiston», 1999, 7-jild. B. 352–353.

Islomning haqiqiy insonparvarlik, bunyodkorlik g‘oyalari, uning yuksak insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etganligi ota-bobolarimiz tomonidan qalban va chin yurakdan qabul qilinib, ularning haqiqiy e’tiqodiga zamin yaratdi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda yetishib chiqqan, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan allomalar tavalludlari xalqaro miqyosda nishonlanib, ularning ma’naviy-ilmiy merosini chuqur o‘rganish va xalqimizga yetkazish bo‘yicha qator e’tiborga molik ishlar amalga oshirilayotganligini alohida ta’kidlash joiz.

Islom Konferensiyasi Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha ixtisoslashgan tuzilmasi (ISESCO) tomonidan 2007-yilda poytaxtimizga «Toshkent – islom madaniyati poytaxti» degan yuksak maqom berilishining o‘ziga xos tarixiy va zamonaviy asoslari mavjud. Ushbu yuksak maqom jannatmakon diyorimizdagi islom obidalarini asrlar davomida madaniyat durdonalari sifatida e’zozlab kelayotgan xalqimiz imon-e’tiqodi, qadriyatlarining yana bir karra e’tirof etilishini bildiradi.

Islom dini vujudga kelmasdan oldingi davr o‘rta asr manbalarida johiliya deb yuritiladi. Johiliya so‘zi arab tilida johillik, bilimsizlik, nodonlik ma’nolarini beradi. Bu so‘z Arabistonning islomdan oldingi davriga nisbatan ishlatiladi. Chunki bu davrda arablar orasida al-Vasaniyya – ko‘pxudolik hukm surib, ular yakkaxudolik e’tiqodidan bexabar edilar. Bundan tashqari xalq orasida qizlarni tiriklayin ko‘mish, mayxo‘rlik va boshqa axloqiy buzuqliklar keng yoyilgan edi. Islom dini kelganidan keyin bunday johilona odatlarga chek qo‘yildi va undan oldingi davr «johiliya davri» deb atala boshlandi.

Arabiston aholisi yurtlarining jug‘rofiy joylashuvi jihatidan ikki qismga bo‘linadi: O‘troq arablar – Yaman, Hadramavt va Ummon kabi janubdagi unumdor mintaqalarda joylashgan bo‘lib, ularni janub arablari ham deyiladi.

**ISLOM DINI**
**JAHON DINI BO'LIB, VII ASRDA ARABISTON YARIM OROLIDA PAYDO BO'LGAN. 172 MAMLAKATNING 1,3 MILLIARD AHOLISI ISLOM DINIGA E'TIQOD QILADI**

↓

**ISLOM DININING ASOSCHISI – MUHAMMAD IBN ABDULLOH IBN ABDULMUTALLIB IBN XOSHIM IBN ABDUMANNOF**

Ko'chmanchi arablar – Najd, Hijoz kabi markaziy va shimoliy hududlarning aholisi bo'lib, shimol arablari ham deb yuritiladi.

Islom arafasida arablar orasida butparastlik shunchalik avj olgan ediki, hatto, har xonadonning o'z sanami bo'lgan. Safarga otlangan kishi o'z sanamini qo'li bilan ishqab, so'ng yo'lga tushardi, safardan qaytgach esa, birinchi navbatda u yana sanamini silab-siypardi.

Johiliyat jamiyatida o'zlarining katta bobolari Ibrohim alayhissalom dinini saqlab qolgan bir jamoa kishilar ham mavjud edi. Ular sanamlarga sig'inmas, balki yagona xudoga ibodat qilar edilar. Ularni haniflar deb atar edilar. Haniflar ochiqdan-ochiq butparastlarni tanqid qilardilar. Bu tanqidlar, tabiiyki, zodagonlarga yoqmas edi. Shuning uchun ham ular bir yerda muqim turmay, o'lka bo'ylab daydib yurishga va qalandarona hayot kechirishga majbur bo'ldilar. Zayd ibn Amr, Varaqa ibn Navfal, Ubaydulloh ibn Jahsh va Usmon ibn Huvayris, Quss ibn Sayido ushbu toifadagi kishilardan bo'lgan.

Muhammad alayhissalom – islom dinining payg'ambari. U Arabiston tarixidagi «Fil voqeasi» nomi bilan mashhur jangdan 50 kun keyin tavallud topdilar. Ko'plab tarixchilarning fikricha, Muhammad alayhissalomning tavallud topishlari milodiy 571-yil 21-aprel kuniga to'g'ri keladi. Otalari Abdulloh Muhammad alayhissalom tug'ilmaslaridan oldin savdo ishi bilan Shomdan qaytayotib Yasrib (Madina)da vafot etdilar va o'sha yerga dafn

etildilar. Onalarining ismi Omina bint Vahb bo‘lib, Banu Zuhra urug‘idan edi.

Payg‘ambarning tug‘ilishlari paytida turli mo‘jizalar ro‘y berdi. Ushbu hodisalar haqida ko‘plab tarixchilar o‘zlarining asarlarida rivoyat qilganlar. Payg‘ambar alayhissalomning onalari homilador bo‘lganida tushida «Sen butun insonlarning ulug‘iga homilador bo‘lding, u dunyoga kelgach, ismini Muhammad qo‘ygin» degan ovoz eshitdi. Shunga ko‘ra tug‘ilgan paytlarida bobolari Muhammad «g‘oyat maqtovli» deb ism qo‘ydilar.

Arablarda bola sog‘lom va ziyrak bo‘lib o‘sishi uchun sahroyi ayollardan sut-ona topib emizish odati bor edi. Ana shu odatga ko‘ra, Bakri qabilasidan bir guruh ayol go‘dak izlab shaharga keladi. Muhammad alayhissalomga sut-ona bo‘lish Abu Zuaybning qizi Halimaga nasib etdi. Halimaning eri chorvador Abu Kabsha edi. Quraysh xalqi payg‘ambarimizni masxaralab kulganda u kishini Abu Kabshaga mansub qilib: «Bu Abu Kabshaning o‘g‘li nuqul osmondan gapiradi», deyishardi. Rasulullohni 4 yildan ortiq vaqt ichida emizgan Halimaning oilasiga baraka yog‘ilib turdi. «Shaqq as-sadr» voqeasi ana shu davrda yuz berdi (Qur’oni karimning 94-surasi). Bu voqea «Shaqq as-sadr» deb nomlanadi. Rivoyat qilinishicha, Rasululloh Halimaning qo‘ylarini yaylovda boqib yurganlarida ikki oppoq kiyimli kishi kelib u kishining ko‘kraklarini yorishadi-da, ichlaridan bir narsani olib tashlab, kesilgan joyni tikib qo‘yishadi. Muhammad alayhissalomni ikki oq kiyimli kishi olib ketishayotganini ko‘rgan akalari o‘z onalariga bu xabarni yetkazishganida bibi Halima voqea sodir bo‘lgan joyga zudlik bilan yetib keladilar. Bu vaqtda kichkina Muhammad alayhissalom bir holatda turgan edilar. Keyin ularga bo‘lgan voqeani o‘z og‘izlari bilan gapirib beradilar. Shundan so‘ng birovning farzandiga biror shikast yetib qolishidan qo‘rqqan Halima bolani o‘z onalariga topshiradi.

Payg‘ambar alayhissalom 5 yoshlarida onalari Omina bilan birgalikda Yasribga otalari qabrini ziyorat qilish uchun boradilar. Bu safardan qaytib kelayotganlarida Abvo degan joyda onalari vafot etdi. Makkaga otalarining cho‘risi Ummu

Ayman hamrohligida yetib keldilar. Shundan so‘ng 8 yoshgacha bobolari Abdulmuttalib qo‘lida tarbiyalandilar. Bobolari yosh Muhammadni juda yaxshi ko‘rar edi. Shuning uchun o‘zi xastalanib, o‘lim to‘shagida yotgan paytda o‘g‘illari orasida eng saxovatli va mehribon bo‘lgan Abu Tolibni chaqirib Muhammadni o‘z qaramog‘iga olishni buyuradi va vafot etgach amakilari Abu Tolib otasining vasiyatiga binoan Muhammad alayhissalomni o‘z qaramog‘iga oldi.

Yoshlik chog‘larida ikki marta Shomga, bir marta Yamanga karvon bilan safarga chiqqanlar. Birinchi marta 12 yoshlarida, ikkinchi marta 25 yoshlarida Shomga, 17 yoshlarida Yamanga safar qildilar.

Yoshlari 12 ga yetganda amakilari Shomga safarga otlandi. Eng yaqin kishisidan ayrilib qolish Muhammad alayhissalomga qattiq ta’sir qilib ma’yuslanib qoldilar. Buni ko‘rib Abu Tolib bolani birga olib ketishga jazm qildi. Shom yo‘lida joylashgan Busro nomli mavzeda karvon to‘xtadi. Yahudiylarning olimlaridan Buhayro ismli bir rohib uzoqdan karvonning kelishini kuzatib turar edi. Ko‘rdiki, karvon bilan birga bir bulut ham kelayapti. Karvon bir daraxt ostiga to‘xtadi. Bulut ham o‘sha daraxt tepasiga qo‘ndi. Buhayro darhol bir ziyofat tayyorladi. Abu Tolibni sheriklari bilan ibodatxonaga taklif qildi. Muhammad alayhissalom ahvollarini bilib olish uchun bir necha savol so‘radi. Olgan javoblaridan hayratlangan Buhayro Muhammad alayhissalomning ikki kuraklari o‘rtasidagi payg‘ambarlik muhri (xotam an-nubuvvat)ni ochib ko‘rdi. Shundan so‘ng Abu Tolibga Muhammad alayhissalomning porloq kelajak egasi ekanligini, bo‘lajak payg‘ambar ekanligini bashorat qildi va uni ehtiyot qilishni uqtirdi.

25 yoshga to‘lganlarida Banu Asad urug‘idan bo‘lgan ayol Xadicha bint Xuvaylid u kishidan o‘zining savdo karvoni bilan birga Shomga safar qilishni so‘radi. Bu savdodan katta foyda tushdi. Muhammad alayhissalomning to‘g‘riso‘z, halol, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ko‘rgan Xadicha yoshlari ancha katta bo‘lishiga qaramay, taomilga zid ravishda unga sovchi

qo'ydi. Payg'ambarimiz tomonidan amakilari Abu Tolib, Xadicha tomonidan amakivachchasi Varaqa rozilik berib nikoh o'qildi.

Muhammad alayhissalomning shu xotinlari u kishining yetti farzandlaridan (Moriyadan tug'ilgan Ibrohimdan boshqa) 6 tasi (Zaynab, Ummu Kulsum, Ruqiya, Fotima, Qosim, Abdullo)ning onasi bo'lgan.

35 yoshga kirganlarida makkaliklar Ka'bani ta'mir etishadi. Uni qayta qurish jarayonida muqaddas sanalgan «Hajar al-asvad» (qora tosh)ni kim o'rniga qo'yadi degan masalada tortishib qoladilar. Shunda ulardan biri: «ertalab Safo eshigidan kim birinchi kirib kelsa o'sha bizga hakamlik qilsin», – deydi. Ertalab Safo tarafidan Muhammad (a.s.) kirib keladilar. Uni ko'rgan olamon «Muhammad al-Amin (ishonchli Muhammad) keldi» deb xursand bo'lishadi. U zot choponlarini yechib, «qora tosh»ni qo'yib, barcha qabila boshliqlarini choponni baravariga ko'tarishga buyuradilar va o'zlari Qoratoshni joyiga qo'yadilar. Muhammad alayhissalom o'zlarining zukkoliklari bilan qabilalar o'rtasida chiqishi mumkin bo'lgan nizoning oldini oldilar.

Islom so'zi arabcha «Allohga o'zini topshirish», «itoat etish», «taslim bo'lish», «bo'ysunish» ma'nolarini beradi. Islomning asosiy manbasi bo'lmish Qur'oni karim VII asrda nozil bo'lgan bo'lsa-da, Islom ta'limotiga ko'ra, bu din, yer yuzida insoniyat paydo bo'libdiki, butun bashariyatga nozil qilingan. Muhammad alayhissalom avvalgi payg'ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar – Nabiy va Rasul deb tan olinadi.



Nabiy – arab tilida «xabarchi», «xabar yetkazuvchi» ma'nolarini anglatadi. Alloh tomonidan alohida kitob va shariat nozil qilinmagan va avvalgi payg'ambarning kitob va shariatini insonlarga targ'ib qilganlari nabiylar deb ataladi (Ismoil, Is'hoq, Yoqub, Zakariyo kabi).

Rasul – arab tilida elchi ma'nosini anglatadi. Alloh tomonidan alohida kitob va shariat berilgan payg'ambarlar rasullar darajasiga erishgan hisoblanadi. Masalan, Ibrohim, Muso, Iso kabilar. Ibrohimga yuzta sahifa, Musoga Tavrot va Isoga Injil nomli kitoblar nozil qilingan bo'lib, bu bilan birga o'zlariga xos shariat ham berilgan. Muhammad alayhissalom ham kitob va shariat berilgan payg'ambarlardan bo'lib, unga Qur'oni karim nozil qilingan va unda maxsus shariat berilgan.

Imon so'zining lug'aviy ma'nosi ishonmoq, tasdiqlamoq bo'lib, istilohda esa «La ilaha illallohu Muhammadur rasululloh» («Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad uning payg'ambari») kalimasini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlash demakdir. Imonning yetti sharti bor: Allohning borligi va birligiga imon keltirish, ya'ni Allohning barcha ismlari va sifatlariga imon keltirish. Farishtalarning borligiga imon keltirish. Ilohiy kitoblarga imon keltirish. Payg'ambarlarning haqligiga imon keltirish va hokazo. Quyidagi jadvalga qarang:

| ISLOM DINIDA BELGILANGAN IMONNING YETTI SHARTI | |
|---|---|
| 1 | Allohning borligi va birligiga imon keltirish |
| 2 | Farishtalarning borligiga imon keltirish |
| 3 | Ilohiy kitoblarga imon keltirish |
| 4 | Payg'ambarlarning haqligiga imon keltirish |
| 5 | Oxirat kuniga ishonish |
| 6 | Taqdirga e'tiqod qilish |
| 7 | O'limdan keyin qayta tirilish muqarrarligiga ishonish |

Alloh taolo insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambarlar yuborgan. Qur'onda 25 payg'ambarning nomlari zikr

etilgan. Hadislarda payg'ambarlarning umumiy soni 124 ming ekanligi bayon qilingan.

*Oxirat kuniga ishonish.* Dunyoning ibtidosi bo'lgani kabi uning intihosi ham bor. Islom ta'limotiga ko'ra, bu dunyo bir sinov maydonidir. Bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud.

*Taqdirga* – inson boshiga tushgan yaxshilik va yomonlik Allohdan ekaniga e'tiqod qilish.

*O'limdan keyin qayta tirilish.* Islom ta'limotiga ko'ra, qiyomat kuni bo'lganda barcha insonlar qabrlaridan turadilar va mahshargoh maydoniga yig'iladilar. U yerda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (do'zax) ga mahkum etiladilar.

**Qur'oni karim.** Qur'oni karim – Alloh taolo tarafidan 23 yil mobaynida Payg'ambar Muhammad alayhissalomga oyat-oyat, sura-sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitobdir. Bu kitob Islom dinining muqaddas manbasi hisoblanadi.

«Qur'on» – arabcha «qara'a» (o'qimoq) fe'lidan olingan. Qur'on suralardan iborat. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o'z ichiga oladi. Qur'onda jami 114 ta sura mavjud. Oyatlar soni esa, Qur'on matnlarini taqsimlashning turli yo'llariga ko'ra, 6204 ta, 6232 ta, hatto, 6666 tagacha belgilangan. Bu har xillik Qur'on nusxalarining bir-biridan farqli ekanligini emas, balki undagi oyatlarning turlicha taqsimlanganligini bildiradi.

**Qur'on suralari ikki qismga bo'linadi:**

*1) «Makka suralari» hijratdan oldin nozil bo'lgan (610–622-yy. 90 ta sura).*

*2) «Madina suralari» – hijratdan keyin nozil bo'lgan (622-y. dan 24 ta sura).*

Muhammad alayhissalom hayotlik chog'larida yana vahiy tushib qolar degan umidda Qur'on jamlanib, kitob holiga keltirilmagan edi. Payg'ambar vafotlaridan keyin Qur'on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida saqlanib qoldi. Payg'ambardan so'ng musulmonlarga Abu

Bakr (572–634) boshliq etib saylandi. Uning xalifalik davrida (632–634) mu'minlar va murtad(dindan qaytgan)lar oʻrtasida shiddatli janglar boʻlib oʻtdi. Ushbu janglarda Qur'onni toʻliq yod olgan qorilar koʻplab shahid boʻldilar. Shunda Umar ibn al-Xattob (585–644) Abu Bakrga «barcha qorilar shu zaylda oʻlib ketaversa, Qur'on nuqsonli boʻlib qolishi mumkin, shu sababli uni jamlab kitob holiga keltirish zarur» degan maslahatini beradi. Avvaliga Abu Bakr ikkilanib turadi, chunki bu ish Paygʻambar hayotlik paytlarida qilinmagan edi. Keyinroq Abu Bakr ham Qur'onni kitob shakliga keltirib qoʻyish zarurligini anglab yetdi va Zayd ibn Sobit ismli sahobani chaqirib bu ishni unga topshiradi. Chunki, Zayd Paygʻambar alayhissalom bilan juda koʻp birga boʻlgan, Qur'onni juda ham yaxshi yod olgan va Rasululloh huzurlarida yozgan. Shunday qilib, Zayd va Umar mashaqqatli urinishlardan keyin Qur'onni kiyik terisidan boʻlgan sahifalarga yozib chiqdilar va bogʻlab Abu Bakrning uyida saqlab qoʻydilar. Bu «suhuf» – sahifalar deb nomlandi. Abu Bakr olamdan oʻtgandan keyin sahifalar Umar ibn al-Xattob uyiga, u olamdan oʻtgandan soʻng, uning qizi – Paygʻambar alayhissalom ayollari Hafsada qoldi.

Vaqt oʻtishi bilan koʻplab xalqlar musulmonlikni qabul qilishi natijasida musulmonlarning soni koʻpaya bordi. Turli tillar va shevalar oʻrtasida mavjud farqlarga koʻra Qur'onni qanday oʻqish kerakligi borasida ixtiloflar chiqa boshladi. Bu holatni koʻrgan oʻsha vaqtda xalifalik qilgan Usmon ibn Affon (644–656) Hafsa binti Umardan Abu Bakr va Umar davridagi suhuflarni soʻrab olib oltita nusxa koʻchirishga buyruq beradi.

| PAYGʻAMBAR MUHAMMAD ALAYHISSALOM VAFOT ETGANLARIDAN KEYIN HUKMRONLIK QILGAN XALIFALAR | |
|---|---|
| 1 | ABU BAKR SIDDIQ (623–634) |
| 2 | UMAR IBN AL-XATTOB (634–644) |
| 3 | USMON IBN AFFON (644–656) |
| 4 | ALI IBN ABU TOLIB (656–661) |

Xalifa Usmon ibn Affon topshirig'iga binoan Zayd ibn Sobit barcha Qur'on suralarini yig'ib, taqqoslab chiqib qaytadan Qur'on matnini jamlagan. Qur'onning birinchi rasmiy nusxasi 651-yil taqdim etildi. Asl nusxa esa Madinada, xalifa Usmon huzurida qoldi. Ko'chirilgan nusxalar «Usmon Mus'hafi» deb ataldi.

Arab tarixchilarining xabar berishlaricha, xalifa Usmon Qur'onni mutolaa qilib o'tirganlarida o'ldirilgan. U kishining qoni Qur'onga to'kilgan. Shu tufayli ham Usmon Mus'hafi asl nusxaligi va xalifa qoni to'kilganligi bilan musulmon dunyosida muqaddas kitob hisoblanib, alohida e'tiborga sazovordir. O'zbekiston musulmonlari idorasi fondida saqlanayotgan Toshkent shahridagi Usmon Qur'onida ham qon izlari mavjud va mazkur nusxa xalifa Usmonga tegishli ekanini olimlar ta'kidlaydilar.

Usmon Mus'hafi ruslar O'rta Osiyoni bosib olguncha Samarqandda, Xoja Ahror madrasasida saqlanar edi. Qur'onning Samarqandga keltirilishi haqida ham xalq o'rtasida har xil rivoyatlar mavjud.

*Oyat (arab.: ilohiy belgi, mo'jiza) – Qur'on suralarining bandlari.*

*Oyat Allohning o'z elchisi Muhammad (s.a.v.)ga vahiy qilib, bandalarga qo'llanma sifatida yuborgan mo'jizasi.*

*Eng qisqa oyatlar «Toho» va «Yosin». Eng uzun oyat «Baqara» surasining 282-oyati.*

*Sura (arab. tizma, qator, qo'rg'on, manzil va sharaf ma'nosida) – faqat Qur'onga xos tushuncha, uning bo'limlari (boblari) Sura deyiladi. Eng qisqa sura – «Kavsar» (3 oyat).*

*Eng uzun sura – «Baqara» (286 oyat).*

Unga ko'ra, muqaddas kitobni Abu Bakr Qaffol Shoshiy (977-yili vafot etgan, Toshkentda dafn qilingan) Bag'doddan olib kelgan deb hikoya qilinadi. Avlodlar osha Abu Bakr Qaffol Shoshiy merosxo'rlaridan Xoja Ahror qo'liga o'tgan va u kitobni o'zi qurdirgan madrasaga qo'ydirgan. Ikkinchi bir rivoyatda esa Xoja Ahror muridlaridan biri Makkadan haj qilib qaytayotganida Istambulga kiradi va borib Sultonni og'ir xastalikdan davolaydi. Sulton minnatdorchilik bildirib, unga Qur'onni tortiq qiladi.

Yana bir rivoyatga ko‘ra, Usmon Mus'hafi sohibqiron Amir Temur tomonidan Basradan ko‘plab qo‘lyozma kitoblar va boshqa o‘ljalar bilan birga Samarqandga keltirilgan va mashhur Temur kutubxonasiga qo‘yilgan.

1868-yilda rus askarlarining Samarqandga bostirib kirishi bilan xalqimizning moddiy, ma’naviy boyliklariga tajovuz boshlandi. 1869-yil 24-oktabrda Usmon Mus'hafi Peterburgga – Imperator kutubxonasiga olib ketiladi.

Oktabr to‘ntarishidan so‘ng Butunrossiya musulmonlar jamiyati nomidan Usmon To‘qumboyev RSFSR Xalq Komissarlari Sovetiga murojaat qilib, muqaddas Usmon Mus'hafi o‘z egalariga, ya’ni musulmonlarning O‘lka sezdiga topshirilishini talab qiladi. RSFSR XKS tomonidan musulmonlarning talabi qondirilib, Qur’on musulmonlar ixtiyoriga beriladi. 1917-yil 29-dekabr kuni Peterburgdagi podsho kutubxonasining «nodir qo‘lyozmalar» bo‘limidan olinib, Butunrossiya musulmonlar jamiyati raisi U. To‘qumboyev javobgarligi ostida Ufa shahriga jo‘natiladi. Qur’on 1923-yilgacha Ufada saqlanadi.

**Madina suralari nozil bo‘lishining besh davri:**

*I davr (622-y. oktabrdan 624-y. gacha). Muhammad (s.a.v.) Madinaga ko‘chib kelganidan makkaliklar bilan birinchi yirik to‘qnashuv – Badr jangigacha 4 ta sura.*

*II davr (624-y. martidan 625 y. martigacha). Badr jangidan keyin Uhud jangigacha o‘tgan bir yil ichida 3 ta sura.*

*III davr (625-y. martidan 627-y. martigacha). Uhud jangidagi mag‘lubiyatidan keyin Xandaq jangigacha 5 ta sura.*

*IV davr (627-y. aprelidan 630-y. yanvarigacha). Xandaq jangidan so‘ng Makkaning olinishigacha 8 ta sura.*

*V davr (630-y. fevralidan 632-y. mayigacha). Makka olinganidan keyin Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning vafotigacha 4 ta sura.*

1923-yil 23-iyulda Butunittifoq Markaziy Ijroqo‘mi Usmon Qur’onini Turkistonga qaytarishga qaror qiladi. Muqaddas yodgorlikni Ufadan Toshkentga maxsus komissiya kuzatuvida olib kelinadi. 1923-yil 18-avgustda Toshkentdan Sirdaryo diniy idorasiga qarashli Xoja Ahror jome’ masjidiga topshiriladi.

Hozirgi kunda ushbu Mus'haf Toshkentdagi Hazrati Imom majmuasidagi «Mo‘yi Muborak» madrasasida saqlanadi. Shu

o‘rinda aytishimiz kerakki, bugungi kunda Hazrati Imom (Hastimom) majmuasi «Baroqxon» madrasasi, «Mo‘yi Muborak» madrasasi, «Namozgoh» va «Tilla Shayx» masjidlaridan iborat tarixiy ansambllarni o‘z ichiga olgan inshootlar – muqaddas ziyoratgohga aylandi.

Mustaqillik yillarida Qur’oni karimni ham o‘zbek tiliga tarjima qilishga kirishildi. 2001-yilda taniqli olim Abdulaziz Mansur tomonidan Qur’oni karim ma’nolarining izohli tarjimasi tayyorlandi va bir necha marta nashr etildi.

**Hadisi sharif.** Hadis – Muhammad alayhissalomning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, taqrirlari (ko‘rib qaytarmagan ishlari) yoki u kishiga berilgan sifatlarni o‘zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlardir. «Hadis» so‘zining lug‘aviy– so‘z; xabar; hikoya; yangi kabi ma’nolari bo‘lib, istelohda esa – «al-hadis an-Nabaviy» ya’ni, Payg‘ambar so‘zlaridir.

Hadislar Qur’ondan keyingi asosiy manba hisoblanadi. Hadislar ikki qismdan: aynan xabar beruvchi *matn* va uni rivoyat qilgan roviylar zanjiri – *isnoddan* iborat.

Hadis ikki xildir:

– al-hadis al-qudsiy (bunday hadisda, ma’no Allohdan, lafz esa Payg‘ambardan bo‘ladi);

– al-hadis an-nabaviy (bunda ma’no ham lafz ham Payg‘ambarnikidir).

Hadislar ilk davrda faqat og‘zaki ravishda avloddan avlodga uzatilar edi. Yozma ravishda hadislarni to‘plamaslik haqidagi Payg‘ambarning ko‘rsatmalari asosan ilk islom davriga taalluqli edi. Payg‘ambar a.s. o‘z so‘zlarini yozib olishdan sahobalarni qaytarishlariga sabab hadislarning Qur’on oyatlariga aralashib ketmasligi uchun edi. Chunki vahiy nozil bo‘lib turgan paytda ba’zi kishilar Qur’on oyatlarini yozib borar edilar. Boshqa hadisda esa Payg‘ambar a.s.: «Bu og‘izdan – deya o‘z og‘izlariga ishora qildilar – faqatgina haq so‘z chiqadi» – deb, o‘z so‘zlarini yozib olishga buyurganliklari haqida rivoyat qilingan. Abu Dovud

o‘zining «Sunan» asarida ikki hadisni ketma-ket keltiradi – ulardan birida Payg‘ambar o‘z so‘zlarini yozib olishdan qaytargan bo‘lsalar, ikkinchisida unga buyuradilar.

Keyinchalik esa bu yozuvlar katta to‘plamlarga asos bo‘ldi. Shunday ilk to‘plamlardan biri Madinadagi Urva ibn az-Zubayrga (vaf. 94/712 yoki 99/717 y.) va ikkinchisi Suriyaga ko‘chib ketgan Muhammad ibn Muslim az-Zuhriyga (vaf. 124/741 y.) tegishli.

*Hadis* ko‘pincha *sunna* so‘zi bilan ham yonma-yon keladi. Sunna so‘zining lug‘aviy ma’nosi – odat, tariqa – yo‘l bo‘lib, Islomdagi istelohiy ma’nosi – Payg‘ambar odatlari, tutgan yo‘llari, taqrir (ko‘rib qaytarmagan) va buyurgan ishlariga nisbatan ishlatiladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, hadislarning zamirida sunna yotadi. Islom ta’limotida e’tiqod mezonlarini belgilash va fiqhiy masalalarni hal etishda Qur’ondan keyin sunnaga asoslaniladi.

VIII–IX asr asosan mavjud hadis to‘plamlari qayta ishlagan holda ularni boblar bo‘yicha tasnif qilib, *musannaflar* yozish davri bo‘ldi. Bu esa hadislardan foydalanish uchun ancha qulay bo‘ldi. Islom olamida shunday musannaflardan oltitasi alohida e’tiborga molik sanaladi. Ular – eng katta obro‘ga ega bo‘lgan Imom al-Buxoriy va Imom Muslimning (vaf. 261/875) «al-Jomi’ as-Sahih» to‘plamlari, undan keyingi eng muhim asarlar – Abu Dovud, at-Termiziy (vaf. 279/892 y.), an-Nasoiy (vaf. 303/915 y.) va Ibn Mojjaning (vaf. 273/886) «as-Sunan» asarlaridir. «al-Jomi’ as-Sahih» kitoblari o‘z ichiga biografik ma’lumotlar, Qur’on oyatlariga tafsirlar, diniy qonun-qoidalar, ijtimoiy va shaxsiy axloq mezonlarini ham qamrab oldi. «al-Jomi’ as-Sahih»ning ishonchlilik darajasi boshqa to‘plamlardan ko‘ra ancha yuqori hisoblanadi.

Yana bu muhaddislar qatorida Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiy Samarqandiyni (181/798–255/869) ham aytib o‘tish lozim. U olim Samarqandda yashab, ijod etgan bo‘lib, hadis ilmini rivojlantirishga o‘zining katta hissasini qo‘shgan. Imom Dorimiy «Sunan ad-Dorimiy» asari muallifidir.

Hadislar orasida Payg‘ambar nomidan aytilgan to‘qima so‘zlar ko‘p uchraydi. Ularda Arabistondan uzoqdagi fath qilinishi lozim bo‘lgan va hatto Payg‘ambar davrida hali asos solinmagan shaharlar haqida so‘z boradi. Ilk islom davrida vujudga kelgan xorijiy, murji’iy, qadariy, jahmiy kabi oqim va guruhlar haqida gapiriladi. Umaviylar (661–750) va Abbosiylarning (749–1258) benuqson xalifaliklari zikr qilinadi. Bunday hadislarni Payg‘ambardan kelgan deb qabul qilish juda qiyin.

Turli kishilarning hadis to‘qishga bo‘lgan urinishlari hadislarning naqadar katta ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham ixtiroga usta kishilar o‘z g‘oyalarini targ‘ib etish maqsadida undan unumli foydalandilar.

Xuddi shu o‘rinda hadis ilmi taraqqiyotida ayollarning o‘rnini alohida ta’kidlash lozim. Hadislarni rivoyat qilgan roviylar haqida xabar beruvchi ilm ilm ar-rijol (kishilar haqidagi ilm) deb atalsada, bu sohada zikr etilgan hadis rivoyatchilari orasida ko‘plab ayollar uchraydi.

Hadislarni tanqidiy o‘rganish bo‘yicha tez orada olti to‘plamda uchragan bir qator maxsus terminlar guruhi vujudga keldi. Imom Termiziy bu sohada salmoqli ishni amalga oshirdi. U faqatgina hadislarni to‘plash bilangina cheklanib qolmasdan, ularni tahliliga ham alohida bo‘lim ajratdi. Imom Termiziy birinchilardan bo‘lib hadislarni sahih, hasan va zaif guruhlarga ajratgan olimdir. Vaqt o‘tishi bilan hadis ilmidagi terminlar taraqqiy etib bordi va bu sohada umumiy qabul qilingan shaklga keldi.

Mustaqillikdan keyin vatanimizning ilmiy, madaniy, ma’naviy va diniy tarixini chuqur tadqiq etishga keng yo‘l ochilganidan so‘ng mamlakatimizda hadislarni o‘rganish bo‘yicha talaygina ishlar amalga oshirildi. «Axloq-odobga oid hadis namunalari», «al-Adab al-mufrad», «Ming bir hadis», IV jilddan iborat «Hadis» nomli «al-Jomi’ as-sahih»ning tarjimasi hadis to‘plamlari sifatida

nashr etildi. Yurtimiz tadqiqotchi-olimlari tomonidan Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi bir qator muhaddislar hayoti, ilmiy faoliyatlarini yoritib berish yo'lida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublika Vazirlar Mahkamasining buyuk muhaddis Imom Buxoriy ilmiy-diniy merosining xalqimiz ma'naviy ruhiy hayotidagi beqiyos o'rnini hisobga olib, jamiyatning barkamol kishilarini tarbiyalashda undan oqilona foydalanishga shart-sharoit yaratish maqsadida 1997-yil 29-aprelida «1998-yilda Imom Buxoriy tavalludining hijriy qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini mamlakatimizda keng nishonlanishi haqida» qaror qabul qildi. Bu qaror asosida buyuk muhaddis yubiley to'yi butun mamlakatimiz miqyosida nishonlandi.

**?** **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Islomdan avvalgi davr qanday nomlanadi?
2. Muhammad payg'ambar qachon va qayerda dunyoga keldi?
3. Islom dinining asosiy manbalari haqida gapirib bering.
4. Islom dinining asosiy ta'limotlari nimalardan iborat?
5. Hadis nima? Qanday hadis to'plamlarini bilasiz?

## 8-§. ISLOMDAGI OQIMLAR: XORIJIYLAR VA ZAMONAVIY KO‘RINISHDAGI OQIMLAR

Payg‘ambar alayhissalom vafotlaridan so‘ng musulmonlar orasida ixtiloflar yuzaga keldi. Ayniqsa, uchinchi xalifa Usmon (r.a.) davrida ular kuchayib, natijada xalifaning o‘ldirilishiga olib keldi. To‘rtinchi xalifa Ali (r.a.) davrida ham bunday fitnalar davom etdi. Natijada bir necha yangi oqimlar paydo bo‘ldi.

Xorijiylar (arab. – ajralib chiqqan, isyonchi) – islom tarixidagi birinchi ajralib chiqqan diniy – siyosiy guruh. Ali Siffin jangida betaraf tomon hukmiga rozi bo‘lganiga norozilik sifatida «faqat Alloh hukm chiqarishi mumkin», deya uning askarini 12 ming kishi tark etdi. Ular Kufadan uncha uzoq bo‘lmagan Harura degan joyga ketdilar, shu boisdan dastlab «Haruriylar» deb ataldilar. Keyinchalik «qonuniy» hokimga qarshi kurash olib borgan har qanday toifaga «xavorij» nomi berildi.

Betaraf hukm chiqarilguniga qadar Ali butun kuchini xorijiylarga qarshi tashladi: 12 ming askardan 4 minggi qirib tashlandi, 4 minggi taslim bo‘ldi, qolgan 4 minggi xalifalik bo‘ylab tarqab ketdi. Ular xalifalikka da’vogar barcha shaxslarni o‘ldirishga qaror qilib, yakka terror uslubini qo‘lladilar. 661-yili Ali qatl qilingach, xorijiylar Muoviyaga qarshi kurashdilar.

VII asrning ikkinchi yarmida xorijiylar orasida rahbarlarining ismi bilan ma’lum bo‘lgan bir necha firqalar paydo bo‘ldi – azraqiylar, ibodiylar, sufriylar, najdatiylar va hokazo. Iroq va Erondan tashqari xorijiylar Arabiston yarim oroli (Yamoma, Hadramavt, Yaman) va Shimoliy Afrikada keng faoliyat olib bordilar. Jazoir, Liviya va Ummonda ibodiylar

jamoalari hozirgacha saqlanib qolgan. Dastlabki davrlardayoq na harbiy-siyosiy va na diniy masalalarda xorijiylar orasida yakdillik bo‘lmagan. Turli davrlarda va xalifalikning turli o‘lkalarida faoliyat olib borgan 20 dan ortiq xorijiy toifalar zikr etiladi.

E’tiqod masalasida xorijiylar barcha «gunoh kabira» sodir etganlarni kofirga chiqarardilar va ularga qarshi «jihod» olib borish kerak, deb hisoblardilar. Bu borada, ayniqsa, azraqiylar keskin mavqeni egalladilar. Ularning boshlig‘i Nofi ibn al-Azraq o‘z jamoasidan boshqa barcha musulmonlarni kofirga chiqarib qo‘ygandi. Ijtimoiy sohada go‘yo tenglik tamoyillari, davlat boshqaruvida adolat uchun da’vat qilgan bo‘lsa-da, ularning o‘ta fanatizm va ayovsizlikka asoslangan kurash usullari xorijiylik harakatining ijtimoiy bazasini zaiflashtirdi va oxir-oqibatda mag‘lubiyatga uchratdi.

Islomning mohiyatiga butunlay zid bo‘lgan yuqoridagi kabi g‘oyalar va amaliyot shakllari keyingi davrlarda ham rivoj topganini aytish joiz. Ahmad ibn Taymiyaning (1263–1328) islom bayrog‘i ostida paydo bo‘lgan ekstremistik g‘oyalarni o‘ziga xos tarzda rivojlantirgan. Ibn Taymiyaning turli aqidaviy masalalarda ash’ariylik va moturidiylikka zid fikrlari keyinchalik turli mutaassib guruh va harakatlar yetakchilari mafkurasiga asos bo‘lib xizmat qildi. XVIII asrning birinchi yarmida Muhammad Abdul Vahhob Markaziy Arabistonda islom dinini «asl holatiga qaytarish» bayrog‘i ostida «salafiylik» ta’limotini yaratdi.

Islomda «salaf» (arabcha – «ajdodlar», «avval yashab o‘tganlar») deganda, hadislarga ko‘ra, Muhammad Payg‘ambar alayhissalom zamonida hamda undan keyingi ikki davrda yashagan musulmonlar tushuniladi. Shunga ko‘ra, islom ulamolari ilk musulmonlarni «salaf solih», ya’ni «solih ajdodlar» deb hisoblashda yakdildirlar. Ulardan keyingi davrlarda yashagan musulmonlarga nisbatan «salaf» yoki «salafiy»lar tushunchalarini ishlatish mumkin emas.

Biroq, so‘nggi yillarda «salaf solihlarga ergashish» shiorini niqob qilib olgan va musulmon jamiyatlarini ilk islom davri holatiga qaytarishni targ‘ib qiluvchi mutaassib, soxta salafiylar paydo bo‘lganini alohida qayd etish lozim.

«Soxta salafiylik» g‘oyalari XIX asrning ikkinchi yarmidan o‘z oldiga xalifalikka asoslangan islom davlatini barpo etish vazifasini qo‘ygan «islohotchilik», «panislomizm» niqobi ostida yangidan jonlandi. Bu o‘z navbatida «al-Ixvon al-muslimun», «al-Jihod al-islomiy», «Shabab Muhammad», «at-Takfir val-hijra» kabi o‘ta radikal ekstremistik diniy-siyosiy tashkilot va oqimlarning vujudga kelishiga yo‘l ochib berdi.

Hozirda soxta salafiylik g‘oyalari ostida asosan Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida faoliyat olib boradigan harakatlar jamiyatdagi e’tiqodiy birlik, barqarorlik va taraqqiyot uchun real tahdidga aylanganini alohida ta’kidlash zarur.

«Soxta salafiy»larning jamiyatni «musulmonlar» va «dinsizlar»ga bo‘lishi, boshqa dindagilarni «dushman» deb e’lon qilishi e’tiqodiy birlik va konfessiyalararo hamkorlikka real tahdid hisoblanadi. U o‘zining mudhish qiyofasini ham namoyon etmoqda. Chunonchi, 1998-yilning fevralida soxta salafiylik g‘oyalari ostida harakat qiladigan, ko‘proq «al-Qoida» nomi bilan mashhur bo‘lgan «al-Qoida as-sulbah» (arabcha – «Mustahkam baza») tashkiloti boshchiligida «Al-jabha al-islamiyya al-alamiyya li-qital al-yahud vas-salibiyyin» (arabcha – «Yahudiy va Salbchilarga qarshi kurashish xalqaro islom fronti») tuzilmasi tashkil topdi. Ushbu uyushma nomining o‘zi ham diniy ayirmachilikni keltirib chiqarish soxta salafiylarning asosiy maqsadiga aylanganidan dalolat beradi.

2000-yil Jakarta (Indoneziya)dagi cherkovda, 1998-yilda Keniya va Tanzaniya davlatlaridagi AQSH, 2004-yil iyulida Toshkent shahridagi AQSH va Isroil elchixonalari binolari hamda 2008-yil noyabrida Mumbay (Hindiston)dagi «Yahudiylar

markazi»da sodir etilgan portlatishlar soxta salafiylarning o‘zga din vakillariga nisbatan shafqatsiz uslublardagi harakatlariga misol bo‘la oladi.

Soxta salafiylar o‘z g‘oyalarini yoyishda yashirin «hujralar» tizimi faoliyatini kuchaytirish, unda asosan yoshlarni o‘qitish va ularga «xalifalik», «jihod», «shahidlik» g‘oyalarini singdirish orqali yangi «jamoat»larni tuzishga asosiy e’tiborini qaratmoqda.

**Diniy ekstremizmning mintaqada namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari.** Bugungi kunda siyosiy hokimiyatga intilayotgan, diniy shiorlarni niqob qilib olgan ba’zi guruhlar Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Mutaassiblikka asoslangan nazariy qarashlardan terrorchilik amaliyotiga o‘tish yuqorida qayd etilgan soxta salafiylikning o‘ziga xos xususiyatlaridan sanaladi. Mintaqada hozirda mavjud ayrim diniy-ekstremistik guruh va tashkilotlar bu yo‘lni allaqachon bosib o‘tganini ta’kidlash zarur. Jumladan, 1996-yilda tashkil topgan «Turkiston islom harakati» terrorchi tashkiloti faoliyatida yuqoridagi xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Harakat a’zolari 1990-yillar boshida «Islom lashkarlari» (Namangan), «Adolat uyushmasi» (Namangan), «O‘zbekiston Islom uyg‘onish partiyasi», «Odamiylik va insonparvarlik» (Qo‘qon) va boshqa ekstremistik tashkilotlari faollari bo‘lishgan. Bugungi kunda «Turkiston islom harakati» guruhi qurolli va jangovar harakatlarni olib borishga tayyor terrorchi tashkilot sifatida shakllanib ulgurganiga yetarlicha asos va dalillar mavjud.

Ekstremistlarning 2005-yil may oyida Andijonda amalga oshirgan terrorchilik harakatlari, 2006-yilning may oyida Qirg‘izistonning Botkent tumani va Tojikistonning Isfara tumanida chegarachilarga, avgust-sentabr oylarida Qirg‘izistonning O‘sh va Jalolobod viloyatlarida huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlariga qurolli hujum uyushtirishlari oqibatida begunoh odamlar halok bo‘ldi, xalq osoyishtaligi buzildi.

Markaziy Osiyoga diniy ekstremizmning kirib kelishida Afg'oniston darvoza vazifasini o'tadi. Diniy-ekstremistik guruhlarning bosh maqsadi – «xalifalik» davlati tuzish shiori ostida siyosiy hokimiyatni egallashdir. XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida O'zbekistonda «Turkiston islom harakati», «Hizbut-tahrir», «Akromiylar», «Nurchilar» va «Tablig'chilar» kabi diniy ekstremistik va terrorchi guruhlarning faoliyati kuzatildi.

**Diniy ekstremistik oqimlarning g'arazli maqsadlari.** Diniy ekstremistik tashkilotlarning asosiy maqsad va faoliyat uslublari quyidagilardan iborat:

– aholiga hanafiylik mazhabiga zid mutaassib va siyosiylashtirilgan diniy g'oyalarni singdirish. Buning uchun aholi ichida aqidaparastlik g'oyalari va «Hizbut-tahrir» guruhining ta'limotlari da'vat qilinadi, «jihod», «shahidlik» g'oyalari targ'ib qilingan adabiyot, video va audio tasmalar tarqatiladi, yashirin «hujralar» tashkil qilinib, o'qiyotganlarga mutaassib tushunchalar singdiriladi;

– ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, dinlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish. Buning uchun aholi ichida va xorijiy axborot vositalarida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy holat, jumladan, diniy siyosat, imomlarning faoliyati bo'yicha ig'vo ma'lumotlar tarqatiladi, shuningdek, yashirin guruhlar tuzilib, ular tomonidan aqidaparastlik ruhidagi diniy tashviqot yuritiladi, terrorchilik amaliyotlari amalga oshiriladi;

– xorijda faoliyat yuritayotgan diniy-ekstremistik tashkilotlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish, ular yordamida jangarilar tayyorlash.

Keyingi yillarda diniy-ekstremistik tashkilotlar faoliyati, terrorchilik amaliyotida o'z-o'zini portlatish usulini qo'llash harakatlariga ayollarning ko'proq jalb qilinishi kuzatilmoqda.

Mintaqamizda bir qator diniy ekstremistik tashkilotlar faoliyat olib borishga intilmoqda. 1996-yilda tashkil topgan

*«O‘zbekiston islom harakati»* (hoz. «Turkiston islom harakati») guruhining maqsadi – qurol kuchi bilan Markaziy Osiyo, Kavkaz va Rossiya Federatsiyasining Volgabo‘yi respublikalarini birlashtiruvchi «Buyuk Islom amirligi»ni tiklash. Tarkibiga 1992–1993-yillarda faoliyati tugatilgan *«Adolat»* harakati kabi qator diniy-ekstremistik tashkilotlarning sobiq faollari kirgan, O‘IH a’zolari Birlashgan tojik muxolafati (BTM) tarafida fuqarolar urushida ishtirok etdi. Nizo hal qilinishi jarayonida O‘IH dala qo‘mondonlari Tojikiston hukumati va BTM o‘rtasida imzolagan bitim shartlarini bajarishdan bosh tortdilar va ular Tojikistonni tark etib, Afg‘oniston hududiga o‘tib ketdilar.

*«Hizbut-tahrir al-islomiy»* – («Islom ozodlik partiyasi») tashkiloti demokratiya, konstitutsiya, saylovni inkor etadi, siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritish hamda xalifalikka asoslangan tuzumni o‘rnatishni maqsad qilib belgilagan. «Hizbut-tahrir» tashkiloti asosan yashirin «xalqalar» tuzish, og‘zaki va varaqa tarqatish orqali ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qiladi. Shu bilan birga, guruh terrorchi guruhlar uchun «zombilashtirilgan» jangarilar yetkazib berish bilan ham shug‘ullanadi. Tashkilot o‘z maqsadlarni amalga oshirish uchun 1989-yildan boshlab «al-Va’y» («Ong») nomli oylik nashrini turli tillardagi tarjimasi bilan davomiy chiqarib kelmoqda.

Ayni paytda, «Hizbut-tahrir» kurashni uch bosqichda olib borishni ko‘zlaydi. Ulardan birinchisi «tasqif» – tushuntirish ishlari bosqichidir. Unda hali ongi to‘liq shakllanmagan, fikri zaif, ta’sirga beriluvchan yoshlarni tuzoqga ilintirish, huquq-tartibot va hokimiyat idoralaridagi mas’ul shaxslarni o‘z tarafiga og‘dirishdek maqsadlarga erishish ko‘zlanadi.

Ikkinchi – «tafoul» – birgalikda harakat qilish bosqichida fikriy kurash orqali «Ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi va kelajak masalalarini idrok qilishga erishishi» yo‘lida fikriy inqilobga yetishish nazarda tutiladi.

Uchinchi – «inqilob» – to‘ntarish bosqichida esa, tarbiyalangan ummat orqali hokimiyatni qo‘lga kiritish mo‘ljallanadi.

Yuqoridagilardan «Hizbut-tahrir» ham boshqa diniy ekstremistik tashkilotlar kabi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darib tashlab, hokimiyat tepasiga kelishga intilishi, yagona xalifalik davlatini qurish, uning asosiy va so‘nggi maqsadi ekani ochiq-oydin ko‘rinib turibdi. Shuning uchun ham, «Hizbut-tahrir»ning rasmiy faoliyat ko‘rsatishi deyarli barcha musulmon mamlakatlari, jumladan, arab davlatlarida rasman taqiqlangan.

Respublikamizda faoliyat yuritishga intilayotgan boshqa oqimlarning o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlari ham yuqoridagidan deyarli farq qilmaydi. Masalan, «jihodchilar»ning maqsadi diniy holatni payg‘ambar davridagi ko‘rinishga qaytarish, ya’ni, din, musulmonchilik o‘sha davrda qay holatda bo‘lgan bo‘lsa, bugun ham shunday qolishi kerak, degan da’voda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday tuzum bugun qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini «Tolibon» harakati Afg‘onistonda olib borgan siyosati va uning oqibatlari ham yaqqol ko‘rsatib turibdi.

*«Akromiylar»* guruhi asoschisi – Akrom Yo‘ldoshev «jihodchilar»ning Andijondagi g‘oyaviy rahnamosi Abduvali Mirzayev shogirdlaridan bo‘lib, 1990-yillarda «Hizbut-tahrir»ning mahalliy rahbari Abdurashid Qosimovdan saboq olgan.

Keyinchalik A. Yo‘ldoshev «hizbut-tahrir»chilar bilan kelisha olmay, ajralib chiqqan hamda «Islom nizomi», «Izzat va sharaf sari» va «Xalifalik» nomli adabiyotlardan foydalangan holda 12 darsdan iborat «Iymonga yo‘l» risolasi va harakat dasturini ishlab chiqqan.

Shu bilan birga, «Akromiylar» har bir tuzilma uchun, birinchi navbatda, moliyaviy asos yaratilishi lozimligini ta’kidlab, o‘z harakatlarini rivojlantirish maqsadida «birodarlar» daromadining 20 foizidan tushadigan mablag‘lar jamg‘armasini tashkil etganlar. Jamg‘armaning asosiy qismini yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va a’zolar safini kengaytirishga sarflaganlar.

«Akromiylar» yangi a'zolarga erta-yu kech mavjud tuzumning kamchiliklari, o'zlarining go'yoki siyosatdan yiroq, kichik bo'lsa-da, haqiqiy «birodarlar jamoasi» muhitining «go'zal» jihatlarini uqtirib borish orqali ruhiy ta'sir o'tkazishga harakat qilganlar.

*«Tablig'chilar»* dunyoviylikni inkor etuvchi, siyosiylashtirilgan va mutaassib diniy mafkurani tashviqot qilish va uning tarafdorlarini ko'paytirish orqali o'z ta'sirini butun dunyoga yoyishni maqsad qiladi. Markazi Bangladeshda joylashgan. Yirik filiallari Pokiston, Hindiston, Misr, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlarga joylashgan. «Tablig'chilar» har yili 40 kun mobaynida uyma-uy yurib tashviqot ishlarini amalga oshiradi. Ular ilgari surayotgan g'oyalari hanafiylik mazhabiga zid bo'lib, aqidaparast guruhlarning g'oyalari singari dinda mutaassiblikni targ'ib qiladi.

*«Nurchilar»* – asoschisi turkiyalik Sayyid Nursiy bo'lgan. Mazkur tashkilotning asl maqsadi – mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o'ta diniy, mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat.

Oqim vakillari o'zlariga yangi a'zoni jalb etishda birinchi navbatda, «Nurchilar» jamoasi faoliyati siyosatdan uzoq degan fikrni singdirishga harakat qiladilar. Aslida bu bir niqob bo'lib, ularning faoliyati negizida aynan siyosatga aralashuv yotadi. Tashkilotning strategiyasi uzoq davrga mo'ljallangan bo'lib, asta-sekinlik bilan yoshlarga mutaassib islomiy g'oyalarni singdirib borish va kelajakda ularni rahbar lavozimlarga tayinlanishi orqali «Nurchilar» jamoasiga moyil shaxslarni hokimiyat tepasiga chiqarishga asoslangan.

Bu oqimning yurtimizga kirib kelishi 1992-yildan boshlab kuzatilgan. Dastlab oqim g'oyalari turkiyalik ekstremistlarning moddiy va ma'naviy ko'magida yetkazilgan. Ayni damda ular maxfiy tarzda harakat olib borishga urinmoqdalar.

«Nurchilar» harakati saflarining asosini yoshlar tashkil etadi, harakat tomonidan chop etilgan da'vat varaqalarini tarqatish

yo‘li bilan ularning saflari kengayishiga sabab bo‘lgan. Mazkur oqim a’zolari Hindiston, Pokiston va Malayziya mamlakatlarida ham paydo bo‘lgan. Shuningdek, Amerikada tahsil oluvchi turk talabalari orasida «Nurchilar» da’vatiga ergashuvchilar borligi sababli bu harakat AQSH hududida ham keng tarqalgan.

«Hizbut-tahrir», «Akromiylar», «Tablig‘chilar», «Nurchilar» kabi adashgan firqalar turli tashviqotlar olib borishlariga qaramay, xalqimiz orasida e’tibor topa olgani yo‘q. Chunki, Payg‘ambarimiz «Mening ummatim zalolatda birlashmas», degan hikmatni bekorga aytmaganlar. O‘n to‘rt asrdan buyon e’tiqodida mustahkam bo‘lgan xalqni noto‘g‘ri yo‘lga boshlash samarasiz kechishi turgan gap. Din-diyonatimizga shunchalar imkoniyatlar berilib turgan bir paytda bu kabi toifalar dinga faqat zarar keltirmoqda.

Shunday qilib, yuqorida qayd etilgan diniy ekstremistik guruhlar Islom dinini «asl holatiga qaytarish» da’vati ostida bosqinchilik, talonchilik va begunoh insonlarning qonini to‘kish kabi terrorchilik ishlarini amalga oshirmoqda. Mazkur guruhlarning g‘oyalari jamiyat hayotining ajralmas bo‘lagi sanalgan ma’naviy va madaniy taraqqiyotga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

?

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Islom olamida ilk ajralish qachon yuz bergan?
2. Shialik to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. Xorijiylar qanday yuzaga kelgan va ularning harakatlari nimalardan iborat bo‘lgan?
4. Islom niqobidagi qanday oqim va firqalarni bilasiz?
5. Hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan zamonaviy ko‘rinishdagi oqimlarning asl maqsadlari nimalardan iborat?
6. Zamonaviy ko‘rinishdagi oqimlarning O‘zbekistondagi faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

## 9-§.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA VIJDON ERKINLIGI

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda doimo muhim va murakkab masala bo‘lib kelgan. Chunki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi.

Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog‘lom va barkamolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va bajaradigan vazifalari g‘oyat muhimdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon yerkinligi o‘z ifodasini topgan. 1948-yilda qabul qilingan inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din yerkinligi huquqiga ega.

Mustaqillik, yangilanish jarayoni hamma sohalar kabi vijdon erkinligi, davlat va din, dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar o‘rtasidagi munosabatlar sohasini ham o‘z ichiga oldi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida asrlar osha qaror topgan vijdon erkinligiga yuksak va samimiy hurmat ifodalangan. 1992-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 31-moddasida har bir fuqaro uchun vijdon erkinligi huquqi kafolatlanadi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, uning asosida, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili yotishini ta’kidlash zarur. Bu haqda

Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: *«Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi»*[1].

Mazkur moddada muhim ahamiyatga ega qoidalar mustahkam qo'yilgan. Birinchidan, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib borayotgani buning amaliy ifodasidir. Ikkinchidan, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

Shu bilan birga, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, bu dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ta'kidlash zarur. Zero, biror dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o'z mavqeiga ega bo'ladi.

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din, birinchi o'rinda ma'naviy-axloqiy jihatni o'z ichiga oladi.

Davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalovchi yana bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

Dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatida dindorlarning huquqiy maqomi va davlat tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda diniy konfessiyalar haqidagi qonunlarning hayotga tatbiq etilishidek ikki muhim jihat ham bor.

Har qanday dinga e'tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo'yilishini ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi:

*«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod*

---

[1] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2003. – B. 13.

*qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi»*[1].

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o'z ifodasini topgan:

– dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;

– diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;

– diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;

– ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati;

– dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish[2].

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinning siyosatga aralashmasligi.

Zero, har qanday din, birinchi o'rinda ma'naviy-axloqiy jihatni o'z ichiga oladi.

Hech qaysi din o'zida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlarining barchasini qamrab olishga da'vogarlik qilmaydi. Aks holda u din bo'lmay qoladi. Xuddi shu asosda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida diniy-siyosiy partiyalar tuzish taqiqlangan[3].

O'zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga

---

[1] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2003. – B. 8.

[2] *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997. – B. 43–44.

[3] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2003. – B. 12.

oshiriladi. Chunki, konstitutsiyaviy dunyoviy-ma’rifiy davlatda vijdon erkinligi qonuni diniy e’tiqodi va dunyoqarashidan qat’i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyiliga rioya qiladi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun. Ushbu qonun 1991-yilda qabul qilingan bo‘lib, 1993-yilda kiritilgan ba’zi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bilan 1998-yilga qadar amalda bo‘lib keldi.

O‘zbekistonda vijdon erkinligining huquqiy asoslari Bosh Qomusimizning quyidagi moddalarida aks etgan:

18-modda. O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

31-modda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

57-modda. Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

Davr talablari asosida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunni tubdan o‘zgartirish zarurati tug‘ildi va 1998-yil 1-mayda u yangi tahrirda qabul qilindi.

Kiritilgan o‘zgartirishlar nimalardan iborat edi?

Jumladan, Qonunning 8-moddasiga asosan, diniy tashkilotlar 18 yoshga to‘lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan 100 nafardan kam bo‘lmagan O‘zbekiston fuqarolari tashabbusi bilan tuzilishi, muayyan konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va yo‘naltirib borish uchun ularning respublika bo‘yicha yagona markaziy boshqaruv organi tuzilishi mumkinligi haqidagi qoida mustahkamlab qo‘yildi.

Shuningdek, tegishli diniy ma’lumotga ega bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolari diniy tashkilotlarning rahbarlari etib saylanishlari, bunday lavozimga xorijiy fuqarolar nomzodlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan kelishib olinishi belgilab qo‘yildi[1].

Qonunning 9-moddasiga muvofiq diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o‘zlariga zarur bo‘lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o‘quv yurtlari tuzishga haqlidir.

Qonunning 5-moddasida bir konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi.

Ushbu moddaning mazmuni va ahamiyatini tushunish uchun missionerlik va prozelitizm nima ekanini bilib olish kerak. Missionerlik – bu boshqa diniy e’tiqodga ega bo‘lgan aholini o‘z diniga og‘dirib olishlik bo‘yicha diniy tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat. Prozelit – bu o‘z dinidan kechib, boshqa dinga o‘tgan odam.

Qonunning diniy adabiyotlarga tegishli bo‘lgan 19-moddasi ham bir qadar o‘zgartirildi: «Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga mo‘ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarni O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir». Mazkur qoida O‘zbekiston hududiga diniy adabiyotlarning olib kirilishini tartibga soladi.

---

[1] Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida (yangi tahriri) O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: 1998. – B. 8.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Uning hududida 16 ta diniy konfessiya vakillari istiqomat qiladilar. Yuqoridagi qonunda keltirilganidek, ular Konstitutsiya oldida huquq va majburiyat yuzasidan tengdirlar. Konstitutsiyaning 12-moddasida ta'kidlanishicha, hech qanday mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas. Shunga ko'ra, hech qanday konfessiya boshqalaridan ustun deb qaralishi yoki ularga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin emas.

**?** **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Vijdon va e'tiqod erkinligi deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekiston Respublikasida davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning qanday huquqiy asoslari mavjud?
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligiga oid qanday huquqiy asoslar mavjud?
4. Davlatning dinga munosabatini belgilab beruvchi asosiy tamoyillarning mohiyati nimada?
5. O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?

## 10-§. DINIY BAG'RIKENGLIKNING MAZMUN-MOHIYATI VA AHAMIYATI

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 1995-yil – Xalqaro bag'rikenglik yili deb e'lon qilindi va uni amalga oshirilishida muvofiqlashtiruvchi tashkilot – YUNESKO deb topilgan. Shu yili YUNESKO Bosh konferensiyasi «Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi»ni qabul qildi.

«Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi»da bag'rikenglik tushunchasiga aniqlik kiritilib, turli shart-sharoitlarda davlat va shaxs munosabatlari, huquq va vazifalari belgilab berildi.

«Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi»da bag'rikenglik tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: «Bag'rikenglik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik – turli tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik – tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir».

«Bag'rikenglik» tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, filosofiya, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalarda keng istifoda etiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Lotincha tolerare, ya'ni «chidamoq», «sabr qilmoq» ma'nosini anglatgan bu so'z, asosan bir insonning boshqa inson dunyoqarashiga toqat qilishini bildirsa-da, etimologik tahlil uning tom ma'nosini doim ham ochib beravermaydi[1].

---

[1] Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili. B. 87–88.

Shu o'rinda YUNESKO «Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi»da «tolerant» ya'ni «bag'rikenglik» tushunchasiga berilgan ta'riflarni keltirib o'tmoqchimiz:

1.2. Bag'rikenglik – yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag'rikenglik – eng avvalo, insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Hech qanday vaziyatda ham bag'rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

1.3. Bag'rikenglik – inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko'maklashish majburiyatidir. Bag'rikenglik – aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

*«Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi».*

***Islom Karimov***

O'zbekistondagi dinlararo bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlik o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega. Yurtimiz hududi ming yillar davomida Buyuk Ipak yo'lining muhim qismi bo'lib kelgan. Bu yerda savdo-sotiq, ilm-fan, madaniyat markazlari vujudga kelgan. Ularning rivojlanishida xalqimizga xos bag'rikenglik, mehmondo'stlik, o'zga madaniyat vakillariga hurmat tuyg'ulari asosiy omillardan bo'lgan. Shuning uchun o'lkamizda turli xalqlar urf-odat va an'analari o'zaro uyg'unlikda rivojlanib borgan.

O'rta Osiyo mintaqasida, xususan, O'zbekiston azaldan turli urf-odat, madaniyat, til, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi bir-biriga o'xshash bo'lmagan bir necha xalqlar yashagan o'lkadir. O'zbekistonning jo'g'rofiy nuqtayi

nazardan muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani, ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar qilgani yerli xalqning diniy va madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Aynan shu omillar xalqimizning nafaqat ma’naviy-ma’rifiy, balki diniy bag‘rikengligining ma’naviy asosini tashkil qiladi.

> *«Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov va sinagogalarning mavjud bo‘lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o‘z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig‘idir.*
>
> *Tariximizning eng murakkab, og‘ir davrlarida ham ular o‘rtasida diniy asosda mojarolar bo‘lmagani xalqimizning diniy bag‘rikenglik borasida katta tajriba to‘plaganidan dalolat beradi».*
>
> ***Islom Karimov***

Darhaqiqat, O‘zbekiston zaminida qadim zamondan islom bilan boshqa dinlar, madaniyatlar yonma-yon yashab, rivojlanib va bu jamiyatning ma’naviy yuksalishiga muayyan hissa qo‘shdi.

Xalqimizga azaldan xos xislat – bag‘rikenglik bir zumda paydo bo‘lgan emas, u biz uchun an’anaviydir. O‘zbekistonning diniy tarixiga qisqacha nazar tashlasak, hozirgi O‘zbekiston hududi insonlarda ilk diniy tasavvurlar va aqidalar paydo bo‘lgan eng qadimgi o‘lkalardan biri ekaniga guvoh bo‘lamiz. Tosh asrining o‘rtalarida ajdodlarimiz orasida turli hayvonlar va Quyoshga topinish, keyinroq fetishizm, animizm, afsungarlik (magiya) tarqaldi.

Zardushtiylik zaminida Markaziy Osiyo sharoitidagi hayot tarzi o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvadorlik o‘rtasidagi ziddiyatlar yotadi. U keyinchalik monoteistik g‘oyalar rivojiga shubhasiz katta hissa qo‘shgan. Chunki, «Zardusht odamlarni Axura Mazdaga sajda qilishga chaqirib, insoniyat ma’naviyati tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Birinchidan, u ko‘pxudolikka (politeizm) qarama-qarshi yakkaxudolik (monoteizm)ga, ya’ni, diniy e’tiqodning yuqori bosqichiga qadam qo‘ygan edi. Ikkinchidan, ilgari odamlar xudolar qahridan, ularning dahshatli vayron qiluvchi qudratlari oldida ojiz, qo‘rquv dahshati ostida sig‘inishgan bo‘lsa, endilikda esa Zardusht odamlarga qalbi kishilarga mehr-shafqat bilan to‘lgan, yaxshilik

tomon undovchi, ularning o'limidan keyin mangu farovon hayot bilan ta'minlay oladigan tangri Axura Mazdaga ibodat qilishga chaqirdi».

O'z navbatida xalqimizning o'sha qadim davrlardagi mehr-oqibat, odob-axloq, bag'rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarini zardushtiylik dini manbasi – «Avesto» bitiklarida ham ko'rish mumkin.

Buddaviylikning Hindistondan Markaziy Osiyoga kirib kelishini odatda kushonlarning hukmronligi bilan bog'laydilar. Imperator Kanishka (I asrning oxiri – II asrning boshlari) davrida Kushon podshohligi ushbu dinning markazlaridan biriga aylangan. Jumladan, Kanishka zarb qildirgan tangalarda boshqa ilohlar bilan bir qatorda Budda tasviri ham uchraydi. Xitoylik Syuan'-Szyan' bergan xabarga ko'ra, VII asrning boshlarida Termizda 10 ta buddaviylik xonaqohi (sangarama) va mingta rohib faoliyat olib borgan.

XX asrning boshlarida Amudaryoning o'ng qirg'og'ida buddaviylikka mansub ko'plab qimmatbaho metallar – oltin yoki kumushdan yasalgan ko'p sonli tangalar, haykaltaroshlikka oid mayda tasvirlar va boshqa yodgorliklar topilgan.

Xalqimizda bag'rikenglik va murosaning ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Mamlakatimiz hududida faoliyat ko'rsatgan turli dinlar madaniyati bo'yicha izlanishlar olib borayotgan yapon olimi Kato fikriga ko'ra Surxondaryo vohasida aniqlagan noyob Budda madaniyati yodgorliklari, yahudiy yodgorliklari, Buxoroda nasroniylarning ziyoratgohlari yurtimizdagi islom obidalari bilan bir qatorda turishi hech kimni ajablantirmaydi.

Jahondagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Din odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Aksariyat dinlar bu dunyoni foniy, o'tkinchi deb hisoblaydilar. Ular insonning yashashdan asl maqsadi – bu dunyoda xayrli, savob ishlar qilib, boqiy dunyo sinovlariga tayyorgarlik ko'rish degan g'oyani targ'ib etadi.

Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o‘rtasidagi siyosiy-huquqiy, axloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o‘rnatish o‘z aksini topgan.

Mamlakatimizda yahudiylik dini vakillarining istiqomat qilishi xalqimizga xos o‘zbekona bag‘rikenglik, etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshlilikning yana bir yuksak namunasi bo‘lsa, ajab emas. Xususan, yahudiylar jamoasining vakillaridan biri R.Bensman shu haqda to‘xtalar ekan, Buxoroda dastlabki sinagoga VIII asrdayoq qurilgani, boshqa din vakillari bilan bir qatorda o‘z dinlariga erkin e’tiqod qilish uchun o‘sha paytda ham sharoit yaratib berilganini ta’kidlab «O‘rta asr Yevropasi va Vizantiya imperiyasida quvg‘in qilingan yahudiylik Markaziy Osiyoda boshqa dinlar bilan bir xil huquqqa ega edi», – deb yozadi.

Shuningdek, bu o‘rinda Arxiyepiskop Vladimirning ham fikrlari o‘rinlidir: «XIX asrda Rossiyaning markaziy mintaqalaridan majburlab ko‘chirilgan krestyanlar nochor ahvolga tushib qolganda mahalliy aholi ularga har tomonlama yordam ko‘rsatgan. O‘sha davr voqealarini ko‘rgan ieromonax Xariton «mahalliy aholi nochor ko‘chmanchilarga rahmdillik bilan munosabatda bo‘ldilar, busiz ularning ko‘pchiligi ochlik va muhtojlikdan o‘lib ketgan bo‘lar edilar», – deb guvohlik bergan».

Turkiston yerlariga kirib kelgan Rus pravoslav ruhoniylari asosiy e’tiborni missionerlik faoliyatiga emas, balki o‘z jamoalarining diniy ehtiyojlarini qondirishga qaratganlar. Pravoslavlar cherkov qurganlarida mahalliy musulmon aholi ham yordam ko‘rsatgani ma’lum. Masalan, Chirchiq shahridagi «Muqaddas Georgiy» ibodatxonasi qurilishiga mahalliy imom va savdogarlar moddiy ehson qilganlar. Bu holat ushbu dinlar vakillari orasidagi o‘zaro hurmat o‘sha davrlardan shakllanganiga dalil bo‘la oladi.

Tarixiy manbalarda O‘zbekistonda diniy va etnik munosabatlar asosida biror marta ham nizo chiqmagani qayd qilingan. Bunday holatni hozirda islom, xristian, yahudiy dinlari

va boshqa konfessiyalarning o‘zaro munosabatlari misolida ham ko‘rish mumkin.

> *«Musulmonlar va xristianlarning O‘zbekiston zaminida birgalikda hamnafas bo‘lib yashashi diniy-ma’naviy totuvlikning nodir timsoli va barcha din vakillariga nisbatan bag‘rikenglikning eng yaxshi namunasi deb hisoblanishiga arzigulikdir».*
>
> ***Islom Karimov***

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo va dinlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirishda o‘ziga xos tajriba orttirildi.

O‘zbekiston hukumati tomonidan diniy bag‘rikenglik siyosati odilona olib borilmoqda. Har qanday ko‘pmillatli va ko‘p dinli davlatda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlik, jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotga mustahkam zamin yaratuvchi, uning istiqbolini belgilab beruvchi omillardan sanaladi.

Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 diniy konfessiya vakillari o‘zaro tinchlik va hamjihatlikda istiqomat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikada qator xalqaro diniy anjumanlar hamda jahon sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan allomalarimiz yubileylari bilan bir qatorda boshqa diniy konfessiya tadbirlari ham xalqaro miqyosda nishonlab kelinmoqda.

Quyida qayd etilayotgan mamlakatimizda diniy bag‘rikenglikning ta’minlanishiga oid amalga oshirilgan ishlar buning tasdig‘i bo‘la oladi:

– 1996-yil 9–12-noyabr kunlari Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasining 125 yilligi munosabati bilan tantanali tadbirlar o‘tkazildi.
– 1996-yil 17-dekabr kuni O‘zbekiston Yevangel-lyuteran jamoasi Markaziy Osiyodagi yagona lyuteran Kirxasining 100 yilligini nishonladi.
– 2001-yil 30-mart kuni O‘zbekiston «Bibliya» (Injil) kitob jamiyati tomonidan amalga oshirilgan «Sulaymonning

hikmatlari kitobi»ning o‘zbekcha tarjimasi taqdimot marosimi o‘tkazildi.

– 2001-yil 25–26-noyabr kunlari Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasining 130 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilish va ilmiy konferensiya o‘tkazildi.
– 2002-yil 30-may kuni Navoiy shahrida Rus Pravoslav cherkovining tantanali ochilish marosimi o‘tkazildi.
– 2002-yilda Rim-katolik cherkovi katoliklikning Markaziy Osiyoda qayta tiklanganligiga 100 yil to‘lishi munosabati bilan bayram tadbirlari tashkil etdi.
– 2003-yil 5-oktabr kuni Samarqand shahrida Arman Apostollik cherkovi qurilganligining 100 yilligiga bag‘ishlangan tantanalar o‘tkazildi.
– 2004-yil 22–23-mart kunlari Fransiyaning Parij shahrida «O‘zbekiston va Fransiyada diniy bag‘rikenglik» va «O‘zbekiston va Fransiya xalqaro munosabatlar tizimida» mavzularida Xalqaro konferensiyalar o‘tkazildi.
– 2004-yil 3–10-oktabr kunlari AQSHning Vashington shahrida R. Nikson markazi tomonidan tashkil etilgan «Davlat va din, konfessiyalararo bag‘rikenglik: O‘zbekiston misolida» mavzusida konferensiya bo‘lib o‘tdi.
– 2007-yil 31-may kuni Buyuk Britaniyaning London shahrida «Uch din forumi» xalqaro tashkiloti tomonidan tashkil etilgan «Konfessiyalararo totuvlikka erishishda O‘zbekiston tajribasi» mavzuidagi seminar uyushtirildi.

Shu bilan birga diniy tashkilotlarning soni ko‘payganini ham ta’kidlab o‘tish kerak. Xususan, 1990-yilda respublikamizda 119 ta diniy tashkilot (89 ta islomiy va 30 ta noislomiy) mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1991-yilda 179 taga (146 ta islomiy va 33 ta noislomiy) yetdi. 2012-yilning dekabriga kelib esa ularning soni 2224 tani (2049 ta islomiy va 175 ta noislomiy) tashkil etdi.

Yurtimizdagi diniy konfessiyalar orasida Rus pravoslav cherkovi, To‘liq injil xristianlari, Injilchi xristian-baptistlar, Yettinchi kun adventistlari, Lyuteranlar, Rim-katolik, Arman apostol, Yangi Apostol, Yahudiy va Bahoiylar diniy jamoalari, Krishnani anglash jamiyati, Budda ibodatxonasi kabi diniy tashkilotlarning mavjudligini qayd etish lozim. Ular qatorida Toshkent islom instituti, 9 ta o‘rta-maxsus islom bilim yurti hamda Pravoslav va Protestant seminariyalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Mustaqillik sharofati tufayli ularning faoliyati tom ma’noda tiklandi va rivoj topmoqda.

**?** **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Bag‘rikenglik tushunchasi va uning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
2. «Bag‘rikenglik Deklaratsiyasi» qachon qabul qilingan?
3. Diniy bag‘rikenglik deganda nimani tushunasiz?
4. O‘zbekiston an’anaviy bag‘rikenglik o‘lkasi ekanini tarixiy misollar yordamida tushuntirib bering?

## TEST SAVOLLARI

1. **Vijdon erkinligi nima?**
   a) kishilarning o‘z milliy diniga e’tiqod qilish huquqi;
   b) fuqarolarning albatta biron-bir jahon diniga e’tiqod qilish zarurligi;
   d) fuqarolarning dinga e’tiqod qilish yoki e’tiqod qilmaslikni o‘zlari mustaqil hal qilish huquqi;
   e) fuqarolarning dinga ishonmasligi va unga qarshi tashviqot olib borish huquqi.

2. **Dinning qanday ildizlari bor?**
   a) genetik, tarixiy, psixologik;
   b) gnoseologik, sotsial, psixologik;
   d) sotsial, biologik, ilohiy;
   e) afsonaviy, falsafiy, psixologik.

3. **Diniy tasavvur nima?**
   a) diniy ishonch asosida kelib chiqadigan u yoki bu dinga e’tiqod qiluvchilarning birlashishi;
   b) g‘ayritabiiy kuchlarga ishonish bo‘yicha qat’iy belgilangan xatti-harakatlarning yig‘indisi;
   d) g‘ayritabiiy kuchlarga ishonch tufayli paydo bo‘lgan g‘oyalar va obrazlarning yig‘indisi;
   e) xudoga, payg‘ambarlarga, farishta va jin-ajinalarga ishonish.

4. **Dinning funksiyalari:**
   a) axloqiy, tarbiyaviy, mafkuraviy;
   b) to‘ldiruvchilik, birlashtiruvchilik, o‘zaro aloqadorlik, qonunlashtiruvchilik;
   d) tinchlik, do‘stlik, tenglik, tabiatni muhofaza qilish;
   e) gnoseologik, antropologik, teologik, psixologik.

5. **Din – bu:**
   a) xalq uchun afyun;
   b) insonning xudo bilan o‘zaro munosabat usuli;
   d) tashqi olam kuchlarining kishi ongida g‘ayritabiiy ifodalanishi:
   e) gnoseologik, antropologik, teologik, psixologik.

6. **Musulmon diniy boshqarmasi rahbari qanday nom bilan ataladi?**
   a) muftiy
   b) so‘fi
   d) muhtasib
   e) imom.

7. **Eng qadimgi din qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**
   a) pravoslavlik;
   b) sintoiylik;
   d) islom;
   e) yahudiylik;

8. **Musulmonlar hijriy yil hisobi qachondan boshlanadi?**
   a) Muhammad payg‘ambarning tug‘ilishidan;
   b) Muhammad alayhissalomning payg‘ambarlik faoliyati boshlanishidan;
   d) Qur’onning paydo bo‘lishidan;
   e) musulmonlarning Yasrib (Madina) ga ko‘chib borishidan.

9. **Jahon dinlari qaysi dinlar?**
   a) buddaviylik, xristianlik, islom;
   b) buddaviylik, yahudiylik, sintoiylik;
   d) xristianlik, islom, protestanlik;
   e) provoslavlik, katoliklik, braxmanlik.

10. **Yaponiyaning milliy dini qaysi din?**
   a) konfutsiylik;
   b) buddaviylik;
   d) sintoiylik;
   e) krishnachilik.

11. **Fetishizm nimani ilohiylashtiradi?**
   a) hayvonlar;
   b) odamlar;
   d) moddiy narsalar;
   e) jonsiz narsalar.

**12. O‘rta Osiyoda qaysi din eng ko‘p tarqalgan?**
a) islom;
b) xristianlik;
d) buddaviylik;
e) zardushtiylik.

**13. Xristianlikning asosiy oqimlari qaysilar?**
a) katoliklik, pravoslavlik, protestantlik;
b) baptizm, pravoslavlik, fetishizm;
d) lyuteranlik, pravoslavlik, katoliklik;
e) yahudiylik, sintoiylik, shomonizm.

**14. Islomning asosiy yo‘nalishlari qaysilar?**
a) so‘fiylik, shialar, ismoiliylar;
b) fundamentalizm va sunniylik;
d) vahhobiylar va sunniylar;
e) sunniylar va shialar.

**15. Talmud qaysi dinning muqaddas kitoblaridan biridir?**
a) buddaviylik;
b) xristianlik;
d) yahudiylik;
e) hinduiylik.

**16. Buddaviylikda dinga ishongan kishining asosiy maqsadi nima?**
a) muqaddas qadamjolarga sig‘inish;
b) rohiblikni qabul qilish;
d) qayta tug‘ilish zanjiridan o‘tish;
e) Nirvanaga erishish.

**17. Konfutsiylikning asoschisi kim?**
a) Pani Gu;
b) Kun Szi;
d) Lao Szi;
e) Shan Di.

**18. Mustaqil cherkovlar nima deb ataladi?**
a) modernistik cherkovlar;
b) avtokefal cherkovlar;
d) ortodoksal cherkovlar;
e) monofizit cherkovlar.

**19. Qabila boshliqlarining shaxsiga sig'inishi qaysi dinlarga xos?**
a) milliy;
b) urug'-qabilaviy;
d) jahon;
e) samoviy.

**20. Islom dinida qanday mazhablar bor?**
a) molikiylar, hanafiylar, shofi'iylar va hanbaliylar;
b) hanafiylar, sunniylar, xorijiylar va vahhobiylar;
d) islom dinidan ajralib chiqqan barcha oqim va mazhablar;
e) sunniylar va shialar.

**21. Islomning sunniylik va shialik bo'linishi qachon ro'y berdi?**
a) VII asrning ikkinchi yarmida;
b) VII asrning boshlarida;
d) VII asrning birinchi yarmida;
e) VI asrning ikkinchi yarmida.

**22. Islom qaysi mintaqalarda keng tarqalgan?**
a) Ozarbayjon, Janubiy Osetiya, Dog'iston, Oltoy o'lkasi va O'rta Osiyoda;
b) O'rta Osiyo, Qozog'iston, Tatariston, Boshqirdiston, Shimoliy Kavkaz, Dog'iston va ayrim Kavkaz orti respublikalarida;
d) Ukraina, Tojikiston, Estoniya, Qirg'iziston va Shimoliy Osetiyada.

**23. O'zbekistondagi masjid va madrasalar faoliyatini kim boshqaradi?**
a) imom-xatiblar;
b) davlat idoralari;
d) dinning o'zi;
e) O'zbekiston musulmonlari idorasi.

**24. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi e'lon qilingan?**
a) 18-moddasida;
b) 57-moddasida;
d) 31-moddasida;
e) 34-moddasida.

**25. Eng qadimgi jahon dini qaysi?**
a) hinduiylik;
b) yahudiylik;

d) buddaviylik;
e) islom.

**26. Yahudiylik dinining asosiy aqidasi nimaga ishonishdan iborat?**
a) missiyaning kelishiga;
b) oxiratga;
d) yagona xudo Yahvega;
e) yahudiy xalqi xudo tomonidan tanlanganiga.

**27. Xristianlik qachon Rim imperiyasining davlat diniga aylandi?**
a) eramizning I asrida;
b) eramizning II asrida;
d) eramizning III asrida;
e) eramizning IV asrida.

**28. E'tiqod qiluvchilarning miqdori jihatidan eng katta din qaysi?**
a) buddaviylik;
b) hinduiylik;
d) islom;
e) xristianlik.

**29. 2007-yilda «Toshkent – islom madaniyatining poytaxti» deb qaysi xalqaro tashkilot e'lon qildi?**
a) BMT;
b) YUNESKO;
d) AYSESKO;
e) Islom olami uyushmasi.

**30. Turkistonlik buyuk muhaddislar kimlar?**
a) Ismoil al-Buxoriy, Alisher Navoiy, Al-Farobiy;
b) Imom at-Termiziy, Ismoil al-Buxoriy, Imom Dorimiy;
d) Abu Ali Ibn Sino, Imom at-Termiziy, Beruniy;
e) Shayx Sa'diy, Rudakiy, Ahmad Yassaviy, Jomiy.

**31. Inson kamoloti nimalarga bog'liq?**
a) faqat Ollohga;
b) Qur'on, hadislarni yaxshi bilib, musulmonchilik qoidalarini bajarishga;
d) kecha-yu kunduz tinmay ishlashga;
e) umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilib, ilm olish, halol, oqilona mehnat qilishga.

**32. Islomdagi asosiy amaliy va marosimiy talablar qaysilar?**
a) sunnat, bibiseshanba, irim-sirimlar;
b) ro‘za tutish, namoz o‘qish, zakot berish, iloji bo‘lsa hajga borish;
d) janoza, xudoyi, ashur oshi, navro‘z, nikoh.

**33. Iso Masix qaysi dinning payg‘ambari?**
a) buddaviylik va sintoiylik;
b) islom, hinduiylik va katoliklik;
d) butun dunyo xristianlari va turli yo‘nalish, oqimlar;
e) faqat pravoslav va protestant.

**34. «Avesto» qaysi dinning muqaddas kitobi?**
a) musulmonlarning;
b) xristianlarning;
d) zaroastrizm (zardushtiylik)ning;
e) buddaviylar va yahudiylarning.

**35. Eng ko‘p musulmon aholi yashaydigan davlat qaysi?**
a) Malayziya;
b) Eron;
d) Indoneziya;
e) Pokiston.

**36. Totemizm nima?**
a) tarixiy din shakllaridan biri;
b) ibtidoiy jamoada turli hayvonlarni urug‘-qabilaga asos solgan deb hisoblab, ilohiylashtirish va sig‘inish;
d) tush ko‘rish va boshqa irim-sirimlarga ishonish;
e) jonsiz narsalarni ilohiylashtirish va sig‘inish.

**37. Imom Moturidiy qaysi ilm asoschisi hisoblanadi?**
a) kalom;
b) fiqh;
d) tasavvuf;
e) islom tarixi.

**38. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun nechta moddadan iborat?**
a) 52 ta modda;
b) 32 ta modda;
d) 23 ta modda;
e) 28 ta modda.

**39. Mazhab so‘zining ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**
a) ergashish;
b) yo‘l;
d) ta’limot;
e) qonun.

**40. O‘zbekiston aholisi ko‘proq qaysi jahon dinlariga e’tiqod qiladi?**
a) faqat islom diniga;
b) islom, xristianlik, buddaviylik va yahudiylikka;
d) islom va xristianlikka;
e) islom, yahudiylik, sintoiylik va katoliklikga.

**41. «Mahobxorat» qanday manba?**
a) tarixiy;
b) falsafiy;
d) adabiy;
e) harbiy.

**42. Dindorlar ibodatlari uchun davlatga soliq to‘laydimi?**
a) musulmonlar soliq emas, xayr-i ehson qilishlari mumkin;
b) musulmonlar ibodatlari uchun hech qanday soliq to‘lamaydi. Lavozimdagi ruhoniylar esa maoshlaridan faqat daromad solig‘i to‘laydi;
d) yig‘ilgan hamma pullar davlat bankiga o‘tkazib qo‘yiladi.
e) dindorlarning soliq to‘lashi qonunda belgilanmagan.

**43. Qur’oni karim sura va oyatlariga o‘zgartirish kiritish mumkinmi?**
a) mumkin, agar ulamolar qaror qilsa;
b) agar jamiyat hayotiga zid kelib qolsa;
d) yo‘q, chunki Qur’on – ilohiy hisoblanadi va uni o‘zgartirish mumkin emas;
e) O‘zbekiston musulmonlari idorasi o‘zgartirishi mumkin.

**44. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi musulmonlarga nimalar berdi?**
a) musulmonlarga keng ko‘lamda Makkaga hajga borishni;
b) imkoniyati va zaruriyati bo‘lgan joylarda masjidlar qurish va ta’mirlashni;
d) fuqarolarning vijdon erkinligini chin ma’noda ta’minladi;
e) arab yozuvini keng o‘rganish imkonini berdi.

**45. Dinlarning bir-biridan farqi nimada?**
a) turli tillarda ibodat qilishida;
b) mintaqalarida turli aholining joylanishida;
d) diniy urf-odat va marosimlarning amalga oshirilishida;
e) jahonda tinchlik uchun kurashishda.

**46. Qur'onda hammasi bo'lib nechta sura bor?**
a) 100;
b) 114;
d) 124;
e) 130.

**47. Xristianlikning qaysi oqimi Yevropa va Lotin Amerikasida eng ko'p tarqalgan?**
a) pravoslavlik;
b) baptistlik;
d) katoliklik;
e) protestantlik.

**48. Musulmonlarning tushunchasi bo'yicha Muhammad kim?**
a) u oddiy inson va diniy shaxs;
b) xudoning suyukli bandasi;
d) xudo tomonidan yuborilgan elchi, vakil, eng oxirgi payg'ambar.

**49. Islom dini O'rta Osiyoga qachon tarqala boshlagan?**
a) VII asr oxiri – VIII asr boshlarida;
b) V asrda;
d) VIII asrda;
e) VI asr oxiri va VII asr boshida.

**50. YUNESKO tomonidan «Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiya»si qachon qabul qilingan?**
a) 1948-y. 10-dekabr;
b) 1995-y. 16-noyabr;
d) 1998-y. 16-noyabr;
e) 2000-y. 16-noyabr.

## TO‘G‘RI JAVOBLAR

| SAVOL | JAVOB | SAVOL | JAVOB |
|---|---|---|---|
| 1 | D | 26 | D |
| 2 | B | 27 | E |
| 3 | D | 28 | E |
| 4 | B | 29 | D |
| 5 | D | 30 | B |
| 6 | A | 31 | E |
| 7 | E | 32 | B |
| 8 | E | 33 | D |
| 9 | A | 34 | D |
| 10 | D | 35 | D |
| 11 | E | 36 | B |
| 12 | A | 37 | A |
| 13 | A | 38 | D |
| 14 | E | 39 | B |
| 15 | D | 40 | D |
| 16 | E | 41 | D |
| 17 | B | 42 | B |
| 18 | B | 43 | D |
| 19 | B | 44 | D |
| 20 | A | 45 | D |
| 21 | A | 46 | B |
| 22 | B | 47 | D |
| 23 | E | 48 | D |
| 24 | D | 49 | A |
| 25 | D | 50 | B |

## GLOSSARIY

**AVTOKEFAL CHERKOVLAR** (yunoncha – «o‘z-o‘zini boshqarish») – pravoslavlikdagi mustaqil boshqaruvga ega bo‘lgan cherkovlar tuzilmasi. Ma’lum bir tashkilot «avtokefal» maqomini olishi uchun miro moyini mustaqil ravishda tayyorlay olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

**AVTONOM CHERKOVLAR** (yunoncha – «mustaqil») – biror-bir avtokefal cherkovdan ichki tartib-qoidalarni mustaqil bajarish huquqini olgan cherkov. Avtonom cherkov rahbari avtokefal cherkov patriarxi tomonidan tasdiqlanadi.

**APOSTOL** (yunoncha – «elchi») – xristian ta’limotiga binoan Isoning eng yaqin yordamchilarining unvoni. Ularning asosiylari 12 ta: Pyotr (Simon Ionin), Andrey, Ioann, Iakov Zevedeev, Filipp, Varfolomey, Matfey, Foma, Iakov Alfeyev, Faddey, Simon Kananit, Iuda Iskariot (Isoni sotgan havoriy), Matfiy (Iudadan so‘ng uning o‘rnini egallagan). Bulardan tashqari yana 70 nafar havoriylar mavjud bo‘lgani xristian adabiyotlarida qayd etiladi.

**AQIDAPARASTLIK** – biron g‘oya yoki tamoyilni mutlaqlashtirib konkret obyektiv sharoitni hisobga olmagan holda ko‘r-ko‘rona qo‘llash buni ijtimoiy hayotning istagan sohasidan topish mumkin. Keyingi davrlarda diniy aqidaparastlik faollashib ketdi. Barcha dinlarda shak keltirmasdan, muhokama qilmasdan e’tiqod qilish lozim bo‘lgan fikrlar – aqidalarni mutlaqlashtirib ularni saqlab qolishga, tiklashga urinishlar kuchaydi.

**VIJDON ERKINLIGI** – ijtimoiy-falsafiy tushuncha; har kimning o‘z e’tiqodiga ko‘ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy

me'yorlarni buzmagan holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi.

**GUNOH** (fors – jinoyat, ayb) – shariat qonunlariga va diniy aqidalarga xilof ish yoki harakat.

**DIN** – arab tilidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi «ishonch, e'tiqod»dir. Istilohiy ma'nosi lotin tilidagi «religion» so'zi bilan mos keladi. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlar faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan to bizgacha o'tgan davrlarning ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir.

**DINIY FUNDAMENTALIZM** (lotincha – asos degani) – barcha dinlarda o'z ilohiy yozuvlarini ishonch uchun asos sifatida «so'zsiz» qabul qilib, ushbu dinlar paydo bo'la boshlagan dastlabki fundamental g'oyalarga qaytish, me'yorlar va tamoyillarga asoslangan davlat barpo qilish, diniy aqidalarni har qanday yo'llar bilan joriy qilishga urinishdir.

**DINIY MAROSIMLAR** – fuqarolarning diniy ta'limotlardan, ularning qonun-qoidalari va aqidalaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va xatti-harakatlari. Diniy marosimlar har qaysi din vakillarining o'z diniy ta'limotlari asosida kelib chiqqan. Islom dinida *aqiqa, amri ma'ruf, xatna, iftor* va boshqa marosimlar bor. O'zbekistonda diniy marosimlarni bemalol amalga oshirilishi ta'minlanadi. Ammo ular qonunlarni, jamoat tartibini buzmasligi va shaxsga hamda fuqarolarning huquqiga daxl qilmasligi kerak.

**DINIY TASHKILOT** – diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va din yo diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'z-o'zini boshqaruvchi uyushma.

**INJIL** (yunoncha – «kitoblar») – yahudiylik va xristianlik dinlarining asosiy muqaddas manbai. Yahudiylar «Injil»i «Kitve kadesh» va «Tanax» ham deb nomlanadi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan Injil «Qadimgi Ahd» va «Yangi Ahd»dan iborat bo‘lib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.

**IMON** – arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi – ishonch demakdir. Shariatda esa janob payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom Olloh tarafidan keltirgan barcha xabarlarga til bilan iqror bo‘lib, dil bilan tasdiqlashga imon deyiladi. Ya’ni Qur’oni karim va Hadisi shariflar orqali Alloh to‘g‘risida, jannat, do‘zax, qiyomat kabilar haqida berilgan xabarlarga ishonch – imondir. Ma’naviy-axloqiy fazilat sifatida esa imon faqat insongagina xos ruhiy hodisa jumlasiga kiradi.

**ILOHIY KITOBLAR** – muayyan dinda muqaddas va ilohiy hisoblanadigan kitoblar. Diniy ta’limotga ko‘ra, Alloh o‘tgan payg‘ambarlarning ba’zilariga sahifalar, ayrimlariga esa kitoblar nozil etgan. 100 sahifa va 4 kitob – 100 sahifadan 10 sahifani Odam (a.s.)ga, 50 sahifani Shis (a.s.)ga, 30 sahifani Idris (a.s.) ga, 10 sahifani Ibrohim (a.s.) ga yuborgan. Muso (a.s.)ga Tavrot, Dovud (a.s.)ga Zabur, Iso (a.s.)ga Injil va Muhammad (a.s.)ga Qur’onni nozil qilgan. Qur’ondan boshqa ilohiy kitob va sahifalar bir yo‘la bir daf’ada nozil qilingan, deb hisoblanadi. Qur’on hazrati Jabroil orqali 23 yil mobaynida oyat-oyat, sura-sura shaklida yuborilgan.

**ISLOM FUNDAMENTALIZMI** – Qur’on va hadislarga so‘zma-so‘z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ‘ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi oqim. Islom fundamentalizmi vakillari islomning fundamental (asosiy) tamoyillari jamiyatning taraqqiyot yo‘lini belgilab beradi, deb hisoblaydilar va faqat ularga amal qilishga da’vat etadi. Keyingi paytlarda mutaassib musulmonlar «fundamentalistlar» deb atalmoqda.

**ISLOMGACHA BO‘LGAN MA’NAVIY MEROSIMIZNING NAMUNALARI** – muqaddas «Avesto» kitobida, «Kul-

tegin», «Bilga Xoqon», «To'ngyuquq» bitiklari, Kayxusrav va Doroga qarshi kurashgan milliy qahramonlarimiz haqida «To'-maris», «Shiroq» afsonalari, Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) ga qarshi kurashgan Spitamen haqidagi rivoyatlar, Panjikentda topilgan (1932-yilda) so'g'd yozuvidagi 86 hujjat, Xorazmdagi Tuproq qal'adan topilgan 83 dan ortiq qadimgi Xorazm yozuvlarida va boshqa hujjatlarida o'z aksini topgan.

**ISLOM** – (arabcha – bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish) – jahonda keng tarqalgan uch din (buddaviylik va xristianlik bilan bir qatorda)dan biri. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha «muslim» («islomni qabul qilgan», «itoatli», «sadoqatli»; ko'pligi «muslimun») deb ataladi. «Muslim», «muslimum» so'zining boshqa xalqlar orasida o'zgacha talaffuz etish (masalan, forslarda – musalmon, o'zbeklarda – musulmon, qirg'iz va qozoqlarda – musurmon, Ukraina va Rossiyada – basurmon, musulman) natijasida bu dinga e'tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi. Lekin bularning ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan.

**MADINA** – (arab. – shahar, to'liq arabcha nomi – Madinat Rasululloh yoki Madinat an-nabiy – payg'ambar shahri) – Saudiya Arabistonining shimoli-g'arbiy qismidagi shahar. Hijoz viloyatida bo'lib, xalq uni Madinai munavarra – Nurafshon shahar deb e'zozlaydi. Makkadan 400 km. shimolda joylashgan. Madinaga asos solingan vaqt noma'lum. Qadimgi Yasrib (Yatrib) ilk o'rta asrlardan boshlab Madina deb atalgan. 622 yil Muhammad (s.a.v.) Makkadan Madinaga ko'chib o'tganlar va qolgan umrlari shu yerda kechgan.

**MADRASA** – (arab. – dars o'qitiladigan joy, darsxona) islomda o'rta maxsus diniy o'quv yurti. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ulamolar va maktabdorlar, davlat idora xodimlarini tayyorlagan. Islom mamlakatlarida madrasa haqidagi ilk ma'lumotlar X asrga oid bo'lib, ular Xuroson va Movarounnahrda joylashgan. XI asrdan boshlab yetakchi o'quv yurtiga aylangan,

bungacha ta'lim masjidlarda va xususiy uylarda, shuningdek, mehmonxonalar, kutubxonalar, kasalxonalarda olib borilgan. Madrasalar vaqf hisobiga ta'sis etilgan. Madrasalarda mudarrislar va boshqa xizmatchilar maosh, talabalar stipendiya, o'quv jihozlari (daftar, kitob, qalam va boshqalar) va turar joy bilan ta'minlangan.

**MUHADDIS** (arab. – hadis rivoyat qiluvchi) – hadislarni to'plash, saralash va sharhlash bilan shug'ullanuvchi. Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan keyin hadislarni to'plash keng an'anaga aylana boshlashi natijasida olimlarning bir qismi bu sohada ixtisoslashgan va ular muhaddislar deb nom olgan. Hadis to'plamlari islom an'anasida e'tibor qozonib, muhaddislar (masalan, Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziy va boshqalar) islom tarixida mashhur bo'lib ketgan. Islomda hadis Qur'ondan keyingi ikkinchi manbaa hisoblanadi.

**OR-NOMUS** – imonli bo'lishning belgilaridan biri hisoblanadi. Or qilish odamning o'ziga nomunosib yoki ep ko'rmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg'usidir. Or yana biror narsadan hazar qilishni ham bildiradi. Oriyat esa or-nomusdan tashqari izzat-nafs, qadr tuyg'usidir. Odatda oriyatli odamlar o'zlari va oilalarining, tug'ishganlarining izzat-nafsi, qadri, hurmatini yuksak tutib, boshqalar tomonidan toptalishi, haqorat qilinishi va hurmatsizlanishiga loqaydlarcha qarab turmaydi, turolmaydi.

Nomus – bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari kishining o'z mavqeini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'usini, oila va ajdodlar sha'niga dog' tushirmaslik ma'nosini ifodalaydi.

**POKLIK VA HALOLLIK** – Insonning insonligi uning pokligi va halolligi bilan o'lchanadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz hamisha pok va halol bo'lishga da'vat etib kelishgan, halol bilan haromni farqlash to'g'risida nasihat qilishgan. Bu musulmon olami, xususan, o'zbek xalqi odob-axloq mezonlarining asosini, boshqacha aytganda, imonning negizini tashkil

etadi. Poklik va halollik esa imonning asosiy belgilaridan biridir. Poklik va halolliksiz imonli bo'lish mumkin emas. Imonli bo'lishning o'zi esa insonning pokligi va halolligiga yo'g'rilgandir. Pok va halol bo'lmagan odamdan ezgulik chiqmaydi, unda mehr-shafqat, oriyat, nomus, sharm va hayo bo'lmaydi.

**SAHOBALAR** – (yoxud as-sahoba, sohib – «tarafdor»ning ko'pligi – ashob) – Muhammad (s.a.v)ning safdoshlari, u zot bilan muloqotda bo'lgan yoxud g'azotlarda qatnashgan kishilar; keyinchalik Muhammad (s.a.v.)ni loaqal bir marotaba, garchi go'daklik chog'ida bo'lsa ham ko'rgan barcha kishilar sahobalar deb atala boshlagan.

**TARKIDUNYOCHILIK** – odamlardan, tashqi dunyodan, shuningdek, jamiyat va oiladan ajralib yashash, kimsasiz joylarga bosh olib ketish, darbadarlikda kun kechirish. Islomdan boshqa yirik dinlar (braxmanizm, buddaviylik, xristianlik)ga ham xos xususiyatdir. Uning mohiyati din yo'lida riyozat chekish. Tarkidunyo qilganlar odamlardan uzoqda va g'orlarda hayot kechirishgan, o'zlarini xilma-xil uqubatlarga duchor qilganlar, och-yalang'och yashaganlar va hokazo. Ayniqsa, uylanish, avlod qoldirishga, kundalik hayot tashvishlari bilan yashashga nafrat bilan qarashgan.

**TASAVVUF** (sufiylik) – ijtimoiy-falsafiy oqimlardan biri.

Ko'pchilik olimlar sufiy so'zi arabcha «suf» so'zidan hosil bo'lgan, uning lug'aviy ma'nosi jun va jundan to'qilgan matodir deb, sufiylar ko'p hollarda jun chakmon va qo'y terisidan tikilgan po'stin kiyib yurganligi uchun ularni jun kiyimlilar, ya'ni sufiylar deb yuritganlar.

Bu oqim VII asr oxiri VIII asr boshlarida Islom dini asosida vujudga kelgan va o'z ta'limotini, Qur'on va hadislarga asoslanib rivojlantirgan.

**TOSHKENT ISLOM INSTITUTI** – Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti – oliy diniy o'quv yurti. 1970-yil tashkil etilgan. 1971-yil oktabrdan faoliyatini boshlagan. O'zbekiston musulmonlar idorasi tasarrufida. Dinlar tarixi va

nazariyasini chuqur egallagan, islom dini asoslarini o‘zlashtirgan, arab tilida so‘zlasha oladigan mutaxassislar, imom xatiblar tayyorlaydi.

**TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI** – oliy o‘quv yurti. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 7-apreldagi Farmoniga binoan tashkil etilgan.

Asosiy vazifasi va maqsadi – islom diniga oid boy va noyob ma’naviy-madaniy merosni chuqur o‘rganish, uni asrab-avaylash, kelajak avlodga yetkazish, shu sohada yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash.

**O‘ZBEKISTONDAGI DINIY KONFESSIYALAR** – rus pravoslav, Rim-katolik, arman – Grigoryan, Lyuteran cherkovlar (xristian konfessiyasi), shuningdek, yahudiylik, islom konfessiyalari, jami 16 ta diniy konfessiyalar mavjud.

**QUR’ON** – (arab. – o‘qimoq, qiroat qilmoq; jamlash) – Alloh tarafidan 23 yilga yaqin muddat mobaynida Muhammad a.s. ga oyatma-oyat, sura-sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitobdir. Bu kitob islom dinining muqaddas manbai hisoblanadi. Islom ilohiyot maktablaridan biri ahl as-sunna val-jamoa ta’limotiga ko‘ra, Qur’on Alloh taoloning so‘zi va uning azaliy ilmi bo‘lib, Muhammad a.s. ga vahiy orqali nozil bo‘lgan. Qur’on o‘zidan oldin nozil bo‘lgan barcha ilohiy kitoblarning ma’no, hikmat va ahkomlarini o‘zida jamlaganiga ishorat bordir. Qur’on 114 ta suradan iborat. Sura Qur’ondan bir bo‘lak bo‘lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o‘z ichiga oladi. Oyatlar soni esa Qur’on matnlarini taqsimlashning turli yo‘llariga ko‘ra, 6204 ta, 6232 ta, hatto 6666 tagacha belgilangan.

**HAZRATI IMOM MAJMUASI,** Hastimom – Toshkentdagi me’moriy yodgorlik. Majmua qurilishiga Imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy (904–976) ning qabri asos bo‘lgan. Qabr va uning atrofida vujudga kelgan

qabriston hamda me’moriy yodgorliklar majmuasi (Kaykovus bog‘i bilan birga) Hazrati Imom nomi bilan ataladi. XVI asrning 30-yillarida 2 ta maqbara qurilgan; kattasi Toshkentning shayboniylar sulolasidan bo‘lgan xoni Suyunchxo‘jaxon maqbarasi deb taxmin etiladi. XVI asrning 50-yillarida bu binolar Baroqxon madrasasi me’moriy yodgorligi tarkibiga qo‘shilgan.

2007-yilda Toshkent shahrining «Hastimom» dahasida qisqa muddatda to‘rt oy ichida «Xazrati Imom» masjidi, «Baroqxon» madrasasi, «Mo‘yi muborak» ziyoratgohi, O‘zbekiston musulmonlari idorasining yangi binosi va boshqa maskanlarni o‘z ichiga olgan yangi majmua qurib bitkazildi.

**HIJRIY YIL HISOBI** – xalifa Umar ibn Xattob tomonidan joriy qilingan musulmonlar yil hisobi. Muhammad (s.a.v.) va safdoshlarining Makkadan Madinaga ko‘chishi bilan bog‘liq. Qamariy (hijriy-qamariy yil) va shamsiy (hijriy-shamsiy yil) ga bo‘linadi. Qamariya bo‘yicha Hijriy yil hisobi 622-yilning 16-iyulidan boshlanib, sinodik oy (29,530588 kun)ga asoslangan. O‘n ikki oydan iborat bir qamariy yil 354, 361 kundan iborat bo‘ladi. Qamariy yilda 1, 3, 5, 7, 9 va 11 oylar 30 kundan, qolganlari 29 kundan butun qilib olingan. Oylar tartibi bilan muharram, safar, rabbiul avval, rabbiul oxir, jumodil oxir, rajab, shabon, ramazon, shavvol, zulqada, zulhijja deb ataladi. Qamariy yil tropik yildan (hozirgi grigoriy taqvimidan) 10–12 kun qisqa.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 2012.
2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni (yangi tahriri) // O‘zbekistonning yangi qonunlari, № 19. – T.: «Adolat», 1998. 224–234-betlar.
3. *Karimov I.A.* O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – T.: 1992.
4. *Karimov I.A.* O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: 1996.
5. *Karimov I.A.* O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: 1997.
6. *Karimov I.A.* Alloh qalbimizda, yuragimizda. – T.: 1999.
7. *Karimov I.A.* Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. – T.: «O‘zbekiston», 2000.
8. E’tiqod erkinligi qonuniy asosda bo‘lsin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis XI sessiyasida so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi, 1998, 5-may.
9. *Karimov I.A.* Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: «Sharq», 1998.
10. *Karimov I.A.* Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008.
11. *Karimov I.A.* Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: «O‘zbekiston», 2009.
12. *Azimov A.* Islom va hozirgi zamon. – T.: 1992.
13. *Бертельс Е.Э.* Суфийлик и суфийская литература. Изб. труды. Т III. – М.: 1965.

14. *Beruniy Abu Rayhon.* Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, I tom. – T.: 1968.
15. *Beruniy Abu Rayhon.* Tanlangan asarlar. V tom. – T.: 1973.
16. Библия. – Москва: 1997.
17. *Большаков О.Г.* История халифата. 1–3 части. – М. 1989–1998.
18. *Imom al-Buxoriy.* Al-Jomi' as-sahih (4 jildlik). Qomuslar bosh tahr., – T.: 1991–1993.
19. *Imom al-Buxoriy.* Al-adab al-mufrad. – T.: 1990.
20. Islom. Ensiklopediya. – T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi», 2004.
21. *Васильев А.С.* История религий Востока. – М.: 1997.
22. *Васильев Л.С.* Культы, религии, традиции в Китае. – М.: 1970.
23. *Винничук Л.* Люди, нравы, обычаи Древней Греции и Рима. – М.: 1988.
24. Dinshunoslik. Ma'ruzalar matni. – T.: 2000.
25. *Jo'rayev U., Saidjonov Y.* Dunyo dinlari tarixi. – T.: 2001.
26. *Ibrohimov N.* O'rta asr arab xalq adabiyoti. – T.: «Fan», 1994.
27. *Ishoqov M.M.* Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari (Zardushtiylik, Zardusht va «Avesto» haqida) // «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 1993. №2.
28. *Karomatov H.* Qur'on va o'zbek adabiyoti. – T.: 1993.
29. *Кейпер Ф.* Труды по ведийской мифологии. – М.: 1986.
30. *Крачковский И.* Перевод Корана и комментарии. – М.: 1963.
31. *Кривилев И.* История религий. – М.: 1989.
32. *Mansurov A., Jo'rayev U., Lafasov M.* Hadis ilmi saboqlari. – T.: 1999.
33. Mahmud As'ad Jo'shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. – T.: 1998.
34. *Мень А.* История религии. – М.: 1994.
35. *Muhamedov N.* O'zbekistonda dinlararo muloqotning tarixiy asoslari // O'zbekistonda dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligi. – Toshkent, 2009. – B. 11–15.

36. *Muhamedov N.* Dinshunoslikni o'qitishda uzluksizlikni ta'minlash // «Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning ijtimoiy monitoringi, jarayonning ilmiy asoslari va natijaviyligi» Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2013-yil 17-dekabr). – T.: 2013. – B. 22–24.
37. *Muhamedov N.* Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda dinlararo bag'rikenglikning ahamiyati // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: TIU, 2014.
38. Религиозные традиции мира. В 2-х томах. – М.: 1996.
39. *Саблукова Г.* Перевод Корана. – Казань: 1977.
40. *Снесарев А.* Этнографическая Индия. – М.: 1981.
41. *At-Termiziy.* Sahih at-Termiziy (A. Abdullo tarjimasi). G'. G'ulom, – T.: 1993.
42. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya. Sayid Mahmud Taroziy-Oltinxonto'ra tarjimasi. – T.: 1991.
43. *Токарев С.А.* Религия в истории народов мира. – М.: 1987.
44. *Uvatov U.* Muslim ibn al-Hajjoj. – T.: 1995.
45. *Uvatov U.* Muhaddislar imomi. – T.: 1998.
46. Хрестоматия по исламу. Пер. с арабского, введ. и примеч. – М.: 1994.
47. *Чураков М.В.* Народное движение в Магрибе под знаменем хариджизма. – М.: 1990.
48. *Hasanov A.* Qadimgi Arabiston va ilk islom. Johiliya asri. – T.: 2001.
49. *Hasanov A.* O'zbekistonda diniy bag'rikenglikning tarixiy an'analari // Jaholatga qarshi ma'rifat – tinchlik va barqarorlik asosi. – T.: Toshkent islom universiteti, 2003.
50. O'zbekiston: dinlararo hamjihatlik – tinchlik garovi. – T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2005. – 47 b.
51. O'zbekiston – bag'rikeng diyor. – T.: O'zbekiston, 2007. – 280 b.
52. *Ochildiyev A., Najmiddinov J.* Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga – yuz javob). – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 200 b.

53. Diniy bag‘rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga – yuz javob). – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.
54. *Aliyev J.* Zulmat girdobi. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 32 b.
55. Hidoyat ortiga yashiringan zalolat. Mualliflar jamoasi. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.
56. *Shermuhamedov K.* Jaholat to‘ri. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 48 b.
57. *Meliqo‘ziyev J.* Halokat tuzog‘i. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 32 b.
58. *Jo‘rayev Sh.* Buzg‘unchi da’vatchilar. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 40 b.
59. *To‘ychiboyev A.* Islomga yot jamoa. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.
60. Islom ma’rifati: asliyat va talqin. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 160 b.

## MUNDARIJA

Kirish ... 3
1-§. «Dinshunoslik» faniga kirish ... 5
2-§. Dinning ibtidoiy shakllari ... 13
3-§. Milliy dinlar. Yahudiylik, hinduiylik, jayniylik, sikxiylik, konfutsiylik,daochilik, sintoiylik ... 19
4-§. Zardushtiylik ... 32
5-§. Jahon dinlari. Buddaviylik ... 40
6-§. Jahon dinlari. Xristianlik ... 50
7-§. Jahon dinlari. Islom ... 59
8-§. Islomdagi oqimlar: xorijiylar va zamonaviy ko‘rinishdagi oqimlar ... 74
9-§.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligi ... 83
10-§. Diniy bag‘rikenglikning mazmun-mohiyati va ahamiyati ... 89
Test savollari ... 97
Glossariy ... 106
Adabiyotlar ro‘yxati ... 114

**Z. ISLOMOV, N. MUHAMEDOV, F. SINDAROVA**

# DINSHUNOSLIK

*Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun*
*o'quv qo'llanma*


Muharrir *T. Nazarov*
Badiiy muharrir *J. Gurova*
Texnik muharrir *D. Salixova*
Musahhih *Sh. Ilhombekova*
Kompyuterda sahifalovchi *B. Babaxodjayeva*

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,
Mash’al mahallasi, Markaziy ko‘chasi, 1-uy.
Litsenziya raqami AI №265. 24.04.2015.

Bosishga 2016-yil 09-oktabrda ruxsat etildi. Bichimi $60\times90^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. «Tayms New Roman» garniturasi. Kegli 12,5. Shartli bosma tabog‘i. 7,5.
Nashr tabog‘i. 6,97. Adadi 74930 nusxa. Buyurtma №591.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O‘qituvchi» nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi. Toshkent – 209, Yunusobod dahasi, Yangishahar ko‘chasi, 1-uy.
Shartnoma №108-16. Buyurtma №